

## **DOLZARB**

### **Farxod XAITMETOV**

Kiberjinoiy firibgarlik uchun javobgarlik: xalqaro va milliy tajriba ..... 27

## **YUVENAL HUQUQ**

### **Saloxidin ISMOILOV, Nurlibay NAZARIMBETOV**

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlari ..... 31

## **MUTAXASSIS MINBARI**

### **Surur BERDIYEV**

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik ..... 35

## **TAHLIL, TAQQOS**

### **Zafar KUVONDIKOV**

Yo'l harakati huquqbuzarliklarini baholash va differentsiatsiyalashning huquqiy asoslari ..... 38

## **QIYOS**

### **Murodjon ANORBOYEV**

Yolg'on guvohlik uchun javobgarlik: MDH tajribasi ..... 42

## **YASHASH HUQUQI**

### **Zulxumor IBROHIMOVA**

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati uchun javobgarlik: tarix, zarurat va xorijiy tajriba ..... 45

## **NUQTAYI NAZAR**

### **Sadoqat XOLMATOVA**

Nodavlat tashkilot mansabdor shaxsining vakolatini suiiste'mol qilishi tushunchasi ..... 48

## **MEHNAT HUQUQI**

### **Nurya BERDINIYAZOVA, Biybinaz OPAYEVA**

Mehnat jamoasida inson huquqlarini ta'minlashda kasaba uyushmasining o'рни va ahamiyati ..... 51

## **TALQIN**

### **Nurmuhammad BOLLIYEV**

Bukmekerlik faoliyatining vujudga kelishi: qadimgi zamonlardan raqamli davrgacha ..... 53

## **ISLOHOT**

### **Munisa TOG'AYEVA**

Ma'muriy tartib-taomillarda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning huquqiy masalalari ..... 57

## **MULOHAZA**

### **Xayriniso JO'RAYEVA**

Mualliflik huquqida "Yetim asarlar" rejimi: Yevropa ittifoqi direktivalari asosida O'zbekiston uchun modellar ..... 60



# Oliy ta'limni raqamlashtirish va innovatsiyalarning huquqiy asoslari

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va innovatsion faollikni oshirishga qaratilgan islohotlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarning markazida esa raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga doir huquqiy asoslarni takomillashtirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Global raqamli inqilob sharoitida oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki iqtisodiyot uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Oliy ta'limda raqamlashtirish jarayoni shunchaki texnik yangilanish emas, balki ta'lim jarayonini boshqarish, baholash, moliyalashtirish, ta'lim resurslaridan foydalanish va ilmiy faoliyatni tashkil etishda yangi huquqiy munosabatlarni shakllantiruvchi omildir. O'zbekiston Konstitutsiyasida ta'lim olish har bir fuqaroning asosiy huquqi sifatida belgilangan bo'lib, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun esa ta'lim jarayonlarini tashkil etish, jumladan, axborot texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asosini belgilaydi. Qonunda masofaviy ta'lim, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishga oid qoidalarning joriy etilishi raqamlashtirishning markaziy huquqiy nuqtalaridan biri bo'lib xizmat qiladi<sup>1</sup>.

Oliy ta'limni raqamlashtirishning asosiy drayveri sifatida O'zbekiston Prezidentining farmon va qarorlari xizmat qiladi. Xususan, Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida elektron resurslar, raqamli kampuslarni shakllantirish hamda masofaviy

ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan<sup>2</sup>. Raqamli transformatsiyani jadallashtirishga oid qarorlarda universitetlarda elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish, yagona ma'lumotlar bazalarini samarali boshqarish hamda onlayn xizmatlar ko'lamini kengaytirish masalalari o'z aksini topgan. Ushbu me'yoriy hujjatlar oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy raqamli infratuzilmani yaratish va axborot xavfsizligi choralari ni kuchaytirish kabi strategik yo'nalishlarga mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, oliy ta'limda raqamlashtirish jarayonlari quyidagi qonunlar bilan bog'liqdir: O'zbekistonning 2015-yil 9-dekabrda "Elektron hukumat to'g'risida"gi 395-qonuni<sup>3</sup> universitetlarda davlat xizmatlarini elektron ko'rinishga o'tkazishni tartibga solsa, 2003-yil 11-dekabrda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II qonun<sup>4</sup> ta'lim sohasida axborot resurslari, tizimlari va texnologiyalarini joriy etishning qat'iy talablarini belgilab beradi.

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/5013007>.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/docs/4545884>.

<sup>3</sup> <https://lex.uz/ru/docs/2833860>.

<sup>4</sup> <https://lex.uz/uz/docs/83472>.



Ushbu qonunlar raqamli ta'lim platformalarini yaratish, foydalanuvchi ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlash va raqamli muhitdagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-qonuni raqamli ta'limni huquqiy jihatdan yanada mustahkamladi. Xususan, unda masofaviy ta'lim shakli, elektron ta'lim resurslari, raqamli baholash hamda ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida tashkil qilish kabi normalar mustahkamlangan. Bu normalar oliy ta'lim muassasalarida elektron platformalar, virtual darslar va onlayn talabalar hisobi kabi jarayonlarning qonuniy asosini yaratdi.

So'nggi yillarda qabul qilingan bir qancha qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar raqamli oliy ta'limning huquqiy poydevorini yanada mustahkamladi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining quyidagi farmon va qarorlari ushbu sohada tub burilish yasadi. 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ta'lim tizimini raqamlashtirish milliy dasturi sifatida xizmat qiladi<sup>5</sup>. 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 61-qarori esa oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag' jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

2019-yilning 8-oktabrida "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-farmon imzolandi. Ushbu muhim hujjatda respublikadagi oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quac-

quarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalarining 85 foizini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Ushbu mexanizmni joriy etish strategik maqsadlarga mosligi bilan ahamiyatlidir.

Kredit-modul tizimi ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash va bilimni reyting asosida baholashga alohida ahamiyat beriladi. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish, bitta fan yoki kursning (kredit) qiymatini aniqlash, talabalar bilimni reyting balli asosida baholash, talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tuzishlariga imkon yaratish, ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish hamda ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi e'tirof etiladi.

Yuqoridagilar darslarni nafaqat innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabada mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib zaruriy hamda chuqur nazariy bilimlarni egallash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan bo'lib, ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>.



2019-yilning 8-oktabrida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-farmon imzolandi. Ushbu muhim hujjatda respublikadagi oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish va o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish belgilab berildi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizini kredit-modul tizimiga o‘tkazish ko‘rsatib o‘tildi.

Mazkur tizimning oliy ta‘limga joriy qilinishi o‘qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta‘minlash, korrupsiyaga barham berish, ta‘lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabning mustaqil o‘qib-o‘rganib, o‘z ustida ishlashiga zamin yaratdi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi o‘qituvchi va talabning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta‘limda pedagog tinglovchining o‘zlashtirish

jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi va tekshiradi. Talaba esa yo‘naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Bunda eng katta urg‘u aynan talabalarning mustaqil ta‘lim olishiga qaratiladi.

Oliy ta‘limda elektron jurnal, elektron reyting daftarlari, professor-o‘qituvchilarning elektron mehnat daftarchalari kabi mexanizmlar amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. Natijada oliy ta‘lim muassasalarida (OTM) byurokratik jarayonlar qisqardi va hisobotlar shaffofligi oshdi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi “Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 559-qaroriga ko‘ra, O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan sohada samarali foydalanish maqsadida Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Nizom talablaridan kelib chiqqan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabning turar joyidan qat‘i nazar unga ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish, masofaviy ta‘lim shakli joriy etish mumkin bo‘lmagan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan belgilash ko‘zda tutilgan.

### Masofaviy ta‘lim bo‘yicha qabul parametrlarini tasdiqlash hamda qabul jarayonini to‘lov-kontrakt asosida amalga oshirish tartibi quyidagicha belgilanadi:

- davlat oliy ta‘lim muassasalarida – Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan holda tegishli vazirlik (idora) tomonidan;
- moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta‘lim muassasalarida – muassasaning Kuzatuv kengashi tomonidan;
- nodavlat ta‘lim tashkilotlarida – ularning muassislari tomonidan.

Masofaviy ta‘limni maxsus platforma yordamida yoki mavjud platformalardan foydalanish holda tashkil etish, masofaviy ta‘limda bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlarini 1:50 nis-

batda belgilash, o‘quv jarayonini davlat ta‘lim standarti, kasbiy standartlar va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv rejalari hamda o‘quv dasturlari asosida amalga oshirish hamda masofaviy ta‘limga talabalarni qabul qilish va



o'quv jarayonini tashkil qilish tartibini belgilash, shuningdek, masofaviy ta'lim sifati monitoringini tashkil etish kabi jihatlar ham alohida e'tiborga olingan.

Shuni ta'kidlash lozimki, erishilgan yutuqlar bilan birga, raqamlashtirishning huquqiy asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, masofaviy ta'lim platformalarini akkreditatsiya qilish tartibi to'liq ishlab chiqilmagan<sup>6</sup>. Ikkinchidan, ta'lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga to'liq moslashtirilmagan hamda elektron baholash vositalarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan. Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida raqamli ma'lumotlar bazasini integratsiya qilishda yagona standartlar mavjud

emas. To'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy ma'lumotlari yetarli darajada himoya qilinmagan holatlar, ya'ni ma'lumotlar bazalarida texnik nosozliklar va litsenziyalanmagan dasturiy mahsulotlardan foydalanish kabi holatlar uchrab turadi. Beshinchidan, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida internet tezligi past, server quvvati talab darajasida emas, elektron ta'lim platformalari esa o'zaro integratsiyalashmagan. O'qituvchilar va ma'muriy xodimlarning ayrimlarida elektron platformada ishlash, onlayn baholash va raqamli dars ssenariylarini tuzish bo'yicha yetarli ko'nikmalar shakllanmagani raqamlashtirish samaradorligini pasaytirib, masofaviy ta'limning sifati va barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

**Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishning huquqiy asoslari va ularni amalga tatbiq etishda mavjud muammolarning huquqiy yechimlari sifatida masofaviy ta'limning huquqiy maqomini yanada aniq belgilash, ya'ni huquqiy yechim sifatida quyidagilar taklif etiladi:**

**birinchidan,** masofaviy ta'lim platformalarini sertifikatlashtirish tartibini joriy etish;

**ikkinchidan,** elektron baholash jarayonini to'liq huquqiy tartibga solish;

**uchinchidan,** oliy ta'lim muassasalarida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha davlat standartlarini yaratish;

**to'rtinchidan,** elektron ta'lim platformalarini birlashtiruvchi yagona milliy integratsiya tizimini shakllantirish;

**beshinchidan,** internet tezligini normativ darajaga yetkazish bo'yicha aniq huquqiy talablarni belgilash;

**oltinchidan,** pedagog va xodimlar raqamli savodxonligini oshirishni huquqiy tartibga solish hamda raqamli texnologiyalar bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslarini huquqiy talab sifatida joriy etish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish – zamonaviy rivojlanishning ajralmas talabi hamda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu jarayonni amaliy va huquqiy jihatdan ta'minlash hamda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish raqamlashtirish samaradorligini oshirib, ta'lim tizimini xalqaro mezonlarga yaqinlashtiradi.

**Shoxnazar BOBOKULOV,**

yuridik fanlar doktori,  
Toshkent xalqaro universiteti professori v.b.

<sup>6</sup> Иброҳимова Д. Масофавий таълимни аккредитация қилиш ҳуқуқий мезонлари, 2022.



# Ma'muriy sudlarda ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarini qo'llash

Huquqni anglash va uni amaliyotda to'g'ri tatbiq etishda huquqiy prinsiplar alohida o'rin tutadi. Muayyan davlatda shakllangan huquqiy tizimning mazmun-mohiyati aynan ushbu prinsiplar orqali namoyon bo'ladi. Prinsiplar masalasi davlat va huquq nazariyasi doirasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois huquq prinsiplari hamda ularning shakllanish manbalari xususida turli huquqshunos olimlar ilgari surgan xilma-xil yondashuvlar mavjud.

Xususan, X.Odilqoriyevning ta'kidlashicha, "Prinsip kategoriyasi "qonuniyat", "mohiyat" kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, huquqiy tizimning mohiyati uning asosiy prinsiplari mazmunida namoyon bo'ladi. Huquqiy tizim prinsiplari huquqning butun ichki tuzilishi va mazmunini belgilab beradi, shuningdek, uning boshqa ijtimoiy tizimlar bilan aloqasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Huquqni to'g'ri idrok etish va qo'llash jarayonida huquqiy prinsiplar muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir davlatda mavjud bo'lgan huquqiy tizimning mazmun va yo'nalishi aynan shu prinsiplar orqali ifodalanadi. Huquq prinsiplari masalasi davlat va huquq nazariyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyektlaridan biri bo'lib, u ko'plab olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Shuning natijasida huquq prinsiplarining mohiyati va vujudga kelish asoslariga doir turli ilmiy qarashlar shakllangan. Ushbu maqsadga erishishda bir qator muhim prinsiplardan foydalaniladi.

Xususan, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga muvofiq ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- mutanosiblik;
- ishonchlilik;
- tinglanish imkoniyatining mavjudligi;
- ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarlilik;
- manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi;
- byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi;
- mazmunan qamrab olish;
- ma'muriy ish yuritishning "bir darcha" orqali amalga oshirilishi;
- teng huquqlilik;
- ishonchning himoya qilinishi;
- ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretсион vakolatning) qonuniyligi;
- tekshirish<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Одилқориёв Х.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. – Тошкент. «Адолат», 2018. – 528 б.  
<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/-3492199>.



Ta'kidlash joizki, ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish jarayonida asosiy qoidalarni belgilab beruvchi prinsiplar muhim ahamiyatga ega. Ish yuritish jarayonida ushbu prinsiplarga rioya etilmasligi muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, qonunning 19-moddasiga muvofiq ma'muriy hujjatlar hamda ma'muriy harakatlar ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga rioya etilmasligi ma'muriy hujjatlar yoki ma'muriy harakatlarni bekor qilish yoxud ularni qayta ko'rib chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli ma'muriy organlar va ularning mansabdor shaxslari o'z faoliyatida ushbu prinsiplarning mazmun-mohiyatini to'liq anglashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mazkur prinsiplar sud amaliyotida ham keng qo'llanadi. Chunonchi, ma'muriy organ mansabdor shaxsining qarorini haqiqiy emas deb topish, shuningdek uning xatti-harakatlari yoki harakatsizligini qonunga xilof deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza ma'muriy sudga kiritilganda, sud qaror qabul qilish jarayonida ish yuritishda prinsiplarga rioya etilgan-etilmaganligiga alohida e'tibor qarata-di. Agar mazkur prinsiplardan birortasiga amal qilinmagan bo'lsa, sud shikoyat qilinayotgan qarorni haqiqiy emas deb topish yoki xatti-harakat (harakatsizlik)ni qonunga xilof deb e'tirof etish haqida hal qiluv qarori qabul qiladi.

---

Huquqni to'g'ri idrok etish va qo'llash jarayonida huquqiy prinsiplar muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir davlatda mavjud bo'lgan huquqiy tizimning mazmun va yo'nalishi aynan shu prinsiplar orqali ifodalanadi. Huquq prinsiplari masalasi davlat va huquq nazariyasi sohasida ilmiy tadqiqotlarning asosiy obyektlaridan biri bo'lib, u ko'plab olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ma'muriy protseduralarning mazmun va ahamiyati xususida turli fikrlar mavjud. Biroq ma'muriy protseduralar prinsiplari barcha davlatlar qonunchiligida alohida mustahkamlanmagan. Masalan, AQSh va Germaniyaning ma'muriy protseduralar to'g'risidagi qonunlarida bunday prinsiplar alohida normalar sifatida belgilanmagan bo'lib, ular asosan konstitutsiyaviy qoidalar hamda sud amaliyoti orqali shakllangan.

Qayd etish joizki, ma'muriy tartib-taomillar prinsiplarigina emas, balki ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunning qator boshqa normalari ham milliy huquq tizimi uchun yangilik hisoblanadi. Shu sababli mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar hozirga qadar yetarli darajada amalga oshirilmagan. "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunda ilgari bo'lmagan bir qator huquqiy normalar nazarda tutildi. Xususan, mutanosiblik, ishonchlilik, tinglanish imkoniyatining ta'minlanishi, ortiqcha byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi, mazmunan qamrab olish, ishonchni himoya qilish, ma'muriy ixtiyoriylikning qonuniyligi hamda tekshirish prinsiplari shular jumlasidandir.

Sud amaliyoti tahlili ayrim hollarda ma'muriy tartib-taomillar prinsiplariga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ma'muriy nizolarni hal etishda sudlar tomonidan yagona va barqaror huquqiy pozitsiya shakllanmaganligidan dalolat beradi.

"Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunga muvofiq ma'muriy tartib-taomillar ochiq, shaffof hamda manfaatdor shaxslar uchun tushunarli bo'lishi lozim. Ma'muriy organlar ma'muriy tartib-taomillarga oid axborotdan erkin foydalanish imkoniyatini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilikda belgilangan usullar orqali ta'minlashi shart.

Mazkur prinsip ma'muriy ish yuritishdagi asosiy va ustuvor prinsiplardan biri hisoblanadi. Uning mazmuniga ko'ra, davlat organi ma'muriy ish yuritish jarayonida qo'llaniladigan barcha ma'lumotlar to'g'risida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni o'z vaqtida xabardor qilishi hamda ular uchun ushbu ma'lumotlardan erkin va to'siqsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlashi lozim.



Italiyalik olim J. Kokossaning fikricha, qonunchilikdagi shaffoflik tushunchasining barcha jihatlarini to'liq ochib berish murakkab vazifadir. Muallif ushbu prinsipni qo'llashda turlicha yondashuvlar mavjudligini ta'kidlab, uning mazmun-mohiyati borasida hamon savollar ochiq qolayotganiga e'tibor qaratadi.

Xususan, ilmiy tadqiqotlarda shaffoflikni yaxlit bir umumiy prinsip yoki ijobiy huquq normalari tizimi sifatida tan olish masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. Olim shaffoflikning boshqaruv jarayonlari va butun boshqaruv tizimiga ta'sir qilish qobiliyatini alohida e'tirof etsa-da, shaffoflik, qulaylik va oshkoralik tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlik hamda ularning chegaralari xususida ilmiy shubhalar mavjudligini qayd etadi<sup>3</sup>.

Bundan tashqari, J.Kokossa shaffoflik prinsipi davlatdagi siyosiy vaziyat bilan bog'liq bo'lishini hamda har bir tarixiy davrda turlicha talqin qilish mumkinligini ta'kidlaydi.

J.Nematov mazkur prinsip haqida to'xtalib, ma'muriy protseduralar ochiq, shaffof va tushunarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ma'muriy organlar tomonidan barcha namunaviy hujjatlar, qonun hujjatlari manfaatdor shaxslar uchun ma'lum va tushunarli bo'lishi lozim<sup>4</sup>. Fikrimizcha, ushbu fikr mazkur prinsipning mazmunini to'liq ochib berolmaydi.

Mazkur prinsip bir qator muhim jihatlarni qamrab oladi. Jumladan, ma'muriy ish yuritish jarayoni ochiq amalga oshirilishi, ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslar uchun axborot olish imkoniyati hech qanday sun'iy to'siqlarsiz ta'minlanishi lozim. Shu bilan birga, manfaatdor shaxslarning ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish huquqi kafolatlanishi talab etiladi.

Bundan tashqari, ma'muriy organlar o'z faoliyatida qabul qilinayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan harakatlar hamda ish yuritish tartib-taomillarini manfaatdor shaxslar uchun sodda, aniq va tushunarli bayon etishi lozim. Bu esa ma'muriy ish yuritishning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerakki, shaffoflik prinsipi Yevropa davlatlarida davlat boshqaruvining eng muhim masalalarini qamrab oladi. J. Kokossaning fikricha, shaffoflik kabi umumiy tizimli prinsipga to'liq javob beradigan qonunchilikni ishlab chiqish murakkab jarayondir. Zero, ushbu prinsipning qamrov doirasi ma'muriy faoliyatning demokratik jihatdan naqadar ochiqligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.


Ushbu prinsipni amalga oshirish jarayonida uni boshqa manfaatlar va huquqiy pozitsiyalar bilan mutlaqo muvozanatlashtirmaslik mumkin emas, zero bunday muvozanat kafolatlar tizimi orqali ta'minlanishi lozim. Bunda gap davlat tuzilmalari hamda xususiy shaxslar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy kafolatlar haqida bormoqda. Ana shu kafolatlarning o'zaro muvofiqlashuvi orqali yetuk va barqaror huquqiy tizimni shakllantirish jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi.

Ma'muriy tartib-taomillarning muhim prinsiplaridan yana biri mutanosiblik prinsipi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, dastlab ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan ushbu prinsip keyinchalik Konstitutsiyaning yangi tahririda ham o'z ifodasini topdi. Xususan, Konstitutsiyaning 20-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq davlat organlari tomonidan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi hamda qonunlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur va yetarli bo'lishi lozim.

Mazkur tamoyil "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida ham mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, ma'muriy organ tomonidan xususiy shaxslarga nisbatan qabul qilinadigan har qanday ma'muriy hujjat yoki amalga oshiriladigan xatti-harakat doirasidagi ta'sir choralari umumiy va sohaviy qonunlarda nazarda tutilgan qonuniy maqsadga erishishga mos va yetarli bo'lishi, shu bilan birga manfaatdor shaxslar uchun ortiqcha qiyinchilik yoki nohaq cheklovlar keltirib chiqarmasligi lozim.

<sup>3</sup> Кокоцца, Джованни. 2019. «Тенденции развития принципа прозрачности и права доступа к административным актам». Вестник Санкт-Петербургского университета. Право 4: 699-711. <https://doi.org/10.21638/spbu14.2019.406>.

<sup>4</sup> J.Nematov. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy protseduralar institutini takomillashtirish (qiyosiy-huquqiy tahlil). monografiya. - T.: 2018. 174-bet.



Y.Pudelka o'z tadqiqotida mutanosiblik prinsipini tatbiq etishda quyidagi to'rt jihatni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi. Avvalo, ma'muriy organning ma'lum bir xatti-harakati, ma'muriy akti legitim maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, ushbu legitim maqsad yaroqli bo'lishi kerak. Ya'ni ma'muriy organ amalga oshirayotgan ta'sir chorasi orqali legitim maqsadga erishib bo'ladimi yoki yo'qmi degan savolga javob berishi zarur. Uchinchidan, ma'muriy organ amalga oshirayotgan ta'sir chorasi zaruriy bo'lishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, amalga oshirilayotgan ta'sir chorasining A, B, V kabi variantlari bo'lgani holda ushbu ta'sir choralarning qay biri legitim maqsadga erishishda eng samarali va ishonchli hisoblanishi hamda manfaatdor shaxsga eng kam zarar yetkazishiga e'tibor berilishi kerak. To'rtinchidan, oldini olish kutilayotgan xavf, zarar yoki erishilishi kutilayotgan ommaviy manfaat hamda ta'sir chorasini qo'llash orqali manfaatdor shaxsga yetkaziladigan zarar, erishilishi kutilayotgan xususiy manfaat taqqoslanishi lozim bo'ladi va shunga qarab harakatlanish talab etiladi. Mana shu to'rt jihatni e'tiborga olgan holda qabul qilingan ma'muriy akt yoki xatti-harakat qonuniy hisoblanadi<sup>5</sup>.

“Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida”gi qonunda mustahkamlangan muhim prinsiplardan yana biri ishonchlilik prinsipi hisoblanadi. Ushbu prinsipning mazmuniga ko'ra, ma'muriy ish yuritish jarayonida manfaatdor shaxslar tomonidan taqdim etilgan haqiqiy holatlarga oid hujjatlar hamda ma'lumotlar, ularning asossizligi yoki noto'g'riligi tegishli tartibda isbotlanmaguniga qadar, ishonchli deb e'tirof etiladi.

J. Nematov ushbu prinsipning uch jihatni qamrab olishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, birinchidan, manfaatdor shaxs tomonidan ma'muriy organga ish yuzasidan taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma'lumotlar ma'muriy organ tomonidan qabul qilinishi kerak. Ikkinchidan, agar dastlabki tekshirish natijasida ularning haqqoniyligiga qandaydir shubha paydo bo'lsa,

ma'muriy organ o'z resurs va imkoniyatlari asosida o'z hisobidan ushbu holatlarga aniqlik kiritishi lozim. Uchinchidan, ushbu prinsip ish yuzasidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish jarayonida manfaatdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilanmagan qo'shimcha talablar qo'yish taqiqlanishida namoyon bo'ladi<sup>6</sup>.

Shu bilan birga, agar ma'muriy organ o'z vakolati doirasida tekshiruv o'tkazganidan so'ng ishni to'g'ri hal etish uchun faqat manfaatdor shaxs taqdim eta oladigan hujjat yoki ma'lumotlar zarurligini aniqlasa va ular qonunda nazarda tutilgan asoslarda talab qilinsa, bu holat ishonchlilik prinsipining buzilishi deb baholanmaydi.

Ma'muriy amaliyotning o'zgartirilishiga faqat jamoat manfaatlari bilan oqlangan holatlardagina yo'l qo'yiladi. Bunday o'zgarishlar umumiy xarakterga ega bo'lishi hamda huquqiy barqarorlik tamoyiliga muvofiq joriy etilishi lozim.

Ma'muriy tartib-taomillarning muhim prinsiplaridan yana biri mutanosiblik prinsipi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, dastlab ma'muriy tartib-taomillar to'g'risidagi qonunchilikka kiritilgan ushbu prinsip keyinchalik Konstitutsiyaning yangi tahririda ham o'z ifodasini topdi. Xususan, Konstitutsiyaning 20-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq davlat organlari tomonidan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi hamda qonunlarda belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur va yetarli bo'lishi lozim.

<sup>5</sup> И.Пуделька. Понятие усмотрения и разграничение с судебным усмотрение. Ежегодник публичного права 2017. Усмотрение и оценочные понятия в административном праве. – М. Инфотропик Медиа, 2017. – С. 9-14.

<sup>6</sup> Ж.Нematov. Ўзбекистон Республикасида маъмурий процедуралар институтини такомиллаштириш (қиёсий-ҳуқуқий таҳлил). Монография. – Т.: 2018. 174-бет.



**“Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi qonunning 59-moddasi yettinchi qismiga muvofiq manfaatdor shaxsning ishonchi quyidagi hollarda himoya qilinmaydi, agar:**

- manfaatdor shaxs ma’muriy hujjat bilan bog’liq bo’lgan qo’shimcha majburiyatlarini bajarmagan bo’lsa;
- manfaatdor shaxs o’ziga ma’muriy hujjat asosida taqdim etilgan puldan, buyumdan yoki huquqdan maqsadli foydalanmagan bo’lsa;
- manfaatdor shaxs ma’muriy hujjatning g’ayrihuquqiyligini bilgan yoki o’z aybiga ko’ra bu haqda bilmagan bo’lsa;
- ma’muriy hujjat aldash, tahdidlar yoki ma’muriy organga boshqacha tarzda g’ayrihuquqiy ta’sir ko’rsatish oqibatida qabul qilingan bo’lsa;
- qonun manfaatdor shaxslar ishonchining himoyasini hisobga olmagan holda ma’muriy hujjatni bekor qilishni talab etsa.

Sudya ma’muriy ishonchni himoya qilish prinsipi bilan bog’liq nizolarni ko’rib chiqishda avvalo ishonchni himoya qilish qo’llanmaydigan holatlarning mavjud yoki mavjud emasligiga alohida e’tibor qaratishi lozim. Zero, mazkur holatlar tegishli darajada inobatga olinmagan taqdirda, birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan sud hujjati yuqori instansiya sudlari tomonidan bekor qilinishi uchun asos yuzaga kelishi mumkin.

**Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risidagi kodeksning 220-moddasi birinchi qismiga muvofiq hal qiluv qarorini o’zgartirish yoki bekor qilish uchun quyidagi asoslar mavjud bo’lishi mumkin:**

- 1) ish uchun ahamiyatga ega bo’lgan holatlarning to’liq aniqlanmaganligi;
- 2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo’lgan holatlarning isbotlanmaganligi;
- 3) hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq emasligi;
- 4) moddiy va (yoki) protsessual huquq normalarining buzilganligi yoxud noto’g’ri qo’llanilganligi.

**Mazkur moddaning ikkinchi qismiga ko’ra, moddiy huquq normalarining buzilishi yoki noto’g’ri qo’llanilishi quyidagi holatlarda ifodalanadi:**

- 1) qo’llanilishi lozim bo’lgan qonunning yoki boshqa qonunchilik hujjatining qo’llanilmaganligi;
- 2) qo’llanilishi mumkin bo’lmagan qonunning yoki boshqa qonunchilik hujjatining qo’llanilganligi;
- 3) qonunning yoki boshqa qonunchilik hujjatining noto’g’ri talqin qilinganligi.

Ushbu normalar tahlilidan kelib chiqib xulosalarni qilish mumkinki, ma’muriy sud ishlarini yuritish jarayonida sudya tomonidan ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarini qo’llashda xatoga yo’l qo’yilgan taqdirda qabul qilingan hal qiluv qarori “Ma’muriy sud ishlarini yuritish to’g’risida”gi kodeksning 220-moddasiga asosan bekor qilinishi mumkin. Shu bois ma’muriy tartib-taomillar prinsiplarini har tomonlama tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini to’g’ri anglash hamda amaliyotda aniq va izchil qo’llash alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Zafarjon RAXMONOV,**

Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti  
Pedagoglar markazi mudiri,  
yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD)



# Yuridik yordam ko'rsatishda

## raqamli texnologiyalarning huquqiy maqomi va institutsional asoslarini takomillashtirish

Insoniyat tamaddunining hozirgi bosqichida raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan, odil sudlov va huquqiy yordam tizimiga ham fundamental o'zgarishlar olib kirmoqda.

O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning markazida inson qadri, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng zamonaviy mexanizmlarini yaratish vazifasi turadi. Xususan, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 848-qonunning qabul qilinishi ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun odil sudlovga erishish imkoniyatini kengaytirish yo'lidagi tarixiy qadam bo'ldi<sup>1</sup>.

Biroq global raqamlashtirish (Digitalization) sharoitida huquqiy normalarning samaradorligi nafaqat ularning mazmuni, balki ularni amalga oshirish uchun yaratilgan texnologik infratuzilmaga ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy yurisprudensiyada "LegalTech" tushunchasi shunchaki yordamchi vosita emas, balki huquqni qo'llash amaliyotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan O'zbekistonda joriy etilgan "Yuridik yordam" axborot tizimi sohani

korruptsiyadan xoli qilish, inson omilini kamaytirish va budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini monitoring qilishda muhim bo'g'in hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot tizimining huquqiy maqomi, ishlash prinsiplari va subyektlarning raqamli majburiyatlari yetarlicha reglamentatsiya qilingan. Bu esa tizimning to'liq ishlashiga to'sqinlik qiluvchi "huquqiy va texnik vakuum"ni yuzaga keltirmoqda. Tizimning huquqiy maqomi aniq emasli-

Ma'lumotlar integratsiyasi va "Yagona darcha" prinsipi asosida shakllantirish haqida so'z borar ekan, "E-notarius" tizimi bugungi kunda 20 dan ortiq davlat idorasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan (IIV, Davlat kadastrlari palatasi, FHDY va b.). Bu notariusga real vaqt rejimida ma'lumotlarni tekshirish imkonini beradi.

gi sababli unda to'planayotgan ma'lumotlarning yuridik kuchi, xavfsizligi va davlat tomonidan kafolatlanishi masalalari bahsli bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda yuridik yordam axborot tizimining huquqiy maqomini belgilashning nazariy va amaliy jihatiga qisqacha to'xtalsak. Amaldagi holat tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda qonunchilikda "axborot tizimi" tushunchasi ishlatilsa-da, uning egasi, maqomi va yuridik kuchi borasida mavhumlik mavjud va kafolatlari noaniq. Tizimning "Davlat axborot tizimi" sifatida belgilanmasligi uning budjetini shakllantirish va xavfsizligini ta'minlashda yuridik to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Binobarin "Yuridik yordam" axborot tizimida advokatlik siri va shaxsiy ma'lumotlar saqlanishini hisobga olsak, tizimning huquqiy maqomini belgilash Asosiy qonunimizning 31-moddasidagi konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlashning texnik-huquqiy mexanizmidir<sup>2</sup>.

Taklif qilinayotgan yangilik – qonunga alohida prim-modda kiritish orqali tizimga davlat

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi 848-qonuni. (16.06.2023y.) <https://lex.uz/docs/6491033>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (30.04.2023y.) <https://lex.uz/docs/6445145>.



maqomini berishdir. Bu nafaqat texnik jihatdan muhim, balki tizimdagi ma'lumotlarni rasmiy dalil sifatida tan olish imkonini ham yaratadi (masalan, advokat faoliyatini tasdiqlashda). Shu tariqa "Yuridik yordam" axborot tizimi davlat axborot tizimi hisoblanadi" degan norma strategik jihatdan quyidagi natijalarni ta'minlaydi.

Avvalo, davlat kafolati, tizimning uzluksiz ishlashi uchun davlat budjetidan mablag' ajratilishi qonuniy majburiyatga aylanadi. Ikkinchidan esa yuqoridagi normaning kiritilishi orqali ma'lumotlar xavfsizligi saqlanadi, ya'ni, davlat tizimi sifatida u kiberxavfsizlikning eng yuqori standartlariga (masalan, ISO/IEC 27001) muvofiq himoyalana<sup>3</sup>.

Shuningdek axborot tizimining maqsad va vazifalarini normativ belgilash tizimning funksional transformatsiyasiga zamin yaratadi. Ko'p hollarda axborot tizimlari faqat "raqamli arxiv" vazifasini bajaradi. Biroq zamonaviy yurisprudensiya nuqtayi nazaridan tizim "LegalTech" instrumentiga aylanishi zarur. Buni nafaqat jahonning ilg'or va tan olingan tajribalari, balki davlatimizning tarixiy rivojlanish yo'li ham yaqqol tasdiqlaydi.

Mazkur tizimni qonun bilan mustahkamlash taklifini ilgari surar ekanmiz, ushbu taklifni joriy etish mobaynida oldimizga huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy vazifalarni ham belgilash zarurati tug'iladi. Albatta, bunda huquqiy vazifa jihatdan yuridik yordam olish huquqiga ega shaxslarni

avtomatik identifikatsiya qilish, tashkiliy jihatdan esa advokatlarning o'rtasida ishlarni inson omilisiz, random (tasodifiy) tanlash orqali taqsimlash hamda ijtimoiy vazifa sifatida esa aholining huquqiy savodxonligini oshirish va bepul maslahat olish imkonini kengaytirish nazarda tutilishi kerak. BMTning Nazorat dasturi (UNODC) tavsiyalariga ko'ra,

yuridik yordam sifatini monitoring qilish uchun raqamli hisobot tizimi majburiy bo'lishi shart<sup>4</sup>.

Hozir tizim faqat reyestr sifatida ishlamoqda. Bizning yondashuvimizga ko'ra, tizim vazifalarini uchta asosiy yo'nalish bo'yicha klassifikatsiya qilish mumkin. Ularni quyidagi jadval ko'rinishida taqdim etamiz:

1-jadval

Vazifa turi	Mazmuni va kutilayotgan natija
Huquqiy	Yuridik yordam olish huquqini avtomatik tekshirish
Tashkiliy	Advokatlarni tanlashda inson omilini istisno qilish
Ijtimoiy	Fuqarolar uchun qayta aloqa (reyting) tizimini yaratish

O'zbekistonda adliya organlari faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha eng muvaffaqiyatli modellardan biri sifatida notariat sohasini ko'rsatish mumkin. "Notariat to'g'risida"gi qonun va sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarda axborot tizimining o'zni va maqomi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, bu tajribani yuridik yordam tizimiga transformatsiya qilish yuqori samara beradi.

"Notariat to'g'risida"gi qonunning 22<sup>1</sup>-moddasiga muvofiq notarial harakatlarni amalga oshirishda "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanish majburiy etib belgilangan. Bu yerda tizim shunchaki yordamchi vosita emas, balki notarial harakatning qonuniyligini tasdiqlovchi asosiy shartdir<sup>5</sup>.

Qiyoslaganda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunda axborot tizimidan foydalanish tartibi bu

darajada qat'iy mustahkamlanmagan. Agar notariatda tizimga ma'lumot kiritilmasa, hujjat yuridik kuchga ega bo'lmaydi. Yuridik yordam sohasida ham xuddi shunday konsepsiyani qo'llash, ya'ni ma'lumotni tizimga kiritmaslikni yuridik yordam ko'rsatilmagan deb hisoblash sohada intizom va shaffoflikni oshiradi.

Ma'lumotlar integratsiyasi va "Yagona darcha" prinsipi asosida shakllantirish haqida so'z borar ekan, "E-notarius" tizimi bugungi kunda 20 dan ortiq davlat idorasining ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilingan (IIV, Davlat kadastrlari palatasi, FHDY va b.). Bu notariusga real vaqt rejimida ma'lumotlarni tekshirish imkonini beradi.

"Yuridik yordam" axborot tizimida esa ushbu integratsiya jarayonlari hali to'liq shakllanmagan. Yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni (kam ta'minlanganlar, ruhiy kasalligi bor shaxslar va h.)

<sup>3</sup> ISO/IEC 27001. Information Security Management Systems requirements. <https://www.iso.org/standard/27001>.

<sup>4</sup> UNODC. Handbook on Ensuring Quality of Legal Aid Services in Criminal Justice Systems. [https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/LegalAid/Legal\\_Aid\\_Quality\\_Handbook.pdf](https://www.unodc.org/documents/justice-and-prison-reform/LegalAid/Legal_Aid_Quality_Handbook.pdf).

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi 343-qonuni (26.12.1996 y).



aniqlashda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” bilan avtomatik aloqa oʻrnatilishi lozim. Notariat tajribasi shuni koʻrsatadiki, bunday integratsiya korrupsiyaviy omillarni 80-90 foiz kamaytiradi.

Notariat sohasidagi raqamli islohotlar shuni isbotladiki, axborot tizimi davlat kafolati ostida boʻlgandagina va uning maqomi qonun bilan mustahkamlansagina kutilgan natijani beradi. Yuridik yordam tizimida ham notarial tizimdagi kabi “raqamli dalil” tushunchasini joriy etish, advokatlarning tizim orqali hisobot berish mexanizmini soddalashtirish va javobgarlikni kuchaytirish lozim.

Bu nafaqat davlat xarajatlarini optimallashtiradi, balki fuqarolarning yuridik yordamga erishish jarayonini notarial xizmat olish kabi tezkor va shaffof tizimga aylantiradi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib rivojlangan davlatlar amaliyotiga nazar solsak. Bu borada Estoniya dunyodagi raqamlashgan adliya tizimiga ega davlatlar qatorida yuqori natijadorlikka ega. U yerda davlat hisobidan yuridik yordam berish tizimi “X-Road” platformasiga integratsiya qilingan. Bu tizim fuqaroning daromadi va ijtimoiy holatini soliq hamda ijtimoiy taʼminot bazalaridan mustaqil ravishda tekshiradi<sup>6</sup>. Bu esa tizimning yetarli darajada shaffofligini va mustaqil, inson omilisiz boshqarilishini bildiradi.

Yana Buyuk Britaniya tajribasini misol keltirsak maqsadga muvofiq. Britaniyaning “Le-

gal Aid Agency” tizimi yuridik yordam uchun sarflanadigan har bir funtning shaffofligini taʼminlaydi<sup>7</sup>. Tizimda advokatlarning ish sifati reyting asosida baholanadi. Bu esa yetarlicha maʼlumotlar doirasi va majburiyatlar uchun javobgarlik hamda etika qoidalariga amal qilish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

Shu oʻrinda maʼlumotlar tarkibi va subyektlarning majburiyatlarini masalasiga ham toʻxtal-sak. Maʼlumot kiritish ixtiyoriy boʻlgan joyda hech qachon toʻliq manzara shakllanmaydi. Agar advokat yoki yuridik yordam koʻrsatuvchi organ maʼlumotni tizimga kiritmasa, davlat haq toʻlamasligi kerak. Bu iqtisodiy motivatsiya va huquqiy majburiyatning uygʻunligidir.

Notariat sohasidagi raqamli islohotlar shuni isbotladiki, axborot tizimi davlat kafolati ostida boʻlgandagina va uning maqomi qonun bilan mustahkamlansagina kutilgan natijani beradi. Yuridik yordam tizimida ham notarial tizimdagi kabi “raqamli dalil” tushunchasini joriy etish, advokatlarning tizim orqali hisobot berish mexanizmini soddalashtirish va javobgarlikni kuchaytirish lozim.

#### Tizimga kiritilishi shart boʻlgan asosiy bloklar sifatida esa quyidagilarni keltirish mumkin:

- subyektning identifikatsiya raqami (PINFL);
- koʻrsatilgan xizmatning turi va davomiyligi;
- xizmatning sifati boʻyicha real vaqt rejimidagi hisobotlar.

Yuridik yordam koʻrsatuvchi subyektlar axborot tizimiga maʼlumot kiritishi majburiy ekanligi mustahkamlansa, axborot tizimi toʻliq ishlashi hamda yagona amaliyot shakllanishiga zamin yaratiladi. Jahon banki hisobotlariga koʻra, yuridik xizmatlarning raqamli integratsiyasi korrupsiya darajasini ancha pasaytiradi va odil sudlovga erishish imkoniyatini kengaytiradi<sup>8</sup>.

Tizimning “egasiz” boʻlishi yoki tarqoq boshqarilishi resurslarning isrof boʻlishiga olib keladi. Adliya vazirligini yagona vakolatli organ sifatida belgilash tizimning siyosatini ishlab chiqishda muhimdir. Albatta, bu borada hukumat qonunchilik doirasida texnik reglamentlarni belgilab berishi lozim.

Chunki Oʻzbekiston Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq har kim oʻz huquq va erkinliklarini qonun bilan taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Raqamli texnologiyalar davrida ushbu usullar qatoriga elektron yuridik yordam platformalaridan foydalanish ham kiradi. Konstitutsiyaning XVI bobida advoka-

<sup>6</sup> E-Estonia: Interoperability Services. Description of X-Road and E-File systems. <https://e-estonia.com/solutions/interoperability-services/x-road/>

<sup>7</sup> UK Government. Legal Aid Agency (LAA) data collection standards. <https://www.gov.uk/government/organisations/legal-aid-agency>.

<sup>8</sup> World Bank. Justice for All: Digital Transformation. <https://www.worldbank.org/en/topic/governance/brief/justice-for-all>.



Tizimning “egasiz” bo‘lishi yoki tarqoq boshqarilishi resurslarning isrof bo‘lishiga olib keladi. Adliya vazirligini yagona vakolatli organ sifatida belgilash tizimning siyosatini ishlab chiqishda muhimdir.

turaning faoliyati inson huquq va erkinliklarini himoya qilishga asoslanishi belgilangan bo‘lib, bu sohada davlat boshqaruvini raqamlashtirish advokatlik faoliyatining mustaqilligi va samaradorligini oshiruvchi konstitutsiyaviy instrumentdir<sup>9</sup>. Richard Susskind ta’kidlaganidek, “kelajak advokatlari” va huquq tizimi texnologiya bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina adolatni ta’minlay oladi<sup>10</sup>.

Xulosa qilib aytganda, yuridik yordam tizimini raqamlashtirish shunchaki qog‘oz hujjatlarni elektron formatga o‘tkazish degani emas, balki odil sudlovning shaffofligi va sifatini ta’minlaydigan yangi boshqaruv modelini yaratishdir.

### Tadqiqot davomida o‘rganilgan ilmiy-nazariy manbalar va xorijiy tajriba tahlili asosida 848-qonunga kiritilishi lozim bo‘lgan o‘zgartirishlarning ahamiyati quyidagicha baholanadi:

- **birinchidan**, axborot tizimiga “davlat axborot tizimi” maqomining berilishi davlatning ushbu tizim oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi. Bu nafaqat texnik barqarorlikni, balki tizimga kiritilgan har bir ma’lumotning davlat tomonidan himoya qilinishini va yuridik ahamiyatga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Bu advokatlarning tizimga ishonchini oshiradi va ma’lumotlarning yaxlitligini ta’minlaydi;

- **ikkinchidan**, tizimning maqsad va vazifalarini qonun darajasida aniq belgilash, uni shunchaki “statistik reyestr” bosqichidan “interaktiv instrument” bosqichiga olib chiqadi. Bunda tizim nafaqat ma’lumot yig‘adi, balki yuridik yordam ko‘rsatish sifatini baholaydigan, budget mablag‘larining har bir tiyini nazorat qiladigan va fuqarolar uchun eng yaqin huquqiy ko‘makchiga aylanadigan platforma sifatida namoyon bo‘ladi;

- **uchinchidan**, yuridik yordam subyektlari uchun ma’lumot kiritishning majburiy etib belgilanishi sohada yagona va uzluksiz huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantiradi. Bu korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bilan birga davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish jarayonini to‘liq monitoring qilish imkonini beradi;

- **to‘rtinchidan**, institutsional jihatdan Adliya vazirligi va Vazirlar Mahkamasining vakolatlarini aniq taqsimlash tizimni boshqarishda vertikal zanjirni yaratadi. Bu tizimning texnik jihatdan eskirib qolmasligini va doimiy yangilanib borishini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, taklif etilayotgan islohotlar O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi, xususan, “Huquq ustuvorligi indeksi” (Rule of Law Index) va “Elektron hukumat” reytinglaridagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Raqamli yuridik yordam tizimining mustahkam huquqiy bazasi yaratilishi fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bilan birga O‘zbekistonning demokratik va texnologik qiyofasini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

O‘zbekistonning “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi qonuniga taklif etilayotgan o‘zgartirishlar shunchaki texnik yangilanish emas, balki yuridik yordam sohasidagi davlat siyosatining raqamli kafolatidir.

**Nesip KALIMBETOV,**

Taxiatosh tumani adliya bo‘limi boshlig‘i,  
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi  
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta  
tayyorlash va malakasini oshirish  
instituti mustaqil izlanuvchisi

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. (30.04.2023y.) <https://lex.uz/docs/6445145>.

<sup>10</sup> Richard Susskind. “Tomorrow’s Lawyers: An Introduction to Your Future” (2023 Edition). Digital transformation in Law. <https://www.amazon.com/Tomorrows-Lawyers-Introduction-Your-Future/dp/0192862743>.



# Adliya organlari xodimlarining psixologik kompetensiyasini rivojlantirish

Hozirgi globallashuv va islohotlar sharoitida davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, adliya organlari va muassasalari xodimlarining faoliyati huquqiy munosabatlarni tartibga solish, aholiga huquqiy xizmatlar ko'rsatish va qonun ustuvorligini ta'minlash bilan bevosita bog'liq. Shu sababli ularning kasbiy faoliyatida psixologik kompetensiya muhim omillardan biri hisoblanadi.

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining professional faoliyatida psixologik kompetensiya ko'nikmalarining rivojlanganligi ularning malaka va amaliy ko'nikmalari bilan chambarchas bog'liq. Bu holat xodimning professional muvaffaqiyatiga va salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, "inson – inson" yo'nalishidagi faoliyatda bu ko'nikmalarining ahamiyati ortadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishgan shaxslar odatda psixologik kompetensiya ko'nikmalarining yuqori darajasiga ega bo'ladilar.

Psixologik kompetensiya – shaxsning kasbiy faoliyatida uchraydigan muayyan muammolarni hal etishda yordam beradigan, kasbiy ahamiyatga ega fazilatlar, qobiliyatlar hamda shaxsiy munosabatlarni aks ettiruvchi psixologik bilim va ko'nikmalar majmuyi hisoblanadi. P. Vayning ta'rifiga ko'ra, professional psixologik kompetensiya shaxsning yaxlit tuzilmasida kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar va amaliy tayyorgarlikning birligidir. Shu bilan birga u professionallik darajasining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Kompetentlilik psixologiyasida bu tushuncha turlicha talqin etilgan bo'lib, olimlar uni quyidagi jihatlar orqali izohlashadi.

L. Urvansev va N. Yakovlevaning fikricha, kompetentlilik shaxsga qobiliyatlari va maqomi doirasida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradigan ijtimoiy va individual shakldagi o'rganish salohiyati darajasidir.

S. Smirnov kompetentlilikni muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etish darajasi sifatida talqin etadi.

Psixologik kompetensiya shaxsning yetuklik darajasini, kasbiy professionalligini va "inson – dunyo" o'rtasidagi munosabatlarning samaradorligini belgilovchi muhim psixologik sifatlar majmuasidir<sup>1</sup>.

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining psixologik kompetensiyasi, xodimning his-tuyg'ularini boshqara olishi, muloqot jarayonida samarali munosabat o'rnatish olishi, turli stress holatlarida psixologik barqarorlikni saqlagan holda to'g'ri qaror qabul qila olishi kabi sifatlarni ichiga olib, adliya organlari xodimlarining xizmat samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

<sup>1</sup> Хайитов О.Э. Психологическая компетентность в контексте профессиональной деятельности (теоретический аспект) Хайитов О.Э.



Psixologik kompetensiya shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyat jarayonida samarali muloqot qilish, hissiyotlarini nazorat qilish, boshqalarning psixologik holatini tushunish hamda turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi kompleks xususiyatdir. Psixologik kompetentlik shaxsning integrativ sifati bo'lib, psixik jarayonlarni samarali tushunishni ta'minlovchi kognitiv, emotsional, xulq-atvor va refleksiv komponentlar, aynan shaxsning ichki muammolarini hal qilishga psixologik tayyorgarlik darajasi oxir-oqibatda uning refleksiv salohiyatining rivojlanish darajasiga yoki ichki o'sishning real muammolariga nisbatan o'zining tashqi yo'naltirilgan rolli munosabatlaridan yuqoriga ko'tarilish qobiliyatiga bog'liq<sup>2</sup>.

Odatda psixologik kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- kommunikativ kompetensiya – muloqotni samarali tashkil etish va odamlar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish qobiliyati;
- emotsional barqarorlik – stress va murakkab vaziyatlarda o'zini nazorat qila olish;
- empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan sezgirlik;
- refleksiya – shaxsiy faoliyatni tahlil qilish va o'z ustida ishlash qobiliyati.

Adliya organlari xodimlarining faoliyatida mazkur komponentlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular xizmat jarayonida yuzaga keladigan turli ijtimoiy va huquqiy vaziyatlarni samarali hal etishga yordam beradi.

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining psixologik kompetensiyasini rivojlantirish usullarini ko'rib chiqishda psixologik kompetensiyaning mazmun-mohiyati bilan bir qatorda psixologik kompetentlik tuzilmasining umumiy sxemasini birma bir ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Psixologik kompetentlik tuzilmasining umumiy sxemasi**

Psixologik kompetentlik o'zaro bog'liq to'rtta tarkibiy qismni ichiga oladi: Kognitiv-psixologik bilimlar tizimi. Emotsional hissiyotlarni tushunish va tartibga solish. Xulqiy (faoliyatga oid) bilimlarni amalda qo'llash. Refleksiv o'z-o'zini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining psixologik kompetensiyasini rivojlantirishda psixologik kompetentlik shaxsning integrativ sifati bo'lgani va psixik jarayonlarni samarali tushunishni ta'minlovchi kognitiv, emotsional, xulq-atvor va refleksiv komponentlar, emotsional o'zaro ta'sir, psixologik bilimlarni amalda qo'llash va o'z-o'zini refleksiya qilish qobiliyatidan tarkib topgani uchun psixologik kompetentlikning har bir komponentini alohida o'rganishlari lozim.

Psixologik kompetentlikning kognitiv komponenti shaxsga psixik jarayonlarni, insonlarning xulq-atvorini, xatti-harakatlarini tushunishga va psixologik bilimlarni kasbiy va shaxslararo faoliyatda samarali qo'llashni ta'minlaydigan psixologik bilimlar, tasavvurlar va intellektual ko'nikmalar tizimidir.

### **Kognitiv komponentning mohiyati va asosiy elementlari**

Kognitiv komponent shaxsning bilim va idrok sohasiga, ya'ni ruhiy holat, xulq-atvor qonuniyatlari, shaxslararo munosabatlar va psixologik muammolarni hal etish yo'llariga bog'liq. Uning asosiy vazifasi psixologik hodisalarni tushunish va tahlil qilishdir.

Asosiy elementlari quyidagilarni ichiga oladi:

- psixologik bilimlar va psixik jarayonlar (idrok, xotira, tafakkur, his-tuyg'ular) haqidagi tushunchalar;
- shaxs va uning rivojlanishi, shaxslararo munosabatlar to'g'risidagi bilimlar;
- xulq-atvor sabablarini tushuntira olish va psixologik vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati;
- psixologik nazariyalarni amaliyotda qo'llay olish, diagnostika va yordam usullaridan xabardorlik.

Kognitiv komponent insonning xulq-atvorini tushunish va psixologik vaziyatlarni samarali tahlil qilishini ta'minlaydi.

Kognitiv komponent bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyani bajaradi:

- kognitiv – psixologik bilimlarni olish va tizimlashtirish;
- tahliliy – psixologik vaziyatlarni tahlil qilish;
- prognostik – odamlar xulq-atvorini prognoz qilish;
- amaliy – bilimlarni kasbiy faoliyatda qo'llash.

<sup>2</sup> Санкт-Петербург 1999 Паригин Б.Д. Социальная психология. Методология, тарих ва назария муаммолари. - СПб.: ИГУП, 1999. Стр. 592.





Kognitiv komponent psixologik kompetentlikning asosi hisoblanadi, chunki:

inson psixologiyasi tushunchasini shakllantiradi;

muloqot vaziyatlarini to'g'ri baholashga yordam beradi;

kasbiy faoliyatda asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Psixologik kompetentlikning keyingi komponenti emotsional komponent bo'lib, bu ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik kompetentlikning emotsional komponenti shaxsning integrativ sifati, hissiy qobiliyatlari majmuyi bo'lib, psixik jarayonlarni samarali tushunishni ta'minlovchi kognitiv, emotsional (shaxsning his-tuyg'ularini tushunish, tartibga solish va yetarli ifodalash), xulq-atvor va refleksiv komponentlar, o'z-o'zini refleksiya qilish, emotsional o'zaro ta'sir, his-tuyg'ularini anglash, tushunish va tartibga solish, shuningdek, empatiya (boshqa odamlarning hissiy holatlarini anglash va ular bilan samarali muloqot qilish) va boshqa odamlar bilan samarali hissiy o'zaro ta'sir qilish, psixologik bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini ichiga oladi.

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirishda ularning kasbiy faoliyati stressogen omillar, frustratsiyalar va psixologik talablarning oshishi sharoitida kechishi sababli stressga chidamlilik va stressni boshqarish (koping) strategiyalarini qo'llay olish ko'nikmalari alohida rivojlangan bo'lishi zarur. Xodimning stressga chidamliligi tashqi ogohlantirish va bosimlarga moslasha olishi, ularni tahlil qilishi va refleksiya qilish qobiliyatidir. Stressga chidamli shaxs har qanday vaziyatda muvozanatni saqlaydi, xotirjam, psixologik barqaror bo'ladi.

Koping – stressni yengishga yordam beradigan ongli psixologik usullar majmuyi. Koping strategiyalar insonning shaxsiy xususiyatlariga, tajribasiga va real vaziyatga bog'liq bo'lib, har kimda turlicha shakllanadi. Shu bois bir xil hodisa hayotning turli davrlarida inson uchun turlicha darajada ta'sir qilishi mumkin<sup>3</sup>.

## Adliya organlari xodimlarining psixologik kompetensiyasini rivojlantirish omillari

Psixologik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi asosiy omillarga bog'liq:

malaka oshirish va treninglar – psixologik tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlari;

psixologik xizmatlar – tashkilotlarda psixolog maslahatlari va diagnostika ishlarini tashkil etish; amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim – xodimlarning real vaziyatlarda psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish;

Shaxsiy rivojlanish – o'z-o'zini boshqarish, stressni nazorat qilish va liderlik qobiliyatlarini shakllantirish.

Mazkur omillar xodimlarga murakkab kasbiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va samarali ishlash imkoniyatini oshiradi.

Adliya organlari xodimlarining psixologik kompetensiyasi yuqori bo'lsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

– aholi bilan muloqot madaniyati va ishonch darajasi oshadi;

– xizmat jarayonida stress holatlari kamayadi;

– qaror qabul qilish jarayoni tez va samarali bo'ladi;

– jamoada sog'lom psixologik muhit shakllanadi;

– xizmat samaradorligi va ish unumdorligi ortadi.

Shu sababli adliya tizimida psixologik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish muhimdir. Xulosa qilib aytganda, xodimlarning psixologik kompetensiyasi ularning professional faoliyati samaradorligini oshirish, muloqot madaniyati, stressga bardoshlilik, psixologik barqarorlik va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning asosiy omilidir. Shu bois adliya tizimida psixologik tayyorgarlikni kuchaytirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va amaliy treninglarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

**Dilbar XOJIMUHAMEDOVA,**

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

<sup>3</sup>«Научное сообщество студентов XXI столетия. Гуманитарные науки»: Электронный сборник статей по материалам LX студенческой международной 06 научно-практической конференции. – Новосибирск: Изд. АНС «СибАК». – 2017. – № 12 (60) / [Электронный ресурс] – Режим доступа. URL: [http://www.sibac.info/archive/guman/12\(60\).pdf](http://www.sibac.info/archive/guman/12(60).pdf).



# Kiberalogiya: kibermakon munosabatlarini o'rganish tizimi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivoji, barcha sohalarning raqamlashishi, sun'iy intellekt va innovatsion texnologiyalarning hayotimizga chuqur kirib borishi kibermuhit, shu jumladan, kibermakon bilan bog'liq munosabatlarni tizimli o'rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekiston Prezidentining Oliy majlis va xalqqa murojaatnomasida AT, sun'iy intellekt, fintex, konsalting, transport-logistika kabi yuqori daromad keltiradigan servis turlarini ko'paytirish zarurligi alohida ta'kidlangan edi<sup>1</sup>. Xususan, 2026-yilda Toshkent shahri, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta "Data markaz", 2 ta super-kompyuter hamda 15 ta oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilangan. Bu esa tibbiyot, transport, qishloq xo'jaligi, geologiya, bank-moliya va jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarda 100 dan ortiq sun'iy intellekt loyihalarini amalga oshirishga xizmat qilishi bayon etilgan.

Shu nuqtayi nazardan aytish joizki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga e'tibor yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mazkur sohadagi keng qamrovli munosabatlarni tizimli o'rganish uchun yagona fanga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu fan orqali islohotlarni tizimli amalga oshirish usuli va shartlarini o'rgatish imkoniyati yaratiladi. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, "qaerda yangi texnologiya va yuqori malakali kasb egalari bo'lsa, o'sha tarmoqda o'sish, rivojlanish bo'lmoqda". Demak, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun barcha munosabatlarni kompleks o'rgatadigan yaxlit fan zarur.

Hozirgi texnologik jarayonlar zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash zaruriyatini tobora

kuchaytirmoqda. Biroq oliy ta'lim muassasalariga berilgan akademik mustaqillik sharoitida davlat va xususiy sektor ta'lim yo'nalishlarining turlicha yondashuvlar asosida rivojlanishi, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan yetuk kadrlar tayyorlashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

**Birinchidan**, ta'lim tizimidagi metodologik bo'shliq, ya'ni kibermuhit munosabatlarini tizimli o'rgatuvchi yagona, rasman tan olingan metodologiya va darslikning mavjud emasligidir. Amaldagi o'quv dasturlari tor doiradagi amaliy kasblarga (kibertergovchi, kiberprokuror, kiberekspert va h.) ixtisoslashmagan. Hatto darsliklar soni ko'paygan bo'lsa-da, ularning mazmuni turlicha bo'lib, kadrlar tayyorlashning kompleks va izchil tizimiga yo'naltirilmagan. Binobarin, ta'lim muassasalaridagi biror bir darslik yoki o'quv majmuasini o'zlashtirish orqali kiberxavfsizlik sohasida tezkor-qidiruv organi xodimi, kibersurishtiruvchi, kibertergovchi, kiberprokuror, kibersudya yoki kiberekspertni mustaqil tayyorlash imkoniyati yetarli emas.

**Ikkinchidan**, qonunchilikdagi nomuvofiqliklar, xususan, 2022-yilning aprelida qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi 764-qonunda<sup>2</sup> ayrim tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashtirish zarurati mavjud. Qonunning 3-moddasida "kiberxavfsizlik" tushunchasi bilan "kiberjinoyatchilik" hamda "kiberxavfsizlik obyektlari" tushunchalari o'zaro bog'lanmagan, ular

<sup>1</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/pdf/5960604>.



o'rtasidagi mantiqiy aloqa yetarli darajada ochib berilmagan. Masalan, kiberhujumlar nafaqat axborot tizimlariga, balki boshqa resurslarga ham qaratilmoqda. Biroq mazkur qonunda kiberxavfsizlikka kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida ta'rif berilib, asosan axborot tizimi obyekt sifatida belgilangan. Bu esa real hayotdagi kiberhujumlarning ko'lamini to'liq qamrab olmayapti.

Bundan tashqari, "kibermakon" tushunchasiga ham noaniq ta'rif berilgan bo'lib, unda faqat axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit haqida so'z yuritiladi. Bunday yondashuvda sun'iy intellekt va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida shakllangan muhit qaysi makonga mansubligi ochiq qolmoqda. Qolaversa, kibermakonga berilgan ta'rif bevosita "muhit" tushunchasiga bog'langan. Vaholanki, etimologik va lug'aviy jihatdan "makon" va "muhit" tushunchalari o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Xulosa qilib aytganda, qonunning ayrim normalari hozirning amaliy ehtiyojlarini to'liq qamramagani sababli bunday huquqiy baza asosida mutaxassis tayyorlash yuqorida qayd etilgan tizimsizlik va tarqoqlikning yanada chuqurlashishiga sharoit yaratmoqda.

**Uchinchidan**, amaliy ko'nikmalar yetishmovchiligi, ya'ni mutaxassislar tayyorlash uchun zarur bo'lgan sun'iy "kiberpoligonlar"ning mavjud emasligi kadrlar imkoniyatini cheklamoqda. Xorijiy davlatlarda bo'lajak kadrlar uchun sun'iy ravishda to'liq kiberpoligonlar yaratib beriladi va mutaxassis real vazifalarni bajarish orqali tajriba orttiradi. Respublikamizda esa tayyorlanayotgan kadrlarning kiberjinoyatchilardan ustun bo'lishini ta'minlaydigan, ularning malakasini har tomonlama oshirishga xizmat qiladigan kiberpoligonlar tarmog'i yetarli darajada shakllanmagan.

**To'rtinchidan**, targ'ibot ishlarining samarasizligi, ya'ni aholi o'rtasida olib borilayotgan tushuntirish ishlarining ba'zan kiberjinoyat sodir etish usullarini bilvosita o'rgatib qo'yishga yoki asossiz vahima uyg'otishga xizmat qilayotganidir. Oqibatda respublikamizda 2020-yilda 863 tani tashkil etgan kiberjinoyatlar soni 2024-yilga kelib

58 800 taga yetgani va 68,13 barobarga oshib ketganiga aynan shu kabi noto'g'ri targ'ibot usullari ham sabab bo'lmoqda<sup>3</sup>. Aholini faqat "kodni (parol) bermaslik" bilan qo'rqitish natijasida bugun ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy akkauntlarni parolsiz egallash, tizimga "ikkinchi foydalanuvchi" sifatida kirib, boshqaruvni to'liq qo'lga olish hamda akkaunt egasi nomidan noqonuniy harakatlar qilish holatlari ko'paymoqda. Shuningdek, terminallardan soxta cheklar chiqarish orqali tadbirkorlarga zarar yetkazish kabi holatlar ham aynan "majlisbozlikka" asoslangan va tarmoqlarda noto'g'ri talqin qilinayotgan targ'ibotning natijasidir.

Kibertarg'ibot niqobi ostida o'tkazilayotgan umumiy majlislar jinoyatchilar uchun o'z malakasini bepul oshirish maydoniga aylanib qolmayotganiga hech kim kafolat bera olmaydi. Ta'kidlash joizki, rivojlangan davlatlarda kibertarg'ibot asosan animatsion filmlar va kino janri orqali yoki jinoyatchining fosh etilishi misolida, davlatning kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi qudrati va resurslarini ko'rsatish orqali aholiga yetkaziladi.

**Beshinchidan**, bugungi kunda kundalik hayotda "kiber" prefiksi bilan bog'liq ko'plab so'zlarni ishlatish odatiy tusga kirdi, biroq mazkur atamalarning etimologik va lug'aviy jihatdan to'g'ri qo'llanilishi masalasi bilan birorta mutasaddi tashkilot yetarlicha shug'ullanmayapti. "Kiberjinoyat" tushunchasi doim tilga olinsa-da, uning huquqiy ta'rifi milliy qonunchiligimizda hamon o'z aksini topmagan. Bu esa o'z-o'zidan savol tug'diradi: tushunchaning o'zi qonuniy mustahkamlanmagan ekan, uning jinoiy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy va boshqa sohalarga oid jihatlarini qanday o'rganish mumkin? Amalda qonunchilikda bo'lmagan tushunchaning huquqiy jihatlarini o'qitilmoqda.

**Oltinchidan**, soha mutaxassislarining shakllanishi bevosita "ustoz-shogird" an'alariga va o'qitish metodikasiga bog'liq. Biroq "ZiyoNet" tarmog'iga joylashtirilgan ilmiy ishlar mualliflarining soni 20 nafarga ham yetmasligi sohada malakali ustoz-kadrlar yetishmasligidan dalolat beradi. Kiberxavfsizlik bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmaga ega milliy mutaxassislar tanqisligi sababli ularning o'rnini ushbu sohada fundamental

<sup>3</sup> <https://gov.uz/en/iiv/news/view/52319>.



huquqiy bilimga ega bo'lmagan, lekin "kompyuter"ni va sun'iy intellekt bilan ishlashni biladigan mutaxassislar egallamoqda. Shuningdek, milliy qonunchilik va hududiy xususiyatlarni yetarlicha anglamaydigan xorijiy mutaxassislar tomonidan milliy kadrlarni tayyorlash amaliyoti kuzatilmoqda, bu esa kadrlar tayyorlash sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarning o'z vaqtida hal etilmasligi kelajakda tizimli va strategik xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur masalalarni bartaraf etish maqsadida quyidagi yechimlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Birinchidan**, tizimsizlikka chek qo'yish uchun "Kiberalogiya" fundamental fanini joriy etish lozim. Ushbu fan kiberhuquq, kiberxavfsizlik, kiberpsixologiya, kibertexnika va sotsiologiya kabi yo'nalishlarni yaxlit tizimga birlashtiradi. Uning asosida tayyorlangan kadrlar nafaqat AT-mutaxassis, balki kibersudya, kibertergovchi, kiber-surishtiruvchi, kiberprokuror va raqamlashtirish bo'yicha ekspert sifatida shakllanadi.

Ta'lim tizimidagi metodologik bo'shliq, ya'ni kibermuhit munosabatlarini tizimli o'rgatuvchi yagona, rasman tan olingan metodologiya va darslikning mavjud emasligidir. Amaldagi o'quv dasturlari tor doiradagi amaliy kasblarga (kibertergovchi, kiberprokuror, kiberekspert va h.) ixtisoslashmagan. Hatto darsliklar soni ko'paygan bo'lsa-da, ularning mazmuni turlicha bo'lib, kadrlar tayyorlashning kompleks va izchil tizimiga yo'naltirilmagan. Binobarin, ta'lim muassasalaridagi biror bir darslik yoki o'quv majmuasini o'zlashtirish orqali kiberxavfsizlik sohasida tezkor-qidiruv organi xodimi, kibersurishtiruvchi, kibertergovchi, kiberprokuror, kibersudya yoki kiberekspertni mustaqil tayyorlash imkoniyati yetarli emas.



Natijada bugun tarqoq holda o'qitilayotgan kiberxavfsizlik asoslari, kiberxavfsizlik huquqi, kiberjinoyat huquqi, axborot xavfsizligi, kiberhuquq, ma'lumotlar ilmi (Data Science) va raqamli huquq kabi fanlar yagona metodologiya asosida birlashtiriladi. Shuningdek, ta'lim yo'nalishlari klassifikatori ushbu tizimga mos ravishda to'liq qayta ko'rib chiqiladi.

Ma'lumot uchun: "Kiberalogiya" atamasida "kiber" – boshqarish, "a" – axborot, axborotlash-tirish va aloqa so'zlarining qisqartmasi, "logiya" (logos) – fan yoki ta'limot ma'nosini anglatadi. Ushbu fan kibermunosabatlarni o'rganuvchi barcha sohalar uchun "kalit" vazifasini o'taydi.

**Ikkinchidan**, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi 764-qonunga "kiberalogiya" tushunchasini kiritish va kiberta'lim tizimi aynan shu fanga asoslanishini belgilash zarur. Shuningdek, mazkur qonun va Jinoyat kodeksida "kiberjinoyat" tushunchasiga aniq huquqiy ta'rif berilishi lozim. Qonunchilikka "kibermuhit" tushunchasini kiritish, "kibermakon" va "kiberxavfsizlik obyektini" ta'riflarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Bunda kiberjinoyatlarning aniq turlarini tasniflashda BMTning 2024-yildagi Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi normalaridan andoza olish va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish maqsadga muvofiq.

**Uchinchidan**, kiberjinoyatchilikni fosh etish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun qat'iy islohotlar o'tkazish lozim. Xususan, bugun kiberjinoyatlarda xotin-qizlarning ishtiroki ortib borayotganini inobatga olib, Jinoyat kodeksidagi sanksiyalarni qayta ko'rib chiqish zarur. Gender tenglik tamoyillaridan kelib chiqib, kiberjinoyatlar bo'yicha javobgarlikni belgilashda ayollarga nisbatan qo'llaniladigan ayrim yengillashtiruvchi holatlarni cheklash yoki jazo choralarini og'irlashtirish masalasini o'rganish lozim. Sun'iy kiberpoligonlar va "tuzoqlar" yaratish orqali jinoyatchilarning soni, manzili va dalillarini masofadan turib jamlash mexanizmini yo'lga qo'yish kerak. "Oq haker"lar faoliyatini legalashtirish kerak. Davlat organlari veb-saytlaridagi zaifliklarni aniqlab, ularni ochiq qilgan shaxslarga nisbatan vaqtinchalik moratoriy e'lon qilish va ularni rag'batlantirish tizimini joriy etish lozim. Bu orqali haqiqiy amaliy kiberpoligon yaratish va



kiberjinoyatchining psixologiyasini o'rganish imkoni tug'iladi.

**To'rtinchidan,** rasmiyatchilik va "majlisbozlik" uslubidan voz kechib, kiberxavfsizlik madaniyatini zamonaviy mediamahsulotlar (multifilmlar, kinolar va infografikalar) orqali aholi ongiga singdirish lozim. Ushbu materiallarda davlat organlarining kibersalohiyati va texnik qudrati aks ettirilishi shart. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usuli jinoyatchiga nisbatan tizimli psixologik hujum uyushtirishdir. Har bir potensial huquqbuzar O'zbekistonda kiberjinoyat sodir etish og'irlashtiruvchi holat sifatida jinoiy javobgarlikka sabab bo'lishini, jazo muqarrarligini va yengillashtiruvchi choralar qo'llanilmasligini anglab yetishi kerak. Shuningdek, qobiliyatli yoshlarni "oq hakerlar" yo'lga yo'naltirish bo'yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish lozim. Ko'pchilikni himoya qilgandan ko'ra, kam sonli jinoyatchi guruhlariga nisbatan agressiv va tezkor kiberhujum taktikalarini qo'llash afzalroqdir. OAVda kiberjinoyatchilarning qo'lga olingani va qat'iy jazolanganini keng namoyish etish orqali jinoyatchilikning keskin kamayishiga erishish mumkin.

**Beshinchidan,** "kiber" tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish lozim. Bunda mazkur atama "kibermuhit, shu jumladan kibermakon" hamda "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" bilan uzviy bog'liqligi, shuningdek, sun'iy intellekt va telekommunikatsiya texnologiyalari ushbu tizimning tarkibiy qismlari ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlanishi zarur. Bu nafaqat "Kiberalogiya" fanining, balki boshqa turdosh fanlarning ham aniq predmeti, maqsad va vazifalarini belgilab berishga xizmat qiladi. Natijada foydalanuvchilar orasida terminologik chalkashliklar barham topib, ta'lim jarayoni tizimli asosga ko'chadi.

**Oltinchidan,** kibersohada ilmiy tadqiqot olib borayotgan amaliyotchi va olimlarning yagona reyestrini yuritish, malakasini tizimli oshirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Davlat hisobidan (shu jumladan xorijda) bepul malaka oshirgan mutaxassislar zimmasiga oliy ta'lim muassasalarida dars berish va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish majburiyatini yuklash orqali "milliy kadrlar maktabi"ni yaratish mumkin. Bu usul milliy va xalqaro talablarga javob beradigan

Soha mutaxassislarining shakllanishi bevosita "ustoz-shogird" an'analari va o'qitish metodikasiga bog'liq. Biroq "ZiyoNet" tarmog'iga joylashtirilgan ilmiy ishlar mualliflarining soni 20 nafarga ham yetmasligi sohada malakali ustoz-kadrlar yetishmasligidan dalolat beradi. Kiberxavfsizlik bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmaga ega milliy mutaxassislar tanqisligi sababli ularning o'rnini ushbu sohada fundamental huquqiy bilimga ega bo'lmagan, lekin "kompyuter"ni va sun'iy intellekt bilan ishlashni biladigan mutaxassislar egallamoqda. Shuningdek, milliy qonunchilik va hududiy xususiyatlarni yetarlicha anglamaydigan xorijiy mutaxassislar tomonidan milliy kadrlarni tayyorlash amaliyoti kuzatilmoqda, bu esa kadrlar tayyorlash sifatiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

mutaxassislar korpusini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilishi nafaqat kiberxavfsizlikni ta'minlashga, balki davlatni ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoya qilishga, inson huquqlari hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois yuqorida bayon etilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish bugunning kechiktirib bo'lmas vazifasidir. Mazkur islohotlarning amalga oshirilishi qonunchilik va ta'lim tizimini yagona, kompleks hamda keng qamrovli metodologiya asosida birlashtiradi. "Kiberalogiya" fanining joriy etilishi esa O'zbekistonning kibermakondagi suverenitetini mustahkamlashning strategik asosi bo'lib xizmat qiladi.

**Amiriddin ANORBOYEV,**

Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi,  
yuridik fanlar doktori (DSc)



# Transchegaraviy jinoiy dalillar: muammolar va xalqaro hamkorlik yechimlari

Transchegaraviy jinoyatlarning tobora rivojlanishi va xalqaro jinoiy-sud hamkorligining chuqurlashishi natijasida xorijdan dalillar to'plash masalasi bugungi kunda davlatlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan transchegaraviy omil dalillarni olish va tan olishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi asosiy xususiyat bo'lishi bilan birga, jarayonda muayyan qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi.

Xalqaro hamjamiyat transchegaraviy uyushgan jinoyatchilik, giyohvand moddalar savdosi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlarini faol bajarib kelayotgan bir paytda, O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, dalillarni to'plash va tekshirishning takomillashtirilgan huquqiy normalarini ishlab chiqmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal evolyutsiyasi va kibermakonda chegara tushunchasining yo'qolishi jinoiy ta'qib qilish jarayonini yanada murakkablashtirib, texnik to'siqlar bilan bir qatorda yurisdiksiya masalalarini ham o'rtaga tashlamoqda. Shunday ekan, davlat chegaralaridan chetga chiqadigan jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish turli tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi samarali va tezkor choralarni talab qiladi<sup>1</sup>.

Transchegaraviy tergovlarning eng dolzarb masalalaridan biri – bir nechta davlat hududida joylashgan va masofaviy kirishni talab qiluvchi elektron dalillarni to'plashdir. Hozir jinoiy tergovlarning yarmidan ko'pi aynan xorijiy yurisdiksiyalardan bunday ma'lumotlarni so'rashni taqozo etmoqda. Biroq davlatlarning me'yoriy-huquqiy asoslari o'rtasidagi axloqiy, huquqiy va protsessual tafovutlar xalqaro hamkorlik yo'lida jiddiy


to'siq bo'lib qolmoqda. Natijada sud-huquq hamkorligi doirasidagi so'rovlarni bajarish muddati haddan tashqari cho'zilib, oylab, hatto yillab vaqt talab qilishi mumkin<sup>2</sup>.

Transchegaraviy kiberjinoyatlarga oid elektron dalillarni to'plash evolyutsiyasini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin. Dastlabki bosqichda AQSh va Yevropa davlatlari xalqaro hamjihatlik tamoyili asosida chet el huquqni muhofaza qilish idoralariga yordam ko'rsatish bo'yicha milliy qonunlar qabul qildilar. O'sha davrda transchegaraviy tekshiruvlar asosan bir davlat sudining boshqa davlat sudiga topshiriq xatlari yuborishi orqali amalga oshirilgan bo'lib, bu usul past samaradorligi bilan ajralib turardi. Keyinchalik xalqaro hamjamiyat kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda sud yordami mexanizmlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatladi. Buning natijasi o'laroq, 1959-yilda Yevropa kengashi ushbu sohadagi birinchi ko'p tomonlama hujjat – Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro yordam to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini imzoladi. Hozir esa tobora ko'proq davlatlar xalqaro sud yordami doirasida o'zlarning ichki transchegaraviy elektron dalillarni o'rganish tizimlarini yaratib, muntazam takomillashtirib bormoqda<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> doi.org/10.1093/cybsec/tyac014.

<sup>2</sup> ecba.org/extdocserv/projects/EEW/JLS\_Evidence\_finalreport\_review.pdf.

<sup>3</sup> H. Zhang and X. Gong (2024) in The International Journal of Evidence & Proof (Vol. 28).



Texnologiyalar va telekommunikatsiyalar evolyutsiyasi natijasida yuzaga kelgan jinoiy adliya muammolarini inson huquqlari doirasida hal qilishga qaratilgan Kiberjinoiyatchilik to'g'risidagi Budapesht konvensiyasi (2001) raqamli dalillar bo'yicha eng dolzarb xalqaro hujjat hisoblanadi. Hozir 66 ta davlat tomonidan imzolangan ushbu konvensiya Yevropa chegaralari bilan cheklanib qolmay, turli yurisdiksiyadagi amaliyotchilar uchun global asos yaratgan hamda moddiy-protsessual qoidalar orqali xalqaro hamkorlikni osonlashtirgan. Mazkur qonunchilik bazasi favqulodda vaziyatlarda raqamli dalillarni to'plash, xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan ishlash va hududdan tashqari vakolatlar bo'yicha normalarni o'z ichiga oladi. Konvensiya qoidalari texnologik ji-

hatdan neytral bo'lgani bois jinoiy-mazmuniy jihatdan dolzarbligini saqlab qolsa-da, bulutli (cloud) texnologiyalarning hududiylik va yurisdiksiyaga ta'siri yangi yechimlarni talab etdi. Shu sababli huquqni muhofaza qilish va sud organlarining tezkor faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2021-yil noyabr oyida Budapesht konvensiyasiga Ikkinchi qo'shimcha protokol kiritildi<sup>4</sup>.

Budapesht konvensiyasining 18-moddasida nazarda tutilgan "ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi buyruq" tizimi shartnomaga a'zo davlatlarning vakolatli organlariga o'z hududidagi shaxslar yoki xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan ularning egaligida yoki nazoratida bo'lgan elektron ma'lumotlarni talab qilish huquqini beradi.

### 18-modda – "Ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi buyruq" bo'yicha belgilanganidek:

1. Har bir tomon o'zining vakolatli organlariga quyidagilarni buyurish imkonini berish uchun zarur bo'lgan qonunchilik va boshqa choralarni qabul qilishi lozim:

a. Tomon hududidagi shaxsga, u egalik qiladigan yoki nazorat qiladigan, kompyuter tizimida yoki kompyuter ma'lumotlarini saqlash vositasida saqlanayotgan muayyan kompyuter ma'lumotlarini taqdim etishni;

b. Tomon hududida o'z xizmatlarini ko'rsatayotgan provayderlarga, ular egalik qiladigan yoki nazorat qiladigan xizmatlariga tegishli abonent ma'lumotlarini taqdim etishni.

2. Ushbu moddada nazarda tutilgan vakolatlar va tartib-qoidalar ushbu konvensiyaning 14 va 15-moddalariga (inson huquqlari va protsessual kafolatlar) muvofiq bo'lishi shart.

3. Ushbu modda maqsadlari uchun "abonent ma'lumotlari" atamasi xizmat ko'rsatuvchi tomonidan saqlanadigan, o'z xizmatlarining abonentiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni anglatadi. Bu ma'lumotlar kompyuter ma'lumotlari ko'rinishida yoki boshqa har qanday shaklda bo'lishi mumkin, biroq trafik ma'lumotlari yoki kontent bundan mustasno<sup>5</sup>.

Transchegaraviy jinoiy uyushmalarga qarshi kurashning yorqin misollaridan biri 2020-yilda Fransiya va Niderlandiya huquq-tartibot idoralari tomonidan Yevropol hamda Eurojust ko'magida o'tkazilgan "EncroChat" operatsiyasidir. Jinoiy tarmoqlar foydalangan ushbu shifrlangan aloqa tizimining fosh etilishi natijasida 1800 dan ortiq shaxs hibsga olindi, 1500 dan ortiq yangi tergov ishlari ochildi va 70 dan ortiq zo'rvonlik jinoyatining oldi olindi. Shuningdek, 28 tonnadan ortiq giyohvand moddalar xomashyosi musodara qilinib, Belgiya va Niderlandiyada 80 dan ortiq xavfli jinoyatchi qo'lga olindi.

Yana bir misol "Covid-19" pandemiyasi davrida kuzatildi: jinoiy guruhlar vaziyatdan foydalanib, internetdagi noqonuniy faoliyatini kengaytirdi. Yevropa ittifoqi hukumatlari fribgarlarning umumiy qiymati 15,4 milliard yevroga teng bo'lgan 1,1 milliard doza vaksinani soxta takliflar orqali sotishga urinishlarini fosh etdi<sup>6</sup>.

Hozir transchegaraviy kriminalistikada rivojlangan mamlakatlar (AQSh, YI) texnologik ustunlikka ega bo'lib, sun'iy intellekt va ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali o'z qonunchilik va sud-ekspertiza standartlarini shakllantirmoqda. Bu esa sohada orqada qolayotgan mamlakatlar bi-

<sup>4</sup> [search.coe.int/cm/pages/result\\_details.aspx?objectid=0900001680a48e4b](https://search.coe.int/cm/pages/result_details.aspx?objectid=0900001680a48e4b).

<sup>5</sup> <https://rm.coe.int/1680081561>.

<sup>6</sup> <https://hrcak.srce.hr/file/445780>.



lan texnologik nomutanosiblikni keltirib chiqarib, adolatli sud-ekspertiza tizimini yaratishni qiyinlashtirmoqda. Zero, elektron dalillar kriminalistikasining transchegaraviy qoidalarini shakllantirish bevosita kriminalistik texnologiyalar rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK) dalillar, ularning maqbulligi va protsessual kafolatlari bo'yicha umumiy tartib-qoidalarni belgilaydi. Biroq transchegaraviy hamkorlik va elektron dalillar bilan ishlash asosan xalqaro shartnomalar asosida tartibga solinadi. Bularga 1993-yilgi Minsk konvensiyasi (MDH doirasida), BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hamda bir qator xorijiy davlatlar bilan imzolangan ikki tomonlama o'zaro huquqiy yordam shartnomalari kiradi.

O'zbekiston JPKning 81-moddasiga muvofiq ijtimoiy xavfli qilmishning sodir etilganligini, ushbu qilmishni sodir etgan shaxsning aybdorligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlashga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi<sup>7</sup>.

Mustahkam huquqiy asosga ega bo'lishiga qaramay, O'zbekiston chet eldan dalillar olishda qator amaliy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bularga xalqaro huquqiy yordam so'rovlariga javob berishning uzoq kechikishi, shartnoma qoidalari-ning xorijiy hamkorlar tomonidan turlicha talqin qilinishi, yagona raqamli dalillar protokollarining yo'qligi, til to'siqlari hamda elektron dalillarni qayta ishlashda texnik tajriba yetishmasligi kiradi. Xususan, moliyaviy ma'lumotlarga oid so'rovlar xorijiy davlatlarning shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi va ularni himoya qilish qonunlariga muvofiq

keng qamrovli tekshiruvni talab qilishi jarayonni sezilarli darajada sekinlashtiradi.

Yana bir jiddiy to'siq davlat suvereniteti masalalari bilan bog'liq bo'lib, ayrim davlatlar so'ralgan tergov harakatini o'z ichki tartibiga zid deb hisoblasa, yordamni rad etishi yoki cheklashi mumkin. Natijada tergovchilar xorijiy serverlardagi bank ma'lumotlari, elektron dalillar yoki guvoh ko'rsatmalarini olishda muammolarga duch keladi, bu esa jinoyat ishining daliliy asosini zaiflashtiradi.

Bundan tashqari, xorijda to'plangan dalillarning O'zbekiston sudlarida maqbulligini ta'minlash murakkab tasdiqlash jarayonlarini talab etadi. Agar xorijiy dalillarni hujjatlashtirish yoki saqlash tartibi milliy protsessual me'yorlarga mos kelmasa, sudlar ularni, hatto mazmunan ishonchli bo'lsa-da, protsessual kamchiliklar sababli rad etishi holatlari uchraydi.

Transchegaraviy jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni to'plash O'zbekiston uchun dinamik va rivojlanayotgan masala bo'lib qolmoqda. Qonunchilik islohotlari va xalqaro shartnomalardagi ishtirok orqali yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, o'zaro huquqiy yordam tartib-qoidalari-ning cho'zilishi, xorijiy ma'lumotlarni himoya qilish qonunlaridagi tafovutlar hamda raqamli sud-ekspertiza salohiyatining yetishmasligi kabi muammolar hanz mavjud.

Milliy salohiyatni mustahkamlash uchun O'zbekiston ichki tartib-qoidalarni xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirishi, raqamli sud-ekspertizaga sarmoya kiritishi hamda soha mutaxassislarining malakasini oshirishi lozim. Kelgusi o'n yillikda blokcheyn tahlili va sun'iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish hamda elektron dalillarning yagona standartlarini joriy etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mamlakat transchegaraviy elektron dalillarni ekspertiza qilish bo'yicha istiqbolli qonunchilikni kuchaytirishi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning mantiqiy huquqiy tizimini shakllantirishi zarur. Texnologik qaramlikni kamaytirish, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning texnik standartlarini ishlab chiqishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifadir. Pirovard natijada O'zbekiston butun dunyo miqyosida xavfsiz va yagona transchegaraviy elektron dalillarni ekspertiza qilishning texnik standartlar tizimini yaratishga hissa qo'shishi lozim.

**Shoira GAFUROVA,**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

<sup>7</sup> <https://lex.uz/mact/-111460>.



# Dual ta'lim: tilni amaliyotda baholash

Farg'ona vodiysidagi avtomobil zavodida yosh texnik qo'llanmaga termulib turibdi. U ingliz tili imtihonlarini a'lo baholarga topshirgan, murakkab grammatik qoidalarni matematik aniqlikda biladi, hatto Shekspir sonetlaridan parchalar ham ayta oladi. Biroq ingliz tilidagi texnik diagnostika jadvali bilan yuzlashganda, u ojiz qoladi. U gapda "subject" (ega) nima ekanligini yaxshi bilsa-da, "solenoid" yoki "torque" (aylantiruvchi moment) kabi atamalar unga mutlaqo begona.

Bunday manzara O'zbekistonda jadal rivojlanayotgan dual ta'lim tizimidagi kichik, ammo muhim bir muammoni – akademik baholash va professional reallik o'rtasida katta tafovut borligini ko'rsatadi. O'quvchi vaqtini sinfxona va korxonada o'rtasida taqsimlaydigan dual ta'lim modeli rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun haqiqiy topilmadir. Biroq texnik tayyorgarlik bevosita zavod sexlariga ko'chgan bo'lsa-da, ingliz tilini o'qitish va baholash tizimi hamon ma'ruza zallarining mavhum qoidalari asiri bo'lib qolmoqda.

Ushbu tafovutni bartaraf etish uchun pedagoglar "Autentik baholash" (Authentic Assessment) yondashuvini amaliyotga keng joriy etishlari lozim. Grant Uiggins (1998)<sup>1</sup> ta'kidlaganidek, baholash topshiriqlari shunchaki nazariy bilimlarni tekshirishga emas, balki o'quvchini real hayotdagi professional qiyinchiliklarga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Dual ta'lim "Mening yozgi ta'lim" kabi umumiy mavzulardagi sun'iy insholardan voz kechish va ularni mutaxassis ish faoliyatining ilk kunidayoq duch keladigan aniq ssenariylar bilan almashtirishni anglatadi. Olimlar J. Gulikers, T. Bastiaens va P. Kirshner (2004)<sup>2</sup> tomonidan taklif etilgan "Besh o'lchovli model" baholashning hayotiylikini belgilashda asosiy mezon bo'la oladi. Ushbu modelga ko'ra, baholash tizimi nafaqat topshiriq mazmunini, balki u o'tkaziladigan fizik muhit hamda ijtimoiy muloqot jarayonini ham qamrab olishi shart.

An'anaviy ta'limda biz ko'pincha talabdan "Nima?" deb so'raymiz: "Passive voice qoidasi nima?". Dual ta'limda esa savol "Qanday?"ga o'zgarishi shart: "Mijozning e'tiroziga qanday javob berish kerak?". Bu o'zgarish pedagogikada "funktional adekvatlik" deb ataladi. Ya'ni talabaning tili grammatik jihatdan mukammal bo'lmasligi mumkin, lekin u o'z vazifasini (masalan, texnik nosozlikni tushuntirishni) muvaffaqiyatli bajara olsa, professional nuqtayi nazardan u bilimli hisoblanadi.

Ushbu yondashuvning iqtisodiy asosi ham yetarlicha mustahkam. Globallashuv sharoitida ingliz tili endi shunchaki "madaniyat tili" emas, balki xuddi sozlash kaliti (spanner) yoki stetoskop kabi zaruriy ish qurolidir. Agar AT mutaxassisi xatolar (debugging) jurnalini o'qiy olmasa yoki mehmonxonada menejeri xorijiy mehmon bilan muloqot o'rnata olmasa, mehnat unumdorligi pasayadi. Iqtisodchilar tili bilan aytganda, hozirgi baholash modeli "o'lchov xatosi"dan aziyat chekmoqda: u amaliy ko'nikmani emas, balki yodlash qobiliyatini o'lchash bilan band.

Baholash topshiriqlarini ishlab chiqishda T. Xatchinson va A. Voters (1987)<sup>3</sup> ilgari surgan "Ehtiyojlar tahlili" yondashuvi asosiy tayanch bo'lishi lozim. Zero, dual ta'lim tizimida imtihon jarayoni shunchaki bilim tekshiruvchi emas, balki professional hayotning kichik bir repetitsiyasiga aylinishi shart. Masalan, logistika va transport sohasida talabdan quruq grammatik testlar emas, balki ingliz tilidagi yuk xatlarini (waybills) bexato o'qish

<sup>1</sup> Wiggins, G. (1998). *Educative Assessment: Designing Assessments to Inform and Improve Student Performance*. San Francisco: Jossey-Bass Publishers.

<sup>2</sup> Gulikers, J. T., Bastiaens, T. J., & Kirchner, P. A. (2004). A five-dimensional framework for authentic assessment. *Educational Technology Research and Development*, 52(3), 67-86.

<sup>3</sup> Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learning-centred approach*. Cambridge: Cambridge University Press.



va xalqaro haydovchi bilan ombor ko'rsatmalari bo'yicha muloqot qila olish talab etiladi. Qurilish yo'nalishida esa asosiy e'tibor xavfsizlik belgilari va chizmalardagi texnik izohlarni to'g'ri talqin qilish hamda favqulodda vaziyatda aniq ogohlantirish bera olish qobiliyatiga qaratiladi. Xuddi shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida oshpaz talaba uchun sabzavotlar nomini yodlashdan ko'ra, ingliz tilida so'zlashuvchi mijozdan allergiya bilan bog'liq maxsus buyurtmani to'g'ri qabul qila olish muhimroqdir.

Leyv va Venger (1991)<sup>4</sup> ta'kidlaganidek, ta'lim – shunchaki bilim olish emas, balki muayyan professional jamoaga qo'shilish jarayonidir. Shu sababli dual ta'lim talabasi o'zini shunchaki o'quvchi emas, balki bo'lajak muhandis yoki soha mutaxassisi sifatida his qilishi juda muhim.

Baholash topshiriqlari real kasbiy vaziyatlarga moslashtirilsa, talaba ingliz tilini "majburiyat" emas, balki o'z kasbining ajralmas bo'lagi sifatida qabul qila boshlaydi. Bu esa unda "professional o'zlik" (identifikatsiya) hissini shakllantiradi. Zavodda ingliz tilidagi qo'llanma yoki asbobdan foydalanar ekan, u til o'rganishning natijasini darhol amaliyotda ko'radi. Bunday hayotiy tajriba talabaning ichki motivatsiyasini quruq akademik testlarga qaraganda bir necha barobar ko'proq oshiradi.

Ta'lim sohasida "Washback effect" (Teskari ta'sir) tushunchasi bor (Alderson va Uoll, 1993)<sup>5</sup>. Buning ma'nosi shuki, imtihon shakli butun o'quv jarayonini belgilab beradi. Agar biz imtihonni faqat grammatik testlardan iborat qilib qo'ysak, o'qituvchi ham, talaba ham "baribir test yechamizku" degan fikr bilan amaliy muloqotni chetga surib qo'yadi.

Baholash tizimini professional vaziyatlarga moslashtirish – butun o'quv dasturini sog'lomlashtirish demakdir. Agar talaba imtihonda nosoz qurilmani tushuntirib berishi kerakligini bilsa, u darsda fe'llarni shunchaki yodlamaydi, balki ularni muloqotda qo'llashga intiladi. Bu talablarni pasaytirish emas, balki muvaffaqiyat mezonini quruq nazariyadan amaliy natijadorlikka o'zgartirishdir.

Dual ta'limda baholash nafaqat pedagoglar, balki bevosita ish beruvchilar tomonidan ham ko'rib chiqilishi kerak. Ko'p hollarda akademik standartlar "mukammallik"ni talab qilsa, ishlab chiqarish "tezkorlik va tushunarlilik"ni birinchi o'ringa qo'yadi. Korxonada mutaxassislarini baho-

lash komissiyasiga jalb qilish talabaga o'z bilimining qayerda "ish berishi"ni aniq ko'rsatadi.

Shu o'rinda "Scaffolding" (Ko'priq vazifasini o'tovchi yordam) tamoyilini unutmaslik kerak. Talabani birdaniga murakkab texnik muzokaralarga tashlash noto'g'ri. Baholash topshiriqlari oddiy operatsiyalardan (asbob nomini aytish) murakkab ssenariylargacha (muammoni hal qilish) bosqichma-bosqich o'sib borishi lozim<sup>6</sup>.

Tanqidchilar bunday "individual" testlarni tuzish qimmat va standartlashtirish qiyin deb e'tiroz bildirishlari mumkin. Biroq texnologiya bu bo'shliqni to'ldirmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan Automated speaking assessment tizimlari endi og'zaki simulyatsiyalarni yoki texnik yozishmalarini soniyalar ichida baholay oladi.

Virtual reallik (VR) texnologiyalari talabani xavf-xatarsiz, ammo hissiy jihatdan ish muhitiga yaqin sharoitda sinab ko'rish imkonini beradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD, 2020) hisobotlarida qayd etilganidek, bunday raqamli vositalar ish joyidagi ko'nikmalarni ommaviy ravishda baholashda asosiy yechimga aylanmoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt (SI) yordamida har bir talaba uchun shaxsiylashtirilgan qayta aloqa tizimini yo'lga qo'yish mumkin, bu esa o'qituvchining ish yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi.

Pirovardida, dual ta'limning bosh maqsadi – bitiruvchining mehnat bozorida o'z o'rnini topishidir (employability). Agar diplomda talabaning ingliz tilini bilishi ko'rsatilgan bo'lsa, ish beruvchi undan grammatik qoidalarni emas, balki aniq professional muammolarni hal qilishni kutadi. Shu bois dual ta'limda ingliz tili darsliklar doirasidan chiqib, bevosita dastgohlar va laboratoriyalar yoniga yetib borishi shart.

O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati jadal ortib borayotgan bugungi davrda bizga shunchaki tilni biladigan nazariyotchilar emas, balki til yordamida ish bitiradigan raqobatbardosh mutaxassislar kerak. Zero, haqiqiy hayot imtihonida to'g'ri javob variantlari A, B yoki C shaklida bo'lmaydi; u yerda yagona to'g'ri javob – topshiriqning professional darajada ijro etilishidir. Dual ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra amaliyot demakdir, binobarin, uning tili ham amaliyot ichida tug'ilishi va aynan o'sha yerda baholanishi lozim.

**Sarvar UMIROV,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
katta o'qituvchisi

<sup>4</sup> Lave, J., & Wenger, E. (1991). *Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation*. Cambridge: Cambridge University Press.

<sup>5</sup> Alderson, J. C., & Wall, D. (1993). Does washback exist? *Applied Linguistics*, 14(2), 115-129.

<sup>6</sup> Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.



# Kiberjinoiy firibgarlik uchun javobgarlik: xalqaro va milliy tajriba

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi va internetning ommalashuvi kiberjinoiyatchilikning, xususan, kiberfiribgarlikning keng tarqalishiga zamin yaratdi. Mazkur jinoyat turi jismoniy shaxslar, moliya institutlari va davlat organlariga jiddiy zarar yetkazayotgani sababli uning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kiberfiribgarlik an'anaviy firibgarlikdan AKT, kompyuter tarmoqlari va elektron aloqa vositalari orqali sodir etilishi bilan farqlanadi. Uning tarkibiga fishing, onlayn to'lovlarni o'zlashtirish, zararli dasturlar va ijtimoiy muhandislik usullari kiradi. Jinoyatning transmilliy xarakteri – subyektlarning turli davlatlarda bo'lishi uni aniqlash va javobgarlikka tortish jarayonini murakkablashtiradi.

Xalqaro miqyosda kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishning asosiy huquqiy hujjati 2001-yildagi Budapesht konvensiyasi<sup>1</sup> hisoblanadi. Mazkur hujjat kiberjinoiyatlarni kriminalizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va tergovda tezkor ma'lumot almashish mexanizmlarini belgilab beradi. BMT va Yevropa ittifoqi doirasidagi tashabbuslar hamda rivojlangan davlatlar tajribasi kiberfiribgarlik uchun javobgarlikni belgilashda raqamli dalillarni to'plash va ekspertiza qilishni takomillashtirish muhimligini ko'rsatmoqda.

Milliy darajada kiberjinoiyatchilikka qarshi kurash ustuvor yo'nalish etib belgilangan. O'zbekiston Jinoyat kodeksi va sohaviy qonunlar orqali axborot xavfsizligini buzish hamda firibgarlik uchun javobgarlik o'rnatilgan. Iqtisodiyot va davlat xizmatlarining raqamlashishi kiberxavfsizlikni mustahkamlash zaruratini oshirdi. Biroq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, raqamli dalillarni yig'ish va xalqaro hamkorlikdagi muammolar ush-

bu sohada tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etmoqda.

Kiberjinoiy firibgarliklar zamonaviy jamiyatga jiddiy tahdid solayotgan sharoitda samarali javobgarlik mexanizmlarini yaratish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifadir.

Kiberjinoiy firibgarliklar masalasi so'nggi yillarda jahon miqyosida eng dolzarb huquqiy muammolardan biriga aylandi. Shu bois mazkur muammo xalqaro tashkilotlar, xorijiy olimlar va milliy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilmoqda.

Xalqaro miqyosda kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashishning huquqiy asoslari, avvalo, Yevropa kengashining 2001-yildagi "Kiberjinoiyatchilik to'g'risida"gi Budapesht konvensiyasida o'z ifodasini topgan<sup>2</sup>. Ushbu hujjatda kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, axborotni o'zgartirish, ma'lumotlarni noqonuniy egallash hamda elektron firibgarlik kabi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari batafsil yoritilgan. Konvensiya a'zo davlatlardan milliy qonunchilikni kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish talablariga moslashtirishni hamda o'zaro tezkor axborot almashinuvi mexanizmlarini mustahkamlashni talab qiladi. Mazkur hujjat xalqaro hamkorlik, ekstraditsiya va huquqiy yordamni takomillashtirish orqali transchegaraviy

<sup>1</sup> <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treatynum=185>.

<sup>2</sup> Convention on Cybercrime (Budapest, 23.XI.2001). European Treaty Series (ETS) No. 185.



jinoyatlarni fosh etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

BMT rezolyutsiyalarida transmilliy kiberfiribgarlikning iqtisodiy-ijtimoiy xavfi va davlatlararo tezkor axborot almashinuvi zarurligi ta'kidlanadi. Interpol va Yevropol kabi tashkilotlar esa kiberfiribgarlikning fishing, farming, identifikatsiya ma'lumotlarini o'g'irlash va ijtimoiy muhandislik kabi usullarini amaliy tajriba asosida tahlil qiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda kiberfiribgarlik ko'proq jinoyat huquqi va kriminologiya nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotchilar kiberjinoyatlarning anonimlik, transchegaraviylik va dalillarni yig'ish murakkabligi kabi belgilarini alohida qayd etadilar. Ayrim mualliflar an'anaviy normalar yetarli emasligini ta'kidlab, maxsus huquqiy mexanizmlar zarurligini asoslaydilar. Shuningdek, sud amaliyoti asosida jinoyat tarkibini aniqlash va raqamli dalillarning protsessual maqomi masalalari keng muhokama qilinadi.

Milliy tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida so'nggi yillarda sezilarli huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Jinoyat kodeksiga axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bilan bog'liq qator moddalarning kiritilishi, "Axborotlashtirish to'g'risida"<sup>3</sup>, "Elektron hukumat to'g'risida"<sup>4</sup>, "Elektron tijorat to'g'risida"<sup>5</sup>gi qonunlarning qabul qilinishi mazkur yo'nalishdagi normativ-huquqiy bazani mustahkamladi. O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida kiberfiribgarlikning jinoyat-huquqiy tavsifi, obyekt va subyekt, javobgarlikning differensiallashuvi hamda jazoni individuallashtirish masalalari tahlil qilingan.

Milliy adabiyotlarda kiberfiribgarliklarni tergov qilish metodikasi, raqamli dalillar bilan ishlash, ekspertiza tayinlash va xalqaro huquqiy yordam masalalari o'rganilgan. Tadqiqotchilar kiberjinoyatchilikning jadal o'sishi normativ-huquqiy bazani doimiy yangilashni, javobgarlik choralari-ning muvofiqligini hamda profilaktika mexanizmlarini kuchaytirishni talab qilishini ta'kidlaydilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlar kiberfiribgarlikni asosan umumiy kiberjinoyatchilik kontekstida ko'rib chiqqan. Firibgar-

likning o'ziga xos shakllari va ular uchun javobgarlikni takomillashtirish masalalari hali ham chuqur izlanishlarga muhtoj. Xalqaro va milliy tajribani qiyosiy tahlil qilish orqali huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish imkoniyatlari mavjud.

Adabiyotlar tahlili kiberfiribgarlik uchun javobgarlik masalasi kompleks yondashuvni talab qiladigan muammo ekanligini tasdiqlaydi. Xalqaro hujjatlar va xorijiy tajribani o'rganish ushbu sohada zamonaviy huquqiy asoslarni ishlab chiqishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va empirik metodlar majmuyidan foydalanildi. Nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg'unligi kiberjinoiy firibgarliklar uchun javobgarlik masalalarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy poydevorini tahlil va sintez, induksiya va deduksiya hamda umumlashtirish metodlari tashkil etdi. Mazkur usullar yordamida kiberfiribgarlikning huquqiy belgilari, tarkibiy elementlari va AKT rivoji natijasidagi transformatsiyasi aniqlandi.

Qiyosiy-huquqiy metod orqali O'zbekiston Jinoyat kodeksi normalari AQSh, Yevropa ittifoqi, Rossiya va Janubiy Koreya kabi xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan solishtirildi. Xususan, milliy qonunchilikning Budapesht konvensiyasi (Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiya) va xalqaro standartlarga muvofiqligi baholanib, sanksiyalar tizimi, isbotlash mexanizmlari va tergov jarayonidagi o'ziga xosliklar tizimlashtirildi.

Formal-yuridik metod asosida normativ-huquqiy hujjatlarning tuzilishi va huquqiy texnikasi tadqiq etildi. Kiberfiribgarlikning kvalifikatsiya masalalari, obyektiv va subyektiv tomoni, jinoyat predmeti xususiyatlari hamda zarar yetkazish shakllari huquqiy jihatdan tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot doirasida sud va tergov amaliyoti materiallari, statistik ko'rsatkichlar hamda real holatlar o'rganildi. Statistik tahlil yordamida kiberfiribgarlik dinamikasi, uning sodir etilish usullari va ijtimoiy xavflilik darajasi baholanib, jinoyatchilikning o'sish tendensiyalari aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida kiberfiribgarlik

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/-83472>.

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-2833860>.

<sup>5</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>.



axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat va bank-moliya tizimi bilan uzviy bog'liq kompleks ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida ko'rib chiqildi. Bu javobgarlikni ta'minlash mexanizmlarini yagona tizim doirasida tahlil qilishga xizmat qildi.

Prognozlash metodi orqali raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida kiberfiribgarlikning evolyutsiyasi va javobgarlik institutining takomillashuvi yuzasidan xulosalar shakllantirildi. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda maxsus protsessual mexanizmlarni joriy etish javobgarlik samaradorligini oshirishi ilmiy

gipoteza sifatida ilgari surildi.

Ushbu metodologik yondashuv kiberjinoiy firibgarliklar uchun javobgarlik masalalarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kiberfiribgarlik turlarining ko'payishiga, murakablashuviga hamda transmilliy tus olishiga olib kelmoqda<sup>6</sup>. Natijada mazkur turdagi jinoyatlarga nisbatan javobgarlikni belgilash va amaliyotda qo'llash jarayonida bir qator huquqiy va protsessual muammolar yuzaga kelmoqda.

1-jadval.

### Kiberjinoiy firibgarliklar uchun javobgarlik: xalqaro va milliy tajriba taqqoslanishi

Aspekt / Xususiyat	Xalqaro tajriba	Milliy tajriba (O'zbekiston)	Izohlar / Kuzatuvlar
Kiberfiribgarlikning ta'riflanishi	UNCITRAL, Yevropa ittifoqining Cybercrime direktivalari, Interpol hujjatlarida belgilangan	O'zbekiston Jinoyat kodeksi, 168-moddada belgilangan	Xalqaro ta'riflar kengroq, chegaralararo firibgarliklarni ham qamrab oladi
Kiberfiribgarlik turlari	Fishing, zararli dasturlar (malware), shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, moliyaviy firibgarlik	Onlayn firibgarliklar, elektron bank xizmatlari orqali firibgarlik, noqonuniy kirishlar	Turlari o'xshash, lekin terminologiya farq qiladi
Jinoiy javobgarlik	Zararga qarab 1-10 yilgacha qamoq; jarimalar; zararlarni qoplash	2-8 yilgacha qamoq; jarima; jabrlanuvchilarga kompensatsiya	O'zbekiston qonunchiligi moliyaviy zararlar uchun odatda qat'iyroq
Fuqarolik javobgarligi	Zararlarni qoplash da'volari, ba'zi mamlakatlarda kollektiv da'volar (class-action)	Kiberfiribgarlik natijasida yetkazilgan zarar uchun fuqarolik da'volari berilishi mumkin	Xalqaro tajribada ko'pincha kollektiv da'volar imkoniyati mavjud

O'zbekiston Jinoyat kodeksida axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa-da, kiberfiribgarlik tushunchasining aniq va kompleks huquqiy ta'rifi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Amaliyotda ko'pincha bunday jinoyatlar umumiy firibgarlik moddalari asosida kvalifikatsiya qilinadi. Bu esa jinoyatning o'ziga xos xususiyatlari – anonimlik, raqamli izlar, masofaviy sodir etilish, xalqaro element mavjudligini to'liq hisobga olish imkonini bermaydi<sup>7</sup>.

Kiberfiribgarliklar ko'pincha ijtimoiy muhandislik (social engineering), fishing (phishing),

vishing, smishing, soxta investitsiya platformalari va onlayn savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladi. Bunday jinoyatlar ko'pincha murakkab texnologik vositalar yordamida sodir etilib, ularni aniqlash va isbotlash jarayoni yuqori malakali mutaxassislarni talab etadi. Shu bois javobgarlik masalasini hal etishda nafaqat jinoyat-huquqiy normalar, balki protsessual va texnik ekspertiza mexanizmlarini ham takomillashtirish zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda kiberjinoiyatlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar, raqamli kriminalis-

<sup>6</sup> Karimov, S. (2020). Axborot xavfsizligi va kiberjinoiyatchilikka qarshi kurash masalalari. Toshkent: Fan va texnologiya.

<sup>7</sup> Raxmonov, A. (2021). Kiberjinoiyatlar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari. Huquq va burch, 4(2), 45-52-b.



tika laboratoriyalari va tezkor javob markazlari tashkil etilgan. Bundan tashqari, jinoyat tarkibini aniq belgilash, og'irlashtiruvchi holatlarni (masalan, katta miqdordagi zarar, uyushgan guruh

tomonidan sodir etilishi, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilishi) alohida ko'rsatish amaliyoti mavjud. Bu esa javobgarlik choralarining differensial qo'llanishiga imkon yaratadi.

### Kiberfiribgarliklar uchun samarali javobgarlikni ta'minlashda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- huquqiy normalarning aniqligi va zamonaviyligi – jinoyat tarkibini aniq belgilash va raqamli muhit xususiyatlarini inobatga olish;
- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – tezkor axborot almashinuvi va ekstraditsiya mexanizmlarini takomillashtirish;
- raqamli dalillarni yig'ish va mustahkamlash tizimini rivojlantirish – elektron isbotlarni saqlash va ekspertiza qilishning aniq tartibini belgilash;
- profilaktika va aholining huquqiy savodxonligini oshirish – fuqarolarni kiberxavfsizlik qoidalarini bo'yicha xabardor qilish.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kiberfiribgarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish bilan bir qatorda preventiv choralarni kengaytirish zarurligini ko'rsatdi. Chunki jinoyat sodir etilgandan keyingi javobgarlik choralaridan ko'ra, uning oldini olish samaraliroqdir<sup>8</sup>. Bank-moliya tizimida ikki bosqichli autentifikatsiya, biometrik identifikatsiya, real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy etish jinoyatlarning kamayishiga xizmat qiladi.

Kiberjinoiy firibgarliklar uchun javobgarlik kompleks yondashuvni talab etadi. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, jinoyat tarkibini aniq mustahkamlash hamda tergov va sud amaliyotini raqamli muhitga moslash samaradorlikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida huquqiy mexanizmlarning moslashuvchanligi va tezkor yangilanishi dolzarbdir.

Tahlillar elektron to'lov tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt firibgarlikning yangi shakllarini yuzaga keltirib, axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotganini ko'rsatdi. Budapesht konvensiyasi davlatlararo hamkorlik, ekstraditsiya va elektron dalillarni almashishning muhim asosi bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi qonunchilikni doimiy yangilash, kiberpolitsiya bo'linmalarini tashkil etish hamda texnik-ekspert salohiyatini oshirish yuqori natija berishini tasdiqladi<sup>9</sup>.

Milliy tajriba tahlili O'zbekistonda kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilganini ko'rsatdi. Jinoyat kodeksi, "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida" va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar ushbu sohaning huquqiy asosini tashkil etadi. Biroq kiberfiribgarliklarning transmilliy xususiyati milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va amaliy mexanizmlarni kuchaytirishni taqozo etmoqda<sup>10</sup>.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kiberfiribgarlik uchun javobgarlikni belgilashda jinoyat tarkibining aniq ifodalanishi, elektron dalillarni protsessual rasmiylashtirish va sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, aholining raqamli savodxonligini oshirish, moliya institutlarida xavfsizlik tizimlarini kuchaytirish va profilaktik choralarni samarali yo'lga qo'yish kiberjinoiyatchilikning oldini olishda asosiy yo'nalishlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kiberjinoiy firibgarliklar bo'yicha javobgarlik masalalari kompleks yondashuvni talab etadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish hamda transmilliy hamkorlikni rivojlantirish kelgusidagi muhim strategik vazifalardir.

**Farxod XAITMETOV,**

Chinoz tumani Adliya bo'lim boshlig'i

<sup>8</sup> To'rayev B. (2022). Raqamli makonda firibgarlik jinoyatlarining oldini olish mexanizmlari. Yuridik fanlar axborotnomasi, 3(1), 67-74-b.

<sup>9</sup> Yusupov D. (2020). Xalqaro huquqda kiberjinoiyatchilikka qarshi kurash tajribasi. – Toshkent: Adolat.

<sup>10</sup> Xudoyberdiyev M. (2023). O'zbekistonda kiberjinoiyatlarga qarshi kurashni takomillashtirish istiqbollari. Davlat va huquq, 2(1), 88-96-b.



# Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning HUQUQIY MEXANIZMLARI

Bugun voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi nafaqat milliy, balki global miqyosda dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri sifatida qolmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, axborot makonining kengayishi hamda globallashuv jarayoni yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u ko'pincha ijtimoiy moslashuvning buzilishi, oilaviy nazoratning sustligi, ta'lim-tarbiyadagi kamchiliklar, tengdoshlar ta'siri, ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'idagi salbiy kontentning ta'siri kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi ham jinoyat sodir etish ehtimolini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining faqat jazo choralarini qo'llash orqali emas, balki samarali profilaktika, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish huquqiy mexanizmi – normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlari faoliyati, profilaktik chora-tadbirlar, ijtimoiy institutlar hamkorligi hamda javobgarlik choralarini o'z ichiga olgan yaxlit tizimdir.

O'zbekistonda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va ular o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, Konstitutsiya, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi 263-qonun<sup>1</sup> hamda boshqa me'yoriy hujjatlar ushbu sohadagi huquqiy asosni tashkil etadi. Maz-

kur hujjatlarda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, tarbiyaviy ta'sir choralarini qo'llash hamda reabilitatsiya qilish mexanizmlari belgilangan.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki ta'lim muassasalari, oila, mahalla institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va keng jamoatchilikning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Profilaktika ishlari tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borilgandagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Ayniqsa, erta profilaktika, xavf guruhiga kiruvchi bolalarni aniqlash va ular bilan individual ishlash mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish huquqiy mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda amaldagi qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bunda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, qiyosiy-huquqiy usul, tizimli yondashuv hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning samarali huquqiy mexanizmlarini shakllantirish nafaqat jinoyatchilik darajasini kamaytirishga, balki barkamol, huquqiy ongli va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyat barqarorligi va davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri

<sup>1</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-1685726>.



hisoblanadi.



Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish masalasi huquqshunoslik, kriminologiya, pedagogika va psixologiya fanlari kesishgan nuqtada o'rganiladigan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Ushbu muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini profilaktika qilishda nafaqat jazolash mexanizmlari, balki ijtimoiy, tarbiyaviy va reabilitatsion yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun ushbu sohada asosiy normativ-huquqiy manbalardir. Mazkur hujjatlarda voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi, javobgarlik yoshi, ularga nisbatan qo'llanadigan majburlor choralarining o'ziga xos jihatlari hamda profilaktika subyektlarining vakolatlari belgilangan. Ilmiy adabiyotlarda ayniqsa voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoiy jazoni qo'llashda insonparvarlik va differensial yondashuv tamoyillarining ahamiyati keng yoritilgan.

Kriminolog olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini ijtimoiy omillar bilan bog'lab o'rganadilar. Ularning fikricha, oiladagi nosog'lom muhit, ijtimoiy nazoratning sustligi, ta'lim-tarbiyadagi kamchiliklar, iqtisodiy muammolar hamda tengdoshlar ta'siri asosiy determinantlar sifatida namoyon bo'ladi<sup>2</sup>. Shu nuqtayi nazardan, profilaktika tizimi ko'p bosqichli va kompleks xarakterga ega bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Birlamchi profilaktika – huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishga qaratilgan umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarni, ikkilamchi profilaktika – xavf guruhiga kiruvchi voyaga yetmaganlar bilan individual ishlashni, uchlamchi profilaktika esa qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish mexanizmlarini o'z ichiga oladi<sup>3</sup>.

Xalqaro huquqiy manbalar tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi, Pekin qoidalari (Voyaga yetmaganlar ustidan odil sudlov yuritishning minimal standart qoidalari) hamda Riyod yo'riqnomalari voyaga yetmaganlarga nisbatan inson huquqlariga asoslangan yondashuvni ilgari suradi. Ushbu hujjatlarda jazodan ko'ra tarbiyaviy ta'sir choralariga ustuvorlik berish, reabilitatsiya va reintegratsiyani ta'minlash zarurligi qayd etilgan.

Milliy qonunchilikni takomillashtirishda aynan shu xalqaro standartlarga moslashish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadi.

Huquqshunos olimlarning tadqiqotlarida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda profilaktika inspektorlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va ota-onalarning o'zaro hamkorligi samaradorligi alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga, mediatsiya institutini keng qo'llash, probatsiya xizmatining imkoniyatlarini kengaytirish, psixologik xizmatlarni kuchaytirish kabi takliflar ilgari surilgan. Ayrim mualliflar esa jinoyatchilikning oldini olishda raqamli monitoring tizimlari va ijtimoiy tarmoqlardagi nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslab berganlar.

So'nggi yillarda ilmiy ishlarda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga gender yondashuvi ham ko'rib chiqilmoqda. Qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning o'ziga xos psixologik va ijtimoiy omillari mavjudligi qayd etilib, differensial profilaktika mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq yangi xavf omillari ham tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlari faqat normativ bazani takomillashtirish bilan cheklanmasligi kerak. U ijtimoiy profilaktika, oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi, psixologik qo'llab-quvvatlash va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining uyg'unlashuvini talab etadi. Shu bois ilmiy manbalarda kompleks, integrativ va preventiv yondashuv eng samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi<sup>4</sup>.

Mavjud ilmiy adabiyotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda insonparvarlik, individual yondashuv, ijtimoiy reabilitatsiya va xalqaro standartlarga moslik tamoyillarini ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur sohada amaliyot va nazariya o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, empirik tadqiqotlar asosida normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlarini kompleks o'rganish maqsadida nazariy, empirik va tahliliy usullar majmuasidan foydalandi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv

<sup>2</sup> Ismoilov, B. (2019). Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya.

<sup>3</sup> Karimov, D. (2018). Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Toshkent: O'qituvchi.

<sup>4</sup> Tursunov S. (2017). Yoshlar siyosati va huquqiy tarbiya masalalari. Toshkent: Tafakkur.



asosida qurilib, jinoyatchilikning ijtimoiy-huquqiy tabiati, sabablari va oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy choralar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Avvalo normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usuli qo'llandi. O'zbekiston Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonun hamda bolalar huquqlarini himoya qilishga oid boshqa qonunos-ti hujjatlari mazmunan va tizimli o'rganildi. Ushbu hujjatlarda belgilangan profilaktik choralar, javobgarlik mexanizmlari, vakolatli organlarning huquq va majburiyatlari solishtirilib, samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-huquqiy tahlil metodi ham qo'llandi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bo'yicha huquqiy mexanizmlar o'rganilib, milliy qonunchilik bilan taqqoslandi. Qiyosiy tahlil orqali profilaktika tizimining ustuvor yo'nalishlari, rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish mexanizmlarining samaradorligi aniqlashtirildi.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida so'nggi yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar dinamikasi, ularning turi, hududiy taqsimoti va ijtimoiy omillari o'rganildi. Statistik ko'rsatkichlar asosida jinoyatchilikka ta'sir etuvchi asosiy sabab va shart-sharoitlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha huquqiy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqotda sotsiologik usullar, jumladan, so'rov va suhbat metodlaridan ham foydalanish nazarda tutildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, pedagoglar, psixologlar hamda voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi mutaxassislarining fikr-mulohazalari o'rganilib, muammolar va amaliyotdagi kamchiliklar aniqlashtirildi. Bu esa huquqiy mexanizmlarning real hayotdagi qo'llanishini baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tizimli va funksional yondashuv asosida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish subyektlari – ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari, oila va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorlik mexanizmlari o'rganildi. Har bir subyektning vakolat doirasi, funksiyalari va javobgarlik chegaralari aniqlashtirildi.

Tadqiqot metodologiyasi kompleks va ko'p bosqichli yondashuvga asoslanib, voyaga yetma-

ganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlarini nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur o'rganishga xizmat qildi. Mazkur metodlar orqali muammoning dolzarb jihatlari aniqlanib, qonunchilikni takomillashtirish hamda profilaktika tizimini samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlari kompleks va ko'p bosqichli tizim sifatida amal qilishi aniqlandi. O'rganilgan normativ-huquqiy hujjatlar, amaliyot tahlili hamda statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, mazkur sohada profilaktika, javobgarlik va rehabilitatsiya choralari-ning uyg'unligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, profilaktik yo'nalishdagi choralar samaradorligi voyaga yetmagan shaxsning ijtimoiy muhitiga bevosita bog'liq ekanligi kuzatildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy omillari sifatida oilaviy nazoratning sustligi, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligining pastligi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi hamda internet va ommaviy axborot vositalari orqali salbiy axborot ta'siri namoyon bo'lmoqda<sup>5</sup>. Shu bois huquqiy mexanizmlar faqat jazolash bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilishi zarur.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, amaldagi qonunchilikda voyaga yetmaganlar bilan ishlashning alohida tartibi belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda idoralararo hamkorlik mexanizmlarida ayrim uzilishlar mavjud. Masalan, ichki ishlar organlari, maktab ma'muriyati va mahalla fuqarolar yig'ini o'rtasidagi axborot almashinuvi doimiy va tizimli tusga ega emas. Natijada profilaktik hisobda turgan voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash samaradorligi pasaymoqda.

Shuningdek, sud-huquq amaliyotida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashda insonparvarlik tamoyiliga amal qilinayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda muqobil ta'sir choralaridan yetarli darajada foydalanilmayotgani kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jazo choralaridan ko'ra tarbiyaviy va ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan choralar (probatsiya nazorati, ijtimoiy rehabilitatsiya dasturlari, psixologik maslahatlar) takroriy jinoyatchilikning kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

<sup>5</sup> Yo'ldoshev Sh. (2016). Oila va voyaga yetmaganlar huquqlari himoyasi. Toshkent: Fan.



## 1-rasm. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar (O'zbekiston, 2021–2025)



Yil	Voyaga yetmaganlar jinoyatlari soni
2021	1317 (UzDaily.uz)
2022	1472 (Kun.uz)
2023	2116 (Kun.uz)
2024	3599 (Kun.uz)
2025	3364 (UzDaily.uz)

Muhokama jarayonida xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil ham olib borildi. Rivojlangan davlatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlashda “restorativ adliya” (tiklovchi adliya) mexanizmi keng qo'llanadi. Ushbu yondashuv jinoyat sodir etgan bolani jamiyatdan ajratish emas, balki uni jabrlanuvchi va jamiyat bilan yarashtirish, yetkazilgan zararni qoplash va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur mexanizmni milliy amaliyotga kengroq joriy etish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishda samarali bo'lishi mumkin.

### Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilgari surildi:

- voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi subyektlar o'rtasida yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish;
- profilaktika inspektorlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirish;
- maktablarda huquqiy savodxonlik va media madaniyatni oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish;
- muqobil jazolar va restorativ adliya institutlarini keng qo'llash;
- oilalar bilan individual ishlash mexanizmlarini mustahkamlash.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda huquqiy mexanizmlar tizimli, profilaktik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Faqat jazolashga qaratilgan yondashuv kutilgan natijani bermaydi, aksincha, ijtimoiy moslashtirish va tarbiyaviy ta'sir choralari ustuvor bo'lgan model uzoq muddatli barqaror natijalarni ta'minlaydi<sup>6</sup>.

O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarning asosiy sabablari sifatida oilaviy muhitdagi muammolar, nazoratning sustligi, ijtimoiy tengsizlik, ta'lim tizimidagi kamchiliklar hamda axborot makonidagi salbiy ta'sirlar namoyon bo'ladi.

Huquqiy mexanizmlar tizimi esa normativ-huquqiy baza, profilaktika institutlari, sud-huquq amaliyoti va ijtimoiy reabilitatsiya choralariining uyg'unligiga asoslanadi<sup>7</sup>. Tadqiqot natijalariga ko'ra, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish uchun jazolashdan ko'ra profilaktik yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi. Xususan, erta ogohlantirish tizimini kuchaytirish, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash, oilaviy nazorat va tarbiyaviy mas'uliyatni oshirish, psixologik-pedagogik xizmatlar faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanadigan jazo choralariida insonparvarlik, ijtimoiy moslashuv va qayta tarbiyalash tamoyillariga amal qilish zarurligi asoslab berildi. Reabilitatsiya va ijtimoiy moslashtirish mexanizmlarining samaradorligi jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni jamiyatga qayta integratsiya qilish imkonini beradi. Shu bois probatsiya nazorati, ijtimoiy xizmatlar va psixologik yordam tizimini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishning huquqiy mexanizmlari kompleks, tizimli va uzviy yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda davlat organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va oilaning hamkorligi muhim. Faqatgina huquqiy choralalar bilan cheklanib qolmasdan, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-psixologik va iqtisodiy omillarni ham hisobga olgan holda ishlab chiqilgan kompleks dasturlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini barqaror kamaytirishga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va amaliyotga innovatsion profilaktik mexanizmlarni joriy etish ushbu muammoning samarali yechimiga zamin yaratadi.

**Saloxidin ISMOILOV,**

Chinoz tumani Davlat xizmatlari markazi direktori.

**Nurlibay NAZARIMBETOV,**

Chinoz tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

<sup>6</sup> Xudoyqulov, M. (2022). Jinoyatchilikka qarshi kurashning zamonaviy mexanizmlari. Toshkent: Adolat

<sup>7</sup> Abdug'aniev, R. (2021). Ijtimoiy nazorat va jinoyatchilik profilaktikasi. Toshkent: Innovatsiya.



# Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji tufayli bu texnologiyalardan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarning soni va qamrovi ham oshmoqda. Shunday jinoyatlardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan poraxo'rlik jinoyatidir.

Fikrimizcha, jinoyat qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zaruriyati quyidagilardir.

**Birinchidan,** 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy ken-gash yig'ilishida davlat rahbari tomonidan kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mustahkam huquqiy bazani yaratish<sup>1</sup> bo'yicha topshiriq berilib, alohida qonunchilik hujjati<sup>2</sup> bilan aniq vazifalar belgilab olin-di. Mazkur vazifalarning bajari-lishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan jinoyatlar, jumladan poraxo'rlikning jinoiy-huquqiy xususiyatlarini hisobga olib, amaldagi jinoyat qonunchiligida ular uchun aniq jinoiy javobgarlikni belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

**Ikkinchidan,** kiberjinoyat-larning qariyb 90 foizi latent jinoyat sanaladi<sup>3</sup> va bu esa aniq javobgarlikni belgilamasdan turib, qaysi kiberjinoyatlar bilan kurashish kerakligi yuzasidan muammolarni vujudga keltirmoqda. Hozir O'zbekiston qonunchiligida poraxo'rlik jinoyatlarining kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda va undan foydalanib sodir etilganligi yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgani bo'yicha aniq javobgarlik mavjud emas. Bu esa vakolatli davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning xodimlari tomonidan qaysi poraxo'rlik qilmishiga oid kiberxavfsizlik hodisasi vujudga kelganda uni Jinoyat kodeksi talabiga asosan qaysi tergov organlariga yuborish va ularning kiberjinoyat ekaniga aniqlik kiritish kerakligini oldindan bilish zaruriyati mavjud.

Jinoyat kodeksining 4-mod-dasiga asosan sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Biroq bu kodeksning o'zida "kiberjinoyat", "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari" tushunchalarining ta'rifi nazarda tutilmagan. Bu esa sodir etilayotgan kiberxavf va hodisalar chegarasini aniqlash hamda ularni qonunchilikda aniq javobgarlik bilan tartibga solish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

**Uchinchidan,** O'zbekiston Konstitutsiyasining 2-moddasiga asosan davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Shu mas'uliyatning to'liq ta'minlanishi poraxo'rlik jinoyatlarining respublikamizda

<sup>1</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/7924>.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича белгиланган устувор вазифалар ижросини самарали ташкил этишга доир чора-тадбирлар тўғрисида" 2025 йил 21 апрелдаги 71-фармони // lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>3</sup> Джурраев Ф. Кибержидоиялар тушунчаси, белгилари ва шахсий изкуварлик маҳорати орқали уларнинг олдини олиш ва фодо этилишининг аҳамияти ҳақида айрим мулоҳазалар. - Т.: CARJIS. 2022. №3. - 228 б.



sodir etilmasligini ta'minlaydi va ularning jinoiy javobgarligi muqarrarligini ko'rsatadi. Shu sababli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilash muhim ahamiyatga ega.

**To'rtinchidan,** poraxo'rlik jinoyatlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilishi shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan vaqt davomida poraxo'rlik jinoyati dinamikasi o'sib bormoqda. Jumladan, 2019–2024-yillarda Jinoyat kodeksining 210-moddasiga asosan pora olish jinoyati 52,8 barobarga, Jinoyat kodeksining 211-moddasiga asosan pora berish jinoyati 43,6 barobarga ko'tarilgan. Shundan birgina 2024-yilda pora olish jinoyatining 7 ta holatida pora predmeti elektron to'lov vositasi orqali amalga oshirilgan. Kriptoaktivlar bilan bog'liq jarayonlar murakkab va isbotlash vaqt talab etganligi hamda bu holat jinoyatning kvalifikatsiyasiga va jazoni qo'llashga ta'sir etmasligi oqibatida bu borada biron bir tergov harakati o'tkazilmagan.

Qiyosiy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 168-moddasining uchinchi qismi "g" bandida axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib firibgarlik jinoyatini sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu firibgarlikning Jinoyat kodeksining XX<sup>1</sup> bobida nazarda tutilgan qilmishlar bilan birgalikda sodir etgan vaqtida jinoyatlar majmuyi sifatida emas, balki yagona jinoyat si-

fatida kvalifikatsiya qilinishiga yordam berib kelmoqda va bu bilan jinoyat qonunchiligining odillik prinsipi ijrosi ta'minlanmoqda.

Shu sababli poraxo'rlik jinoyatlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilishi bo'yicha alohida jinoiy javobgarlikni belgilash lozim.

**Beshinchidan,** Jinoyat kodeksining 7-moddasiga asosan jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak. Biroq poraxo'rlik jinoyatlari uchun qo'llanadigan jazo shu turdagi jinoyatlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilishi uchun milliy jinoyat qonunchiligimizda yengilroq jazo nazarda tutilgan.

Jinoyat kodeksining 59-moddasiga asosan agar jinoyatlar majmuyini faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar tashkil etsa, unda tayinlangan yengilroq jazoni og'irrog'i bilan qoplash yoxud tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi. Bunda uzil-kesil tayinlangan jazo sodir etilgan jinoyatlardan eng og'iri uchun nazarda tutilgan eng ko'p jazo muddatidan yoki me'yorida ortiq bo'lmasligi lozim.

Agar jinoyatlar majmuyini tashkil etuvchi jinoyatlardan loaqal bittasi og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat bo'lsa, ushbu kodeksning Umumiy qismida shu jazo turi

uchun belgilangan doirada tayinlangan jazolarni to'la yoki qisman qo'shish yo'li bilan jazo uzil-kesil tayinlanadi<sup>4</sup>.

Mazkur vaziyatda poraxo'rlik jinoyatlari uchun belgilangan jazo axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgan jinoyatlar uchun tayinlanayotgan jazolardan og'ir bo'lmasligi lozim. Aks holda amaldagi jazolar Jinoyat kodeksining 7-moddasidagi insonparvarlik prinsipi talabiga zid bo'ladi.

Shu sababli insonparvarlik prinsipi nuqtayi nazaridan adolatli jazo qo'llanishi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilash lozim.

**Oltinchidan,** statistika shuni ko'rsatmoqdaki, 2023-yilda har 39 soniyada, hozir esa har 14 soniyada bitta kiberhujum sodir etilib<sup>5</sup>, buning oqibatida jahon iqtisodiyotiga yetkazilgan zarar miqdori 2023-yilda taxminan 8 trln dollarni tashkil etgan<sup>6</sup>. Bu raqam 2024-yilda 9,5 trln dollarga<sup>7</sup>, 2025-yilda esa 10,5 trln dollarga yetgan<sup>8</sup>. Demak, ushbu zararlarning oldini olish uchun jinoyat qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari bo'yicha javobgarlik muqarrarligini aniq belgilash hamda uning to'liq va samarali ijrosini ta'minlash zarur.

**Yettinchidan,** ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har yili 500 milliondan ortiq kiberhujum uyushtiriladi. Har soniyada 12 nafar insondan biri kibermakon-

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>5</sup> <https://www.datensicherheit.de/2024-2025-cyber-attack-companies-14-seconds>.

<sup>6</sup> <https://www.yeoandyeo.com/resource/cybercrime-to-cost-the-world-8-trillion-in-2023>.

<sup>7</sup> <https://www.cenlanow.com/business/press-releases/ein-presswire/674883055/cybercrime-damages-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-in-2024/>.

<sup>8</sup> <https://www.firstcolumn.com/blog/the-global-annual-cost-of-cybercrime-will-break-10-trillion-by-2025>.



da sodir etilgan hujum qurboniga aylanadi. AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiberhujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozir umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan<sup>9</sup>.

**Sakkizinchidan,** O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 14-maydagi 3723-qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasiga asosan texnologik taraqqiyot, jumladan kiberjinoyat bilan bog'liq jinoyat turlarining kengayganligini hisobga olgan holda axborot texnologiyalari sohasida javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni qayta ko'rib chiqish topshirilgan<sup>10</sup>.

Aynan mazkur topshiriqni to'liq ijro etish orqali kiber-muhitda, shu jumladan, kiber-makonda sodir etilayotgan poraxo'rlilik jinoyatlarining turi va xususiyatiga aniqlik kiritib, jinoyat qonunchiligimizda aniq javobgarlikni belgilash zarur bo'ladi.

**To'qqizinchidan,** Prezidentning 2025-yil 30-apreldagi "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 153-qaroriga muvofiq Ichki

ishlar vazirligi kiberjinoyatlariga qarshi kurashishda yagona amaliyotni yo'lga qo'yish, barcha mas'ul organlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning hamkorligini ta'minlash bo'yicha vakolatli etib belgilandi. Shu bilan birga davlat organlari, banklar va to'lov tizimi subyektlariga kiberjinoyatlarning oldini olish hamda aholining kibermadaniyatini yuksaltirish yuzasidan qat'iy majburiyatlar yuklatildi, mijozlar manfaatlari va moliyaviy xavfsizlik ustuvor vazifa etib belgilandi.

Shu bois mazkur vazifalarning samarali va tizimli ijrosini ta'minlash uchun jinoyat qonunchiligida nafaqat kiberjinoyatlar, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlilik jinoyatlari uchun ham aniq jinoiy javobgarlikni belgilash zarur.

**O'ninchidan,** korrupsiya va kiberjinoyatlar transchegaraviy xarakterga ega bo'lib, poraxo'rlilik ularning markaziy ko'rinishi hisoblanadi. Shu sababli ularga oid javobgarlikni belgilash xalqaro hujjatlar hamda turli davlatlarning jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi kerak.

**O'n birinchidan,** BMtning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) o'zining konseptual qo'llanmalarida kriptovalyutalarning korrupsiyaviy sxema-

lardagi o'rnini alohida xavf sifatida belgilagan<sup>11</sup>. Shuningdek, Yevropa kengashining Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi (GRECO) baholash raundlarida raqamli dalillarni to'plash va kibermakonda davlat xizmatchilarining raqamli izlarini monitoring qilish tizimlarini yaratish majburiyatini ilgari suradi<sup>12</sup>. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) esa raqamli korrupsiya (digital corruption) konsepsiyasini ilgari surib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat jinoyat vositasi, balki poraxo'rlilikni niqoblovchi institutsional qalqon ekanini ta'kidlaydi<sup>13</sup>. Ushbu xalqaro konsepsiyalarni milliy qonunchiligimizga moslashtirish orqaligina jinoyat qonunchiligimizdagi "kiberkorrupsiya" tushunchasini nazariy jihatdan to'liq shakllantirish va davlat rahbari qo'ygan vazifani<sup>14</sup> bajarish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlilik jinoyatlariga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Bu orqali shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda buzilgan huquqlarni tiklash mumkin. Shu bois ilg'or xorijiy tajribaga tayangan holda bunday jinoyatlar uchun jinoyat qonunchiligida aniq javobgarlikni belgilash lozim.

**SURUR BERDIYEV,**

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

<sup>9</sup> Ф. Худойкулов. Бир йилда 500 миллиондан ортиқ киберхужум уюштирилади. <https://yuz.uz/news/bir-yilda-500-milliondan-ortiq-kiber-hujumlar-uyushtiriladi>.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги 3723-қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси // lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>11</sup> [https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/2020/State\\_of\\_Integrity\\_EN.pdf](https://www.unodc.org/documents/corruption/Publications/2020/State_of_Integrity_EN.pdf)

<sup>12</sup> <https://www.coe.int/en/web/greco/documents/general-activity-reports/>

<sup>13</sup> <https://www.oecd.org/en/topics/anti-corruption-and-integrity.html/>

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси кенгашининг "Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш бўйича миллий кенгашининг йиғилишидаги нутқда белгилаб берилган устувор йўналишлардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси томонидан амалга ошириладиган ишлар тўғрисида" 2025 йил 28 мартдаги 711-Ҳ қарори // lex.uz - Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик маълумотлари миллий базаси.



# Yo'l harakati huquqbuzarliklarini baholash va differensiatsiyalashning huquqiy asoslari

**Global motorizatsiya, urbanizatsiya va transport kommunikatsiyalarining murakkablashishi yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklar tabiatini konseptual qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. 2024-yilda mamlakatimizda qayd etilgan 9 364 ta yo'l-transport hodisasining har to'rtinchisi o'lim bilan yakunlangani sohadagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasini ilmiy baholash naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.**

Hukumat tomonidan 2017-yildan buyon yo'l infratuzilmasiga 61 trillion so'm mablag' ajratilgan bo'lsa-da, islohotlarning yangi bosqichi faqat moddiy ta'minot bilan cheklanib qolmasligi lozim. Endilikda asosiy e'tibor sun'iy intellekt va intellektual radarlar orqali inson omilini kamaytirishga, "Persistent violators" (muntazam qoidabuzarlar) dasturini tatbiq etishga hamda yo'l harakati ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilishi zarur.

Yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarlik – avtomobil yo'llarida yoki boshqa transport kommunikatsiyalarida o'rnatilgan harakat tartibini buzuvchi, shaxsning hayoti va sog'lig'iga, mol-mulkiga hamda jamoat tartibiga tahdid soluvchi aybli qilmishdir<sup>1</sup>. Mazkur tushuncha mohiyatini yoritishda "yo'l harakati" va "xavfsizlik" kategoriyalarining o'zaro bog'liqligini ilmiy tahlil qilish zarur.

Ilmiy nazariyada yo'l harakati xavfsizligi na faqat huquqiy normalar yig'indisi, balki murakkab

ijtimoiy-texnik tizim sifatida qaraladi. Bu tizimning asosiy elementlari "Haydovchi – avtomobil – yo'l – atrof-muhit" zanjiridan iborat bo'lib, ularning har biridagi uzilish huquqbuzarlikka zamin yaratadi<sup>2</sup>. Huquqbuzarlik tushunchasi va uning ijtimoiy xavfliligi masalasida turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xususan, o'zbekistonlik huquqshunos olimlar sohani milliy qonunchilik va jamiyat mentaliteti kesimida tadqiq etganlar. Jumladan, professor M. Rustambayev yo'l harakatini "muayyan qoidalarga bo'ysunuvchi piyodalar, haydovchilar va transport vositalari harakatini qamrab oluvchi ijtimoiy-texnik tizim" deb ta'riflaydi<sup>2</sup>. Uning fikricha, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavfliligi ularning ommaviyligi va inson yashash huquqiga bevosita tahdid solishi bilan belgilanadi.

Huquqshunos olimlar O. Turg'unov va Sh. Berdiyarov o'z tadqiqotlarida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda ma'muriy-huquqiy metodlar samaradorligiga urg'u beradilar<sup>3</sup>. Ularning qarash-

<sup>1</sup> Muhammadaliyev Z. Kh. Modern road traffic safety system: structure, significance and development directions // Independent researcher at the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan.

<sup>2</sup> Rустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. IV том. Махсус қисм. Жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига қарши жиноятлар. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2018. – 462-463-б.

<sup>3</sup> Турғунов О.К., Бердияров Ш.Н. Маъмурий ҳуқуқ. Махсус қисм: Дарслик / Масъул муҳаррир: Ш.Т. Икрамов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2020. – 215-218-б.



lariga ko'ra, huquqbuzarliklarning oldini olishda jazoning muqarrarligidan ko'ra, profilaktik choralar va "huquqiy madaniyat"ning shakllanganligi muhim omildir.

Professor G. Malikova va A. Qahhorov esa yo'l harakati ishtirokchilarining huquqiy savodxonligini oshirish orqali YTHlarni kamaytirish konsepsiyasini ilgari suradilar<sup>4</sup>.

K. Rahimov yo'l harakati xavfsizligini "yo'l harakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik holati" deb baholaydi<sup>5</sup>. Uning nazariyasiga ko'ra, huquqbuzarlik tushunchasi nafaqat qoidani buzishni, balki xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul davlat organlarining harakatsizligini ham o'z ichiga olishi lozim. Bunda idoralararo hamkorlikning sustligi huquqbuzarlik sodir bo'lishiga imkon beruvchi shart-sharoit sifatida talqin qilinadi.

Mahalliy olimlarning umumiy xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy tabiati transformatsiyalanmoqda. Endilikda huquqbuzarlik nafaqat "jarima to'lash" majburiyati, balki "inson qadrini toptash" va "ijtimoiy mas'uliyatsizlik" sifatida baholanishi lozim<sup>6</sup>.

Xorijiy ilmiy maktablarda yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklar kriminologiya, sotsiologiya va boshqaruv nazariyasi bilan uyg'unlikda tadqiq etiladi. Rossiyalik olim B. Rossinskiy davlatning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini tahlil qilib, huquqbuzarliklarni "davlat boshqaruvining samarasizligi ko'rsatkichi" deb ataydi<sup>7</sup>. Uning ta'kidlashicha, huquqbuzarliklarning ijtimoiy xavflilik darajasi transportning "yuqori xavf manbai" ekanligi bilan bevosita bog'liqdir.

V. Mayorov esa "transport muhitidagi ijtimoiy xavfsizlik" tushunchasini ilgari suradi. Unga ko'ra, yo'l harakati xavfsizligi – insonning harakatlanishdagi shaxsiy ehtiyojlarini so'zsiz va xavfsiz amalga oshirish imkoniyatidir. Mazkur olim huquqbuzarlikni jamiyatning transport ehtiyojlari va xavf-

sizlik talablari o'rtasidagi nomutanosiblik natijasi sifatida ko'radi<sup>8</sup>.

Yo'l harakati sohasidagi huquqbuzarliklarni to'g'ri tasniflash ularning ijtimoiy xavflilik darajasiga mutanosib ravishda javobgarlik belgilash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda va qonunchilik amaliyotida mazkur huquqbuzarliklarni quyidagi mezonlarga ko'ra turlarga ajratish mumkin.

### **Yo'l harakati xavfsizligiga oid qilmishlar avvalambor yuridik tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:**

**1. Ma'muriy huquqbuzarliklar.** Yo'l harakati qoidalarining texnik va tashkiliy talablarini buzish bilan bog'liq bo'lib, og'ir oqibatlarini (o'lim yoki tan jarohati) keltirib chiqarmagan holatlarni qamrab oladi (masalan, tezlikni oshirish, svetoforga amal qilmaslik, hujjatsiz boshqarish).

**2. Transport jinoyatlari.** Jinoyat kodeksining 266-moddasiga asosan yo'l harakati yoki transportlardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish natijasida odam o'limiga yoki badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgan harakatlar jinoyat sifatida tasniflanadi.

### **Shuningdek, huquqbuzarliklarning tasnifi ularning sodir etilish mexanizmiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:**

**harakat xavfsizligiga qarshi huquqbuzarliklar:** mast holatda boshqarish, qarama-qarshi yo'nalishga chiqish, quvib o'tish qoidalarini buzish. Bular ijtimoiy xavflilik darajasi eng yuqori bo'lgan qilmishlardir;

**transportning texnik holati bilan bog'liq huquqbuzarliklar:** tormoz tizimi nosoz bo'lgan, oynalari me'yordan ortiq qoraytirilgan yoki texnik ko'rikdan o'tmagan transportdan foydalanish;

**yo'l infratuzilmasidan foydalanish qoidalarining buzilishi:** yo'l belgilariga shikast yetkazish, yo'l qatnov qismida o'zbosimchalik bilan to'siqlar o'rnatish, yo'l ishlarini xavfsizlik choralarisiz olib borish;

<sup>4</sup> Маликова Г.М., Қаҳҳоров А.А. Маъмурий ҳуқуқ; Дарслик / Масъул муҳаррир: И.С. Исмоилов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2019. – 284-287-б.

<sup>5</sup> Раҳимов К.М. Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги маъмурий-ҳуқуқий муносабатларни тартибга солиш: Юрид. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2011. – 14-15-б.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикасида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш тизimini янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 4 апрелдаги 190-қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.04.2022 й., 07/22/190/0273-сон.

<sup>7</sup> Россинский Б.В. Административно-правовые аспекты государственного управления системой обеспечения безопасности дорожного движения: Дисс. ... докт. юрид. наук. – М.: Юрид. ин-т МВД России, 1993. – С. 114-118.

<sup>8</sup> Майоров В.И. Социально-правовые аспекты обеспечения безопасности дорожного движения: Монография. – Челябинск: Челябинский юридический институт МВД России, 1996. – С. 45-48.



piyodalar va boshqa ishtirokchilar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklar: yo'lni belgilanmagan joydan kesib o'tish, velosipedchilarning mast holda harakatlanishi<sup>9</sup>.

**Yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarning ijtimoiy-huquqiy xavfiligi nafaqat ularning yuridik kvalifikatsiyasi, balki jamiyatga yetkazadigan kompleks zarari bilan ham o'lchanadi. Xavfilik darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi<sup>10</sup>:**

yuridik kvalifikatsiyadan ijtimoiy xavfilikka o'tish mezon: odatda huquqbuzarlikka faqat "Kodeks moddasi buzildi" deb baho beriladi. Biroq har qanday mayda qoidabuzarlik (masalan, telefondan foydalinish) zamirida inson hayotiga tahdid yotadi. Bu yerda xavfilik darajasi qog'ozdagi jazo bilan emas, balki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan fojining ko'lami bilan o'lchanadi;

kompleks zarar mezon (Socio-economic cost): yo'l harakati huquqbuzarligi jamiyatga nafaqat ma'naviy, balki jiddiy moddiy zarar ham yetkazadi.

**Bu mezon quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

to'g'ridan-to'g'ri zarar: inson o'limi, tan jarohati, transport va infratuzilmaning shikastlanishi;

egri (bilvosita) zarar: davlatning sog'liqni saqlashga sarflaydigan xarajatlari, ish kuchining yo'qotilishi (nogironlik tufayli), yetim qolgan bolalarga ijtimoiy nafaqalar to'lanishi;

ijtimoiy mas'uliyatsizlik va huquqiy nigilizm mezon: huquqbuzarlikning xavfiligi jamiyatda "tartibsizlik muhiti"ni yaratishida namoyon bo'ladi. Bir kishining qoidani buzib jazosiz qolishi boshqalarda ham qonunga bepisandlik (nigilizm) hissini uyg'otadi va umumiy xavfsizlik madaniyatini yemiradi.

**Xavfilik darajasini aniqlovchi boshqa asosiy mezonlar:**

qilmishning ommaviyligi: qoidabuzarlik qanchalik ko'p takrorlansa, uning jamiyat uchun xavfi shunchalik ortadi;

obyektiv sharoit: aholi gavjum joylarda yoki ta'lim muassasalari oldida sodir etilgan huquqbuzarlik xavfi yuqoriroq baholanadi;

subyektiv munosabat: qoidabuzarlikning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilgani uning ijtimoiy-huquqiy "vaznini" belgilaydi.

Mazkur mezonlar yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashni shunchaki "jarima solish tizimi" emas, balki "inson qadrini va jamiyat barqarorligini himoya qilish tizimi" sifatida talqin qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston qonunchiligida YHXga oid huquqbuzarliklarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning normativ mustahkamlanishi yetarli emas.

**Yangi tahrirdagi "Yo'l harakati to'g'risida"-gi 900-qonun<sup>11</sup> tahlili quyidagi definitson va tasnifiy bo'shliqlarni ko'rsatmoqda:**

atamalarning yo'qligi: qonunchilikda "yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarlik", "yuqori xavfli qoidabuzarlik" va "xavfilik darajasi mezonlari" kabi kategoriyalar ta'riflanmagan;

javobgarlikning universallasuvi: qonunning ayrim moddasi blanket xarakterda bo'lib, huquqbuzarliklarni ijtimoiy xavfilik darajasiga ko'ra tizimlashtirish imkonini bermaydi.

Ushbu bo'shliqlar nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishga, profilaktikada "hamma uchun bir xil yondashuv" tamoyili ustunligiga hamda manzilli ta'sir choralarini qo'llash imkoniyati cheklanishiga sabab bo'lmoqda.

**Birinchidan**, 900-qonunning 4-moddasiga (Asosiy tushunchalar) quyidagi ta'riflarni qo'shish:

"yo'l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarlik – yo'l harakati to'g'risidagi qonunchilik va majburiy texnik talablarni buzishga qaratilgan, shaxs hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va jamoat xavfsizligiga zarar yetkazish real xavfini yuzaga keltiruvchi aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan) ijtimoiy xavfli qilmish;

yuqori xavfli yo'l harakati qoidabuzarligi – sodir etilish mexanizmi, sharoiti yoki takroriyligiga ko'ra inson o'limi yoki og'ir tan jarohati bilan bog'liq yo'l-transport hodisasini keltirib chiqarish ehtimoli yuqori bo'lgan huquqbuzarlik turi;

<sup>9</sup> Раҳимов К.М., Сотиболдиев А.С. Йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш фаолияти: Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2016. – 156-160-б.

<sup>10</sup> Маликова, Г.М. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик / Г.М. Маликова, А.А. Қаҳҳоров. – Т.: ИИВ академияси, 2019. – 512 б. // Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. IV том. Махсус қисм. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2018. – 467-471-б.

<sup>11</sup> <https://lex.uz/docs/6764454>.



yo‘l harakati xavf omili (risk-faktor) – yo‘l harakati tizimidagi (“haydovchi-avtomobil – yo‘l – muhit”) muayyan nuqson, holat yoki sharoit bo‘lib, u huquqbuzarlik sodir etilishi yoki YTH kelib chiqishi ehtimolini bevosita yoki bilvosita amalga oshiruvchi manba hisoblanadi”.

Ushbu taklif kelajakda YTHlar soni va og‘ir oqibatli hodisalarning kamayishiga, xavf darajasiga mutanosib jazo tizimining shakllanishiga hamda haydovchilarda faqat “jarimadan qo‘rqish” emas, balki “xavf omilini anglash” tuyg‘usi shakllanishiga xizmat qiladi.

**Ikkinchidan**, 900-qonunga yangi 4<sup>1</sup>-moddani kiritish:

“4<sup>1</sup>-modda. Yo‘l harakati xavfsizligiga oid huquqbuzarliklarni klassifikatsiyalash va ularning xavflilik darajasini differentsiatsiya qilish

Yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar tizimli profilaktika choralarini qo‘llash va javobgarlikning mutanosibligini ta‘minlash maqsadida quyidagi mezonlar asosida tasniflanadi:

huquqiy tabiatiga ko‘ra: ma‘muriy huquqbuzarliklar va jinoiy qilmishlar;

obyektiga ko‘ra: transportni boshqarish va harakatlanish xavfsizligiga qarshi; transportlarning texnik holati va ekspluatatsiyasiga oid; yo‘l infratuzilmasi va yo‘l xo‘jaligi qoidalari; yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari (piyodalar, velosipedchilar va h.) tomonidan sodir etiladigan;

ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra: past, o‘rta va yuqori xavflilik darajasidagi huquqbuzarliklar;

davomiyligi va takroriylikiga ko‘ra: bir marta, takroriy hamda muntazam (tizimli) ravishda sodir etiladigan;

qayd etish usuliga ko‘ra: vakolatli shaxs tomonidan bevosita aniqlangan hamda maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnikalari orqali qayd etilgan”.

Ushbu taklif kelajakda yuqori xavfli qoidabuzarliklar uchun murosasiz jazo tizimining shakl-

lanishiga, piyoda va velosipedchilar xavfsizligini alohida obyekt sifatida himoya qilishga hamda “surunkali” qoidabuzarlarni aniqlash va ular bilan tizimli ishlashga xizmat qiladi.

Ta‘kidlash joizki, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”-gi qonunning 4 va 4<sup>1</sup>-moddalariga taklif etilayotgan qo‘shimchalar sohadagi huquqiy tartibga solish mexanizmlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Mazkur yangilanishlar zaminida tizimni “reaktiv” (sodir bo‘lgan hodisaga javob berish) yondashuvdan “proaktiv” (xavf-xatarlarni oldindan prognoz qilish va boshqarish) modeliga o‘tkazish konsepsiyasi yotadi.

**Birinchi navbatda** qonunchilikka “yo‘l harakati xavf omili (risk-faktor)” tushunchasining kiritilishi muhim nazariy ahamiyatga ega. Bunda xavfsizlik nafaqat haydovchining xulq-atvoriga bog‘liq hodisa, balki “Haydovchi – avtomobil – yo‘l – muhit” tizimining yaxlit funksiyasi sifatida talqin etiladi. Bu esa YTHlar kelib chiqishida nafaqat inson omilini, balki infratuzilmaviy va texnik nuqsonlarni ham huquqiy javobgarlik obyektiga sifatlantirish imkonini beradi.

**Ikkinchidan**, huquqbuzarliklarni ijtimoiy xavflilik darajasi (past, o‘rta, yuqori) hamda takroriylik bo‘yicha klassifikatsiyalash (4<sup>1</sup>-modda) yuridik javobgarlikning differentsiatsiya va mutanosiblik tamoyillarini to‘liq ro‘yobga chiqaradi. Bunday tizimlashtirish natijasida:

jazoning individuallashuvi: huquqbuzarlik mexanizmi va sharoitidan kelib chiqib, jazo choralarini aniq maqsadga yo‘naltirish;

tizimli profilaktika: qoidabuzarliklarni qayd etish usuli va obyektiga ko‘ra tasniflash orqali “risk-guruh”ga kiruvchi haydovchilar va xavfli yo‘l uchastkalari bo‘yicha manzilli choralar ko‘rish;

huquqni qo‘llash amaliyotining shaffofligi: qaror qabul qilishda subyektiv yondashuvlarni kamaytirish va korrupsiyaviy omillarni cheklash imkoniyati kengayadi.

---

Xulosa qilib aytganda, ushbu normativ o‘zgartirishlar yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklarning yuridik tabiatini aniqlashtirish bilan bir qatorda, sohada inson hayoti va sog‘lig‘i ustuvorligini ta‘minlovchi yangi huquqiy paradigmani shakllantiradi. Bu esa mamlakatda yo‘l-transport jarohatlanishi va o‘lim holatlarini kamaytirishga qaratilgan davlat strategiyasining huquqiy poydevorini mustahkamlaydi.

**Zafar KUVONDIKOV,**

Ichki ishlar vazirligi Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi “Huquqiy fanlar” sikli boshlig‘i, kapitan



# Yolg'on guvohlik uchun javobgarlik: MDH tajribasi

Guvohlik yoki ko'rsatuv berish jinoyat ishlarida muhim rol o'ynaydi. Sud jarayoni va tergovdagi har qanday to'g'ri hamda ishonchli ma'lumotlar jinoyatchilarni aniqlash va adolatli xulosalarga kelish uchun asosiy manba hisoblanadi. Shu bilan birga, yolg'on guvohlik yoki ko'rsatuvlar jinoyat ishlarining xato hal qilinishiga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud hokimiyati faoliyatining g'ayriqonuniy amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin. Buning natijasida haqiqiy jinoyatchilar jazosiz qolishi va davlat organlariga nisbatan ishonchning pasayishi kuzatiladi.

Guvohlik yoki ko'rsatuv berish bilan bog'liq jinoyatlar jinoyat ishini to'g'ri va adolatli hal qilishga bo'lgan tahdidlarni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur mavzudagi ilmiy tahlil jinoyatlarni fosh etish va sud jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur toifadagi jinoyatlar xorijiy davlatlarda ham tergov va sud organlari faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi keng tarqalgan qilmishlardan hisoblanadi. Xalqaro tajribada ushbu yo'nalishdagi bir nechta jinoyat tarkiblari uchun alohida javobgarlik choralari belgilangan.

1-jadval. Guvohlik yoki ko'rsatuv berish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi maxsus normalar bo'yicha qiyosiy tahlil:

Davlatlar/ jinoyat tarkiblari	Yolg'on guvohlik yoki yolg'on ko'rsatuv berish	Ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlash	Ko'rsatuv berishga majburlash	Ko'rsatuv berishga to'sqinlik qilish	Yolg'on ko'rsatuv berishga majburlash	Pora evaziga og'dirish
Armaniston	+	+	+	+	+	+
Belarus Respublikasi	+	+	+	+	+	+
Gruziya	+	+	+			
Moldova	+	+	+		+	+
Ozarbayjon	+	+	+		+	+
Rossiya Federatsiyasi	+	+	+		+	+
Qirg'iz Respublikasi	+	+			+	+
Qozog'iston	+	+	+		+	+
Ukraina	+	+	+	+		
O'zbekiston	+	+	+		+	+

Ma'lumki, yolg'on guvohlik yoki yolg'on ko'rsatuv berish deganda, qasddan guvoh yoki jabrlanuvchining yolg'on ko'rsatuv berishi yoxud ekspertning yolg'on xulosa berishi, shuningdek,

tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilishi kabi harakatlar tushuniladi.

Ushbu sohada xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili milliy qonunchilikdan farq qiluvchi o'ziga



xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, Ozarbayjon (JK 297-moddasi), Armaniston (JK 338-moddasi), Rossiya Federatsiyasi (JK 307-moddasi<sup>1</sup>) va Qirg'iz Respublikasi (JK 364-moddasi<sup>2</sup>) jinoyat qonunchiligida yolg'on guvohlik berish uchun javobgarlik bo'yicha quyidagi rag'batlantiruvchi normalar mavjud:

o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi bila turib yolg'on ko'rsatma bergan shaxs, agar u ushbu shaxslarga qarshi ko'rsatma berishga majburlangan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi (Ozarbayjon);

ko'rsatuv bergan shaxs (guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, mutaxassis yoki tarjimon), agar ixtiyoriy ravishda sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida yoki sud hukmi yoxud qarori chiqarilgunga qadar o'z ko'rsatuvlari, xulosalarining yolg'onligini yoki bila turib noto'g'ri tarjima qilganligini e'lon qilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi (Rossiya Federatsiyasi, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi).

Mazkur xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston Jinoyat kodeksi 238-moddasini quyidagi tahrirdagi rag'batlantiruvchi norma bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Ko'rsatuv bergan shaxs, agar ixtiyoriy ravishda sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida yoki sud hukmi chiqarilgunga qadar o'z ko'rsatuvlarining yolg'onligini yoki bila turib noto'g'ri tarjima qilganligini e'lon qilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi”.

Ko'rsatuv berishga majbur qilish jinoyati masalasida milliy va xorijiy tajribada to'rt xil yondashuv mavjud:

ko'rsatuv berishga majbur qilish shaklida: Belarus Respublikasi<sup>3</sup>, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Moldova va Ukraina;

yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish shaklida: Armaniston va Qirg'iz Respublikasi;

qiynoqqa solish, shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala qilish shaklida: Ozarbayjon va O'zbekiston;

ko'rsatuv berishda bosim o'tkazish shaklida: Gruziya.

Aslida ushbu jinoyatlarning barchasi mohiyatan shaxsni qonunga xilof usullar bilan majburlab ko'rsatuv olish, ya'ni ko'rsatuv olish jarayonida noqonuniy choralarni qo'llashdan iboratdir.

Armaniston va Qirg'iz Respublikasi tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Ularda har qanday ko'rsatuvni berishga majbur qilish uchun emas, balki aynan yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Jumladan, Armaniston Jinoyat kodeksi 341-moddasida<sup>4</sup> quyidagi subyektlar tomonidan tahdid yoki boshqa noqonuniy harakatlar orqali majburlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan:

sudya, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan;

guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchini ko'rsatuv berishga;

ekspertni noto'g'ri xulosa berishga;

tarjimonni noto'g'ri tarjima qilishga majburlash.

Ushbu masalada vakolatli mansabdor shaxslar tomonidan nafaqat yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilish, balki har qanday ko'rsatuvni berishga majburlash, ularga nisbatan turli noqonuniy usullarni, qonunga xilof muomala va jazo choralarni qo'llaganlik uchun ham javobgarlik belgilanishini to'g'ri deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston tajribasini ijobiy baholash mumkin.

Xorijiy davlatlar, xususan, Armaniston, Belarus Respublikasi va Ukraina qonunchiligida belgilangan “ko'rsatuv berishga to'sqinlik qilish” jinoyati ham alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, Belarus Jinoyat kodeksi 403-moddasida guvoh yoki jabrlanuvchining sudga, dastlabki tergov yoki surishtiruv organlariga kelishiga yoxud ko'rsatuvlar berishiga to'sqinlik qilish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Armaniston qonunchiligida ushbu masala yanada aniqroq bayon etilgan. Armaniston Jinoyat kodeksi 337-moddasiga ko'ra, guvohning yoki jabrlanuvchining sudga, dastlabki tergov organlariga kelishiga yoxud ko'rsatuvlar berishiga qo'rqitish, zo'rlik yoki qonunga xilof boshqa ha-

<sup>1</sup> Уголовный кодекс Российской Федерации от 13.06.1996 № 63-ФЗ. // [www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699).

<sup>2</sup> Уголовный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 127. // [www.cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112309](http://www.cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112309).

<sup>3</sup> Уголовный кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-3. // [www.online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=30414984&pos=511;60#pos=511;60](http://www.online.zakon.kz/Document/?doc_id=30414984&pos=511;60#pos=511;60)

<sup>4</sup> Уголовный кодекс Республики Армения от 29 апреля 2003 года № 3P-528. // [www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show](http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show).



Armaniston va Qirg'iz Respublikasi tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Ularda har qanday ko'rsatuvni berishga majbur qilish uchun emas, balki aynan yolg'on ko'rsatuv berishga majbur qilganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Jumladan, Armaniston Jinoyat kodeksi 341-moddasida quyidagi subyektlar tomonidan tahdid yoki boshqa noqonuniy harakatlar orqali majburlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan: sudya, prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan; guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchini ko'rsatuv berishga; ekspertni noto'g'ri xulosa berishga; tarjimonni noto'g'ri tarjima qilishga majburlash.

rakatlar orqali to'sqinlik qilish quyidagi jazolaridan birini qo'llashga sabab bo'ladi:

bazaviy hisoblash miqdorining (eng kam ish haqining) uch yuz baravaridan besh yuz baravari-gacha miqdorda jarima;

uch oygacha qamoq;

ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish.

Ushbu yo'nalishdagi navbatdagi tahlil ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlash, yolg'on ko'rsatma yoki xulosa berish yoxud noto'g'ri tarjima qilish uchun pora berish yoki majburlash jinoyatlariga qaratiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Gruziya va Ukrainadan tashqari deyarli barcha ko'rilayotgan davlatlar jinoyat qonunchiligida mazkur qilmishlar uchun javobgarlik belgilangan.

Jumladan, Ozarbayjon Jinoyat kodeksi 299-moddasida:

guvoh yoki jabrlanuvchiga yolg'on ko'rsatuv berish, ekspertga noto'g'ri xulosa berish yoki tarjimonga noto'g'ri tarjima qilish maqsadida pora berish (birinchi qism);

ushbu shaxslarni yoki ularning yaqin qarindoshlarini qo'rqitish, sog'lig'iga zarar yetkazish yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish orqa-

li yuqoridagi harakatlarga majburlash (ikkinchi qism) uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Qirg'iz Respublikasida esa mazkur jinoyat ikki xil tarkibga ajratilgan holda alohida moddalarda belgilangan:

357-modda: jinoyat protsessi ishtirokchilarini pora evaziga og'dirish;

366-modda: yolg'on guvohlik berishga majburlash.

O'zbekiston tajribasiga e'tibor qaratisa, Jinoyat kodeksi 238-moddasida uchta turli jinoyat tarkibi birlashtirilgan:

yolg'on guvohlik berish;

yolg'on guvohlik berish uchun pora evaziga og'dirish;

yolg'on guvohlik berishga majburlash<sup>5</sup>.

Fikrimizcha, amaliyotda turli talqinlar va tushunmovchiliklarning oldini olish maqsadida ushbu jinoyat tarkiblarini alohida moddalarga ajratish lozim. Ularning xususiyatlari va ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, jazolarni differensiyalash maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qilsa, yolg'on guvohlik yoki ko'rsatuv berish sud va tergov jarayonlarida xato qarorlar qabul qilinishiga hamda noto'g'ri dalillar shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

MDH davlatlarida yolg'on guvohlik va ko'rsatuv berishga qarshi qonunchilik o'xshash bo'lsa-da, ularning samaradorligi va ijro etilishida muayyan farqlar mavjud. Ba'zi davlatlarda qonunlar juda qat'iy bo'lib, yolg'on guvohlik uchun aniq sanksiyalar belgilangan bo'lsa, boshqa davlatlarda sud jarayonlariga ta'sir qiluvchi normalar amalda keng qo'llanilmaydi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatlarning kam hollarda aniqlanishiga va haqiqiy jinoyatchilarning jazosiz qolishiga zamin yaratadi.

Huquqiy mexanizmlar hamda yolg'on guvohlikka qarshi kurashishga qaratilgan profilaktik tadbirlar davlatlar o'rtasida to'liq muvofiqlashtirilmagan. Shu sababli mazkur turdagi jinoyatlarning oldini olish uchun davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish va huquqiy yordam ko'rsatish tizimlarini kuchaytirish strategik zaruriyat hisoblanadi.

**Murodjon ANORBOYEV,**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

<sup>5</sup> <https://www.lex.uz/acts/111453>.



# Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati uchun javobgarlik: tarix, zarurat va xorijiy tajriba

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili o'rtacha 74 mln istalmagan homiladorlik aniqlanadi va shundan 25 mlni xavfsiz bo'lmagan abort hamda 47 ming holatda homilador ayol o'limi bilan yakunlanadi. Dunyo miqyosida har 10 ta homiladorlikdan 3 tasi sun'iy abort bilan tugamoqda, jami abortlarning 45 foizi esa noqonuniy o'tkazilmoqda<sup>1</sup>.

Abort (lot. "abortus" – "bola tashlash") – homilani sun'iy yoki tasodifiy ravishda tushirish, ya'ni homila rivojlanishini to'xtatish. U ikki xil bo'ladi: tasodifiy (spontan) abort (sababi noma'lum yoki tashqi omillar) va sun'iy abort (tibbiy yoki jinoiy yo'l bilan). Sun'iy abortning tibbiy usullari (dorilar, vakuum aspiratsiya), shuningdek, xavfli va xavfsiz turlari mavjud<sup>2</sup>.

"Abortni huquqiy tartibga solish masalasi jamiyatda hamisha bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Bu avvalo ushbu muammoning hal etilishi ikki konstitutsiyaviy ahamiyatga ega qadriyat – yashash huquqi va shaxsiy hayot daxlsizligiga, shu jumladan, homilani sun'iy tushirishga bo'lgan huquqlar muvozanatiga rioya etish muammosi bilan bog'liq"<sup>3</sup>.

Dunyoda turli tarixiy davrlarda homilani sun'iy tushirish masalasiga turlicha qaralgan. Ta'kidlash lozimki, dunyodagi barcha dinlar qoida tariqasida homilani sun'iy tushirishga keskin salbiy munosabat bildiradi.

Rim huquqida homila mustaqil ahamiyatga ega bo'lmagan va bola (in fans) sifatida ko'rilmagan, balki tirik mavjudot bo'lishga umid (spes animantis) sifatida baholangan. Homila daraxt mevasi kabi onasidan ajralmagunga qadar uning bir qismi hi-

soblangan (partus mulieris portio est vel viscerum).

Biroz keyingi davrda qonunlar homilani boshqa jinoiy maqsadlarda, masalan, uning otasini bola tug'ilishidan olishi mumkin bo'lgan manfaatlardan mahrum etish maqsadida tushirish uchun jinoiy javobgarlikni belgiladi<sup>4</sup>.

Homila tushirish bilan bog'liq ta'limot keyinchalik diniy qoidalar ta'sirida jiddiy o'zgarib, garchi barcha holatda bo'lmasa-da, shaxsga qarshi jinoyatlar sifatida ko'rilga boshladi. Homiladorlikning boshlang'ich davrida (40 kunga qadar) homila yetarlicha rivojlanmagan va ruhi yo'q deb hisoblangan va shu bois inson sifatida tan olinmagan. Shunga ko'ra, ushbu muddat ichida homilani tushirish shaxsga qarshi jinoyat (odam o'ldirish) sifatida baholanmagan.

Abort masalasida diniy ko'rsatmalardan kelib chiquvchi yondashuv keyinchalik dunyoviy qonunlarga ham ko'chib o'tdi va homila tushirish hayotga qarshi jinoyatlarning alohida turi sifatida ko'rilishni boshladi. Ayrim mamlakatlarda (Shotlandiya, Misr, Yaponiya) homilani sun'iy tushirish homilador ayolning sog'lig'iga qarshi jinoyat sifatida ko'rilgan.

XVI asrga kelib, ko'plab Yevropa mamlakatlari-da (1524-yilda Angliyada, 1533-yilda Germaniyada, 1562-yilda Fransiyada) homilani sun'iy tushirish

<sup>1</sup> Интернет сайти: <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/abortion>

<sup>2</sup> Тасаков С., Шумилов А. Искусственное прерывание беременности (аборт). Уголовно правовые аспекты // Уголовное право. – 2004. – № 2. – С. 65-69.

<sup>3</sup> Клим А.М. Свентуховская Н.С. История становления и развития уголовно-правовой нормы о незаконном производстве аборта (краткий обзор) // Проблемы правоприменительной деятельности: материалы междунар. науч. конф. (Минск, 1-2 ноября 2018 г.). – Минск: БГУ, 2018. – С. 52-54.

<sup>4</sup> Дядюн К.В. История регламентации уголовной ответственности за преступные посягательства, связанные с репродуктивными аспектами // Общество и право. – 2013. – № 4 (46). – С. 108-115.



odam o'ldirishga tenglashtirilib, o'lim jazosi qo'llanishiga sabab bo'lgan<sup>5</sup>.

XVIII asr oxirida ko'pgina mamlakatlarda turli inqirozlar yuzaga kelib, homilani sun'iy tushirish muammosi tug'ilish muammosi bilan bog'liqlikda tahlil qilinib, keng ijtimoiy xususiyat kasb etishni boshlagan. Ayni shu asrda T. Maltusning aholi hayoti ijtimoiy darajasi pasayishini tug'ilish ko'pligi bilan bog'lovchi maltuzianlik nazariyasi vujudga kelgan.

XVIII-XIX asrlarda xorijiy mamlakatlar qonunchiligida jinoiy abort uchun javobgarlikni yengillashtirish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, mashhur kriminalist Ch. Bekarriyaning "Jinoyatlar va jazolar to'g'risida"gi kitobida (1764-yil) jinoiy aralashuv uchun jazo tayinlashda homilani sun'iy tushirishga qaror qilgan ayolning ruhiy holatini hisobga olish zarur, abortlar profilaktikasi samarali bo'lishi uchun homilador ayolga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish maqsadga muvofiq deb qayd etilgan<sup>6</sup>.

Mamlakatlarning abortlarni qonuniy deb tan olishi va ularni o'tkazishga rasman ruxsat berishi Ikkinchi jahon urushidan keyinga to'g'ri keladi. Masalan, sobiq SSSRda 1955-yilda (1920-1936-yillarda ham abortga ruxsat etilgan, 1936-1955-yillarda abort taqiqlangan), Buyuk Britaniyada 1967-yilda, Daniya va AQSHda 1973-yilda, Shvetsiyada 1974-yilda, Fransiya va Avstriyada 1975-yilda, Germaniyada 1976-yilda, Portugaliyada 2007-yilda, Ispaniyada 2010-yilga kelib abortga ruxsat etilgan<sup>7</sup>.

Yevropa davlatlari orasida faqat Maltada abort to'liq taqiqlangan. Musulmon mamlakatlarda abortga ruxsat beradigan faqat ikkita mamlakat bor: Tunis va Turkiya.

Ko'p davlatlarda abortni qonuniy deb hisoblash va ruxsat etish uchun homilador ayollarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan muayyan talablar belgilangan<sup>8</sup>.

Masalan, Qozog'istonda abort 12 haftagacha bo'lsa qonuniy hisoblanadi. Turkiyada esa abortning qonuniy deb topilishi uchun erning ruxsati talab etiladi (agar ayol turmushga chiqqan bo'lsa). Rossiyada faqatgina zo'rlash holatlari uchun qonu-

niy bo'lib, homila 22 haftagacha bo'lishi lozim. Tunisda abort homiladorlikning birinchi uch oyi davomida qonuniy hisoblanadi. Pokistonda abortga faqat homilador ayolning hayotiga xavf tug'dirsa ruxsat beriladi. Yaponiyada esa 22 haftalik homiladorlikka qadar abortga ruxsat beriladi, abort jarrohlik usulida amalga oshirilsa, erning ruxsati talab qilinadi. Niderlandiyada abort jarayoni bepul va qonuniy hisoblanadi. Fransiya abort huquqini konstitutsiyaviy kafolat ostiga olib kelayotgan birinchi mamlakat sanaladi<sup>9</sup>.

Abort qonuniy yoki noqonuniy bo'lishi mumkin. Abort qonuniy bo'lishi uchun muayyan talablarga javob berishi lozim: homiladorlik muddati 12 haftadan oshmagan bo'lishi kerak, sun'iy homila tushirish faqatgina ushbu faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan tibbiyot tashkilotlarida o'tkazilishi zarur; sun'iy homila tushirish amaliyotini oliy tibbiy ma'lumotga ega shifokor (shifokor-akusher, ginekolog) amalga oshirishi kerak; homilani sun'iy tushirish uchun ayolning xabardor bo'lgan ixtiyoriy roziligi talab etiladi.

Noqonuniy abortga homilani quyidagi shakllarda sun'iy tushirish kiradi: "1) abortni "akusherlik va ginekologiya" yo'nalishlarida tibbiy xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan tibbiyot tashkilotlaridan tashqarida amalga oshirish; 2) abortni qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lgan holda o'tkazish (masalan, kasallik mavjud bo'lsa, homila tushirish sog'liqqa jiddiy shikast yetkazishi yoki hayotga xavf solishi mumkin bo'lsa); 3) abortni homilador ayolga ixtisoslashgan yordam (shu jumladan, reanimatsiyaviy) ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan holda amalga oshirish"<sup>10</sup>, "jarrohlik amaliyotiga ruxsat berish yoki o'tkazish tartibini buzgan holda (zarur sharoitlarsiz, vakolatga ega bo'lmagan shaxs tomonidan) amalga oshirish; homilador ayolni xabardor etmagan holda qilish"<sup>11</sup>.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) uchun jinoiy javobgarlik Jinoyat kodeksining 114-moddasida belgilangan.

<sup>5</sup> Клим А.М. Свентуховская Н.С. История становления и развития уголовно-правовой нормы о незаконном производстве аборта (краткий обзор) // Проблемы правоприменительной деятельности: материалы междунар. науч. конф. (Минск, 1-2 ноября 2018 г.). – Минск: БГУ, 2018. – С. 52-54.

<sup>6</sup> Михайличенко С.И. Предупреждение незаконного производства аборта: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Дисс. ... канд. юридических наук. – М., 2014. – С. 45-46.

<sup>7</sup> Интернет сайты: [www.kp.ru/daily/27096/4169061/](http://www.kp.ru/daily/27096/4169061/)

<sup>8</sup> Саргсян А.А. Новеллы армянского уголовного законодательства в регламентации преступлений в репродуктивной сфере // Лоббирование в законодательстве. – 2025. – Т.4. – №2. Стр. 79-83.

<sup>9</sup> Лозанович Л.А. Незаконное производство аборта: уголовно-правовой и криминологический аспекты: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Ставрополь, 2004. Стр. 89-90.

<sup>10</sup> Попова А.Н. Незаконное производство аборта // Молодой учёный. – 2017. – №15(149). – С.293.

<sup>11</sup> Горбатова М.А. Некоторые проблемы уголовной ответственности за незаконное производство аборта // Вестник ЮУрГУ. – 2013. – №4. – С. 46.



Homilani sun'iy tushurish (abort) to'g'ridan to'g'ri jinoyat emas, balki qonun bilan ruxsat etilgan amaliyot hisoblanadi. Faqat abort qonuniy bo'lishi uchun ayolning xohishiga muvofiq va qonunchilikda belgilangan holatlarda tibbiy muassasada amalga oshirilishi kerak.

Ta'kidlash lozimki, ayrim xorij davlatlarida har qanday abort taqiqlangan. Abort to'liq taqiqlangan davlatlarga Salvador, Honduras, Nikaragua, Filippin, Malta, Andorra, Vatikan, Misr va San-Marino kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin.

Shu bilan birga ayrim davlatlarda, masalan, Braziliyada faqat muayyan, cheklangan shartlar asosida, ya'ni, ayol sog'lig'i yoki hayoti xavf ostida bo'lsa, jiddiy genetik muammo bo'lganda yoki homila nomusga tegish natijasida kelib chiqqan bo'lsa abortga ruxsat etiladi<sup>12</sup>.

Shunday bo'lsa-da, Amerika, Yevropa va Osiyoning aksariyat mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham bu ayollarning ixtiyoriy tanlovi sifatida ko'riladi.

Umuman ushbu masala embrionni inson sifatida tan olish va abortni insonni o'ldirish sifatida baholash bilan bog'liq etika muammosini keltirib chiqaradi. Huquqiy nuqtayi nazardan 22 haftalik muddatdan oshgan homila tug'ruq vaqtida inson sifatida baholanadi va ushbu muddatda uning hayotiga suiqasd qilish odam o'ldirish sifatida ko'riladi. Ushbu muddatda homila ona qornida hayotni boshlaydi. Ko'p mutaxassislar embrion (homila) inson zotiga tegishli ekanini tan oladilar. Embrion(homila)ning insonga aylanish imkoniyati yuqori bo'ladi, chunki urug'lanishdan 13 kundan keyinroq nerv tizimi shakllanishni boshlaydi, homiladorlikning 7-haftasidan uning miyasi intensiv o'sishni boshlaydi<sup>13</sup>.

Shu ma'noda jinoyat qonunida har qanday homila tushirish (abort) emas, balki ushbu harakatni jinoyat ravishda amalga oshirganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Bu borada O'zbekiston sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 12-iyundagi 124-buyrug'i bilan tasdiqlangan Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomda<sup>14</sup> "homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish tibbiyot

muassasalari tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi: homiladorlikning o'n ikki haftagacha bo'lgan muddatida homilador ayolning xohishiga ko'ra; homiladorning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lganda homiladorlik muddatidan qat'i nazar" deb belgilangan.

Ushbu masalada professor Q. Abdurasulova ta'kidlaganidek, "Jinoyat kodeksi 114-moddasi qismining dispozitsiyasida mazkur jinoyat tarkibining mazmuni to'liq ochib berilmagan. Unda faqat ikkita alomatga: birinchisi – jinoyat ravishda homila tushirish (abort)ning obektiv tomoniga tegishli alomat (shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan davolash muassasalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo'lmagan holda sun'iy ravishda homila tushirish), ikkinchisi esa – jinoyat subyektiga tegishli belgi (shifokor akusher yoki ginekolog) ta'riflangan"<sup>15</sup>.

**Umuman olganda jinoyat ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining ijtimoiy xavfliligi bir qator omillarda namoyon bo'ladi, xususan:**

a) ayol va oila salomatligiga ta'siri – jinoyat abort ayolning jismoniy va psixik sog'lig'iga jiddiy, ayrim hollarda tiklab bo'lmaydigan zarar keltirishi, bir umrga nogiron qilib qo'yishi yoki erta o'limiga sabab bo'lishi mumkin; ayolning sog'lig'iga ta'sir oilada psixologik stress, oilaviy ziddiyatlar va bolalarning ijtimoiy muhofazasi bilan bog'liq muammolarni keltirishi mumkin;

b) jamiyat va aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatadi – jinoyat abort natijasida kasalliklar, infeksiyalar va jarohatlar ko'payadi, bu esa sog'liqni saqlash tizimiga ijtimoiy yuk keltiradi; aholi sog'lig'ini ta'minlashda iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar yuzaga keladi;

d) reproduktiv huquqlarni buzadi – ayollarning reproduktiv erkinligi va huquqlarining buzilishi ijtimoiy adolat va gender tengligini susaytiradi; gender tengsizlikka qarshi kurashish va ayollarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilishga salbiy ta'sir qiladi;

e) qonun ustuvorligi va jamiyatda huquqiy madaniyatga salbiy ta'sir qiladi.

**Zulxumor IBROHIMOVA,**

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Odil sudlov akademiyasi doktranti

<sup>12</sup> Бурцева В.В. Искусственное прерывание беременности как способ реализации и нарушения репродуктивного права женщины: уголовно-правовой взгляд на проблему // Юридические исследования. – 2024. – №9. Стр.18-19.

<sup>13</sup> Акушерство: учебное пособие / Ю.К.Малевиц [и др.]; под общ. ред. Ю.К.Малевица. – Минск: Беларусь, 2017. Стр. 511.

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг 2020 йил 12 июндаги "Ҳомилadorликни сун'ий равишда то'xtатишни амалга ошириш тартиби то'ғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида"ги 124-буйруғи (Адлия вазирлиги томонидан 2020 йил 30 июнда рўйхатдан ўтказилган, рўйхат рақами 3274) // www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.

<sup>15</sup> Абдурасулова Қ.Р. Махсус субъектлик жиноятларни квалификация қилиш масалалари // Жамият ва инновациялар. – 2023. – №4. 164-165-бетлар.



# Nodavlat tashkilot mansabdor shaxsining VAKOLATINI SUIISTE'MOL QILISHI TUSHUNCHASI

O'tgan davr mobaynida odil sudlov tamoyillarini rivojlantirish, sud ish yurituvini hamda ishlarni ko'rib chiqish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish muhim vazifalardan biri bo'lib keldi. Xususan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbekistonning 2015-yil 20-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 391-qonuni bilan nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilish jinoyati O'zbekiston Jinoyat kodeksining 192<sup>11</sup>-moddasida mustahkamlab qo'yildi.

Ushbu ijtimoiy xavfli qilmishning mohiyatini tushunish uchun avvalo nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansab vakolatini suiiste'mol qilish tushunchasini yoritib, so'ng mazkur normani jinoyat huquqiy belgilari orqali tahlil qilsak.

O'rganilayotgan jinoyat "mansabdorlik jinoyati" ekanini hisobga olsak, bu turdagi jinoyatlarda qilmishning aynan "mansab vakolati" bilan bog'liq ekani asosiy xususiyatidir. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mansabdorlik jinoyatlari – mansabdor shaxs tomonidan uning mansab vakolati bilan belgilangan majburiyatlarini buzishi oqibatida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamiyat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishidir<sup>1</sup>. Mansabdorlik jinoyatlari mansabdor shaxsning mansab vakolatlarini bilan belgilangan imkoniyatlardan foydalanib biror bir harakatni, o'z manfaatini ko'zlagan holda bajarishi yoki bajarmasligi yoxud o'z vazifa va majburiyatlariga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'lishi orqali sodir etiladi<sup>2</sup>. Lekin qilmishning shu elementini, ya'ni "mansab vakolati"ni aniqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Qonunchilikda ushbu tushuncha faol qo'llanilishiga qaramasdan normativ-huquqiy hujjatlarda uning yuridik ta'rifi mavjud emas. M.

Rustambayev ta'rifiga ko'ra, mansab vakolati deganda shaxs egallayotgan lavozimi tufayli ega bo'lgan huquq va majburiyatlar tushunilishi kerak<sup>3</sup>. Rossiyalik huquqshunos G. Chebotaryov "mansab vakolati – subyektning korxonaning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquq va majburiyatlari to'plami" deb ta'riflaydi<sup>4</sup>.

Shunday qilib, nodavlat tijorat tashkiloti yoki nodavlat tashkilot mansabdor shaxsi mansab vakolati tushunchasini tahlil qilib shuni tushunishimiz mumkin, ushbu tashkilotlarning mansabdor shaxsi ma'lum funksiyalarni amalga oshirish davomida uning vakolatlarini tashkil etuvchi huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi. Mana shu ega bo'lgan huquq va majburiyatlar to'plami nodavlat tijorat tashkiloti yoki nodavlat tashkilot mansabdor shaxsining mansab vakolatini tashkil etadi. Nodavlat tijorat tashkilot yoki nodavlat tashkilot mansabdor shaxsi vakolatlarini qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ularga zid bo'lmagan tashkilot ustavi, shartnoma orqali aniqlanishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 192<sup>11</sup>-moddasida nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishning umumiy yoki maxsus shakllari ko'rsatib o'tilmagan. Ayni paytda mansab vakolatini suiiste'mol qilishning ba'zi shakllari O'zbekiston Oliy sudi plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-qarorida keltirilgan: tovar-moddiy boyliklarning kamomadi yoki uni yashirish holatining o'zigina; o'zganing mulkidan o'zinikiga aylantirib olish maqsadisiz vaqtincha foydalanish; o'zganing mulkini qarzga berib yuborish.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish deganda mansabdor shaxsning mansab mavqeyidan kelib

<sup>1</sup> Ахоров Б.Д. Мансабдорлик жиноятлари учун жиноий жавобгарлик. ТДЮИ. Тошкент – 2007 й.

<sup>2</sup> Пахомов И. Н. Виды советских государственных служащих, их права и обязанности. – Львов, 1965. С. 55-57.

<sup>3</sup> Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi (umumiy qism). Oliy o'quv yurtlari uchun dasrluk. – T.:TDYI nashriyoti. 2006. 529-bet.

<sup>4</sup> Чеботарёв Г.Н. Муниципальное право Российской Федерации: Учебно-методический комплекс. – Тюмень: Изд-во ТГУ, 2001; с. 79.



chiqqan va bu shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, biroq o'z mazmuni bo'yicha tegishli organning faoliyat olib borishidan ko'zlangan maqsad va vazifalarga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim<sup>5</sup>.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkiloti boshqaruvi, mavqeyiga putur yetkazish, o'zganing mulkini talon-toroj qilishni yashirish; turli mulkiy talon-torojlarni amalga oshirish; tashkilot mulki hisobidan, uni tortib olmasdan g'arazli foyda olish, alohida fuqarolarga tegishli mulk hisobiga g'ayriqonuniy boyish va boshqalardan iborat.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish shakllari (mansabdor shaxslarning faoliyati sohasi) turlicha bo'lishi mumkin. Bu bo'ysunuvchilarning mehnatidan shaxsiy manfaatlar yo'lida g'ayriqonuniy foydalanish (masalan, ishchilarning shaxsiy dala hovlilar qurilishida, uylarni ta'mir qilishda); qo'l ostidagi xodimlarning mehnatini o'zlashtirib olish; turarjoy taqsimotida suiiste'mol qilish; tashkilotning umumiy ehtiyojlariga mo'ljallangan moliya va kreditni g'arazli yoki boshqa past niyatda boshqa tashkilotlarga g'ayriqonuniy berib yuborish; tashkilotning mablag'larini behuda sarflash, shu jumladan, shaxsiy yoki guruh maqsadlarida xizmat faoliyati uchun taqdim etilgan xonalar, transport va aloqa, elektron-hisoblash texnikasi, pul va boshqa mulkdan foydalanish va boshqalar<sup>6</sup>.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish haqida ko'proq aniq fikrlarni S. Avdeyev ta'kidlagan. Uning ta'kidlashiga ko'ra, mansab suiiste'moli normasi aksariyat hollarda davlat yoki tashkilotlarga katta miqdorda mulkiy zararlar yetkazilganda kuzatiladi va davlat manfaatlarini, xo'jalik boshqaruvi tizimini, ayrim fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish jarayonida sansalorlikka yo'l qo'yilganda ham kuzatiladi. Buning sababini esa huquqni qo'llash amaliyotining kamchiligi deb hisoblaydi<sup>7</sup>.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib hamda amaldagi qonun tahririga asoslangan holda nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi jinoyatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat

tashkilotida mansabdor shaxslarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi deganda nodavlat tijorat tashkiloti yoki nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsining mansab vakolatidan kelib chiqadigan va bu shaxs egallagan lavozimi vakolatiga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, biroq mazmuni bo'yicha tashkilotning faoliyat olib borishidan ko'zlangan maqsad va vazifalarga, qonuniy manfaatlariga zid keluvchi harakatlarini tushunish lozim.

O'zbekiston Jinoyat kodeksi 14-moddasi 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi<sup>8</sup>.

Ushbu moddani tahlil qilar ekanmiz, unda quyidagi jinoyat belgilari sanab o'tilganligiga guvoh bo'lamiz: ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, aybning mavjudligi, jazoga sazovorlik<sup>9</sup>.

Biz tahlil qilayotgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: 1) Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan iqtisodiy munosabatlarga zarar yetadi; 2) nodavlat tijorat tashkilotlari yoki tashkilotlarning normal faoliyat yuritishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; 3) fuqarolar yoki tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini yoki jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining jiddiy buzilishiga olib keladi; 4) mansabdor shaxsning harakatlari natijasida nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkiloti obro'sizlanadi.

Shuningdek, qilmishning ijtimoiy xavfliligi jinoyatni tasniflashning bir mezonini hisoblanadi. Mazkur jinoyat ijtimoiy xavfliligiga ko'ra, (uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar turkumiga kiradi. Xususan, jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi sudlar tomonidan jazo tayinlanishida ham hisobga olinadi<sup>10</sup>.

Jinoyatning navbatdagi belgisi huquqqa xiloflik hisoblanadi. Huquqshunos M. Rustambayev unga quyidagicha ta'rif bergan: huquqqa xiloflik deganda qilmishni Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddalari orqali taqiqlash tushuniladi, ya'ni shaxs jinoyat qonuni taqiqlagan harakatni sodir qiladi yoki qonunda bajarilishi shart deb ko'rsatilgan harakatni bajar-maydi (harakatsizlik)<sup>11</sup>.

<sup>5</sup> Рустамбаев М.Х., Ахраров Б.Ж. Бошқарув тартибига қарши жиноятларни квалификация қилиш. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДҲИ нашриёти, 2006. 134-бет.

<sup>6</sup> Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga qarshi jinoyatlar. Ilmiy-amaliy risola. Mas'ul muharrir: y.f.d., professor Zufarov R.A. –T.: TDYU, 2016. 102-b.

<sup>7</sup> Авдеев С.В. Злоупотребление должностными полномочиями: уголовно правовой и криминологический аспекты. Автореф. Дисс.кан.юр.наук. – М. 2006. Стр. 17-18.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 14-modda. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

<sup>9</sup> Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-jild. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 441-bet

<sup>10</sup> Oliy sud plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

<sup>11</sup> Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-jild. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 441-bet.



Demak, huquqqa xiloflik Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi normalarda ko'rsatilgan qilmishni jinoyat deb ta'riflashni anglatadi. Shu asosda jinoyat huquqbuzarlikdan farq qiladi. Jinoyat faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi.

Biz tahlil qilayotgan qilmish yuqorida ta'kidlaganimizdek, Jinoyat kodeksi 192<sup>11</sup>- moddasida mustahkamlangan. Ushbu modda 2015-yil 20-avgustdagi 391-qonun bilan Jinoyat kodeksiga kiritilgan.

Nodavlat tijorat tashkilotida yoki boshqa nodavlat tashkilotida mansabdor shaxslar tomonidan vakolatlarini suiiste'mol qilish jinoyatini sodir etish orqali Jinoyat kodeksi Maxsus qismining normasi bilan taqiqlangan harakatni bajaradi, ya'ni Jinoyat kodeksi bilan himoyalangan nodavlat tijorat tashkilotlari yoki tashkilotlarning normal faoliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazadi.

Tahlillarimizdan shuni ko'rish mumkinki, ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik jinoyatning asosiy va bir-biriga aloqador belgilari hisoblanadi. Jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisining mavjud emasligi, o'z navbatida, huquqqa xiloflikning mavjud emasligini bildiradi, ya'ni faqat jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli deb topilgan qilmishlarga huquqqa xilof hisoblanadi.

Ayb jinoyatning belgisi sifatida shuni anglatadiki, birinchidan, shaxs o'zi sodir qilgan ijtimoiy xavfli qilmish va uning natijasida kelib chiqqan ijtimoiy xavfli oqibat uchun aybi mavjud bo'lgan taqdiridagina jinoiy javobgarlikka tortiladi, ikkinchidan, aybsiz holda zarar yetkazganlik uchun shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi<sup>12</sup>.

Bundan kelib chiqadiki, shaxs huquqqa xilof ijtimoiy harakat sodir etganda bunga ruhiy munosabatini bildiradi. Bu munosabat jinoyat qonunchiligida ayb deb nomlanadi.

Jinoyat kodeksi 192<sup>11</sup>-moddasining dispozitsiyasiga asosan ayb shakli mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, ya'ni nodavlat tijorat tashkiloti yoki boshqa nodavlat tashkilot mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishida namoyon bo'ladi.

Jinoyat kodeksi 10-moddasida qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shartligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, shaxs jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish orqali ijtimoiy xavfli qilmish sodir etib, o'zining jazoga sazovor ekanligini bildiradi. O'z navbatida har bir jinoyat uchun qonunda ma'lum bir jazo (sanksiya)

nazarda tutilgan. Normaning dispozitsiyasi va sanksiyasi yoki huquqqa xilofligi va jazoga loyiqligi bir butunlikni tashkil etadi. Biroq har bir jinoiy-huquqiy normada mavjud bo'lgan jazo tahdidi sodir etilgan jinoyat uchun majburiy jazo tayinlanishini anglatmaydi. Muayyan holatlarda boshqa huquqiy ta'sir choralari ham qo'llanilishi mumkin, shuningdek jazodan ozod qilish ham mumkin.

Tahlil qilayotgan jinoyatimiz uchun Jinoyat kodeksi 192<sup>11</sup>-moddasida bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha jarima, uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari, bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan.

Ushbu modda uchinchi qismida rag'batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo'lib, aybdor yetkazilgan moddiy zararni qoplagan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanmasligi belgilab qo'yilgan.

Fikrimizcha, ushbu qilmishga nisbatan rag'batlantiruvchi norma qo'llanilishi joiz emas. Birinchidan, 192<sup>11</sup>-moddaning subyektini mansabdor shaxs ekanligi uning ijtimoiy xavfliligini oshiradi. Ikkinchidan, mazkur jinoyatning subyektini odatda asosiy maqsadi daromad olish bo'lgan tijorat tashkilotining mansabdor shaxsi hisoblanadi. Shu bois u moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ko'p miqdordagi, shuningdek ikkinchi qismida ko'rsatilgan juda ko'p miqdordagi zararni moddiy jihatdan qoplash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Natijada yetkazilgan zararni qoplash orqali nisbatan yengilroq jazo tayinlanishiga erishadi. Bu esa bunday ijtimoiy xavfli qilmishning takroran sodir etilish ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati natijasida davlat hokimiyati organlari yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek nodavlat tijorat tashkilotlari hamda boshqa nodavlat tashkilotlarning normal faoliyat ko'rsatishiga jiddiy putur yetadi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlariga esa sezilarli zarar yetkaziladi. Bu holat O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish jarayonida hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish, shuningdek iqtisodiy va xo'jalik yuritish mexanizmlarini yangilash sharoitida rahbar shaxslar hamda barcha mansabdorlarning mas'uliyatini yanada oshirish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

**Sadoqat XOLMATOVA,**

Adliya vazirligining Huquqiy axborot boshqarmasi katta maslahatchisi

<sup>12</sup> Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 1-jild. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan - T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 441-bet.



# Mehnat jamoasida inson huquqlarini ta'minlashda kasaba uyushmasining o'рни va ahamiyati

Bugungi kunda davlatimizda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, byurokratik to'siqlarning oldini olish va ularni bartaraf etish, inson manfaatlarini ustuvor qo'yish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, fuqarolarning mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitida faoliyat yuritish, vaqtda dam olish, keksalik davrida munosib pensiya yoki nafaqa olish, shuningdek, ehtiyojmand aholi qatlamining ijtimoiy himoya choralariidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ushbu islohotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonning ijtimoiy va huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lib, inson manfaatlarini ustuvor demokratik jamiyatni shakllantirishga qaratilgan ezgu maqsad va tamoyillarini ifodalaydi.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida jamoat birlashmalari sonini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ochiqlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda aholining huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish maqsad qilangan.

Avvalo jamoat birlashmalariga to'xtalamiz.

Konstitutsiyamizning 70-moddasida O'zbekistonda kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi deb qayd etilgan<sup>1</sup>.

Mazkur normada qayd etilgan kasaba uyushmalari Konstitutsiyaga muvofiq xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifoda etuvchi hamda himoya qiluvchi tashkilot hisoblanadi. Ya'ni, kasaba uyushmasi fuqarolarning kasbiy faoliyati yoki ta'limi bilan bog'liq umumiy manfaatlarini ifodalash, mehnatga oid va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish maqsadida tuziladigan, ustav asosida faoliyat yurituvchi ixtiyoriy jamoat

birlashmasidir.

Zamon talablari asosida sohaga oid qator qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinib, amaldagilari takomillashtirildi. Natijada mehnat jamoalarida xodimlarning mehnat jarayonida zarur huquqlarini ta'minlash tizimi izchil rivojlanib bormoqda.

Kasaba uyushmalarining bugungi kundagi ahamiyati, xodimlar mehnatini muhofaza qilishdagi samaradorligi, kecha va bugungi holati hamda rivojlantirish yo'nalishlari yuzasidan qo'shimcha takliflar doirasida fikrlar bayon etiladi.

Bundan o'n, o'n besh yillar oldin xodimlar mehnat jamoasida kasaba uyushmasining o'rnini deyarli sezishmasdi, hattoki kasaba uyushmasiga a'zo bo'lish maqsadida ariza yozib, buning uchun oylik ish haqidan to'lanadigan bir foizlik a'zolik to'lovlarini to'lashni odatiy holat deb tushunishardi. Uning afzalliklaridan, imtiyozlaridan foydalanish mumkinligini bilishmasdi. Buni ikki tomonlama tushunish mumkin, ya'ni bu imtiyozlar haqida idoradagi boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkiloti boshlig'i tushuntirmasdi yoki tushuntirishsa ham xodimlarning huquqlaridan foydalanishi odatiy tusga kirmagandi.

Bugungi kunga kelib aholining huquqiy ongi va madaniyati zamonga hamnafas tarzda yuksalib borayotganligi sababli kasaba uyushmasining deyarli barcha imkoniyatlaridan foydalanib kelmoqda.

Kasaba uyushmalari ularning birlashmalari, bo'linmalari va boshlang'ich tashkilotlari ish joylarida ish beruvchilarning mehnat to'g'risidagi qonunchilik talablariga va mehnatni muhofaza qilish

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 30.04.2023 й., 70-модда, <https://lex.uz/docs/6445145>.



qoidalariga, shuningdek jamoa kelishuvlari hamda jamoa shartnomasi, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qoʻmitasi bilan kelishilgan holda qabul qilingan boshqa hujjatlar qoidalariga rioya etishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqiga egadir<sup>2</sup>.

Hozir Oʻzbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi 14 ta tarmoq kasaba uyushmasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahar kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmalarini, 6,1 mlndan ortiq kasaba uyushmalari aʼzolarini birlashtiradi, shuningdek federatsiya tasarrufida 9 ta tashkilot mavjud.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq respublikadagi yangi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda nodavlat notijorat tashkilotlarini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratila boshlandi. Xususan, ilk qonunlardan biri “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari toʻgʻrisida”gi qonun boʻlib, mamlakatimizdagi eng omamaviy jamoat tashkilotlaridan biri boʻlgan kasaba uyushmalarining huquqiy maqomini belgilab berdi.

Kasaba uyushmalari tashkilotlariga mehnatkashlardan tushayotgan murojaatlarning 60 foizdan ortigʻi mehnat munosabatlariga oid boʻlib, federatsiya tizimida tashkil etilgan 30 ta “Ishonch telefoni” mazkur murojaatlarni tezkor qabul qilish va koʻrib chiqish, ular yuzasidan huquqiy maslahatlar berish va aniq choralarni koʻrish imkoniyatini yaratdi<sup>3</sup>.

Shu oʻrinda imkoniyatlar bilan bir qatorda kamchiliklar ham bor. Masalan, xodimlarning sanotiriyalarda sogʻliqlarini tiklashlari uchun yillab navbatda turishlari, hattoki ayrim xodimlarning navbati yetmasdan pensiyaga chiqib, boshqa ishga oʻtib yoki boshqa vaziyatlarda ishdan boʻshab ketish holatlari ham yoʻq emas. Bu esa ishonchsizlikning yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Boshlangʻich kasaba uyushmasi tashkiloti rahbarining aynan shu idora rahbari boʻysunuvda mehnat faoliyatini olib borishi ayrim hollarda manfaatlar toʻqnashuviga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda u xodimlar manfaatidan koʻra ish beruvchining yozilmagan (ogʻzaki) koʻrsatmalariga tayanib qaror qabul qilishi ehtimoli yuzaga keladi. Natijada esa xodimlar manfaatlari ikkinchi darajaga tushib qolish xavfi ortadi. Masalan, Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismi beshinchi bandiga muvofiq ish beruvchining tashabbusi bilan xodim mehnat majburiyatlarini bir marta qoʻpol ravishda buzganligi sababli mehnat shartnomasini bekor qi-

lish masalasi yuzasidan kasaba uyushmasi tashkilotiga taqdimnoma kiritilganda, qaror qabul qilish jarayonida shaffoflik tamoyiliga rioya etilmasligi xodim huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Bunday holatlarda xodimning qonuniy manfaatlari yetarli darajada himoya qilinmaydi va natijada ortiqcha ovoragarchiliklar yuzaga keladi. Albatta, xodim oʻz huquqlarini tiklash maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishi mumkin, biroq bu jarayon davomida uning maʼnaviy zarar koʻrishi, vaqt ketishi va sogʻligʻiga salbiy taʼsir yetishi ehtimoli ham eʼtibordan chetda qolmasligi lozim.

Shu nuqtayi nazardan taʼkidlash joizki, mehnat jamoalarida kasaba uyushmasi tashkiloti raisini aynan oʻsha korxonada ish beruvchisining boʻysunuvdan alohida faoliyat yuritish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq, shu jumladan Vazirlar Mahkamasining 57-qarori bilan tasdiqlangan Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomga koʻra, agar kasaba uyushmasini alohida nodavlat notijorat tashkiloti sifatida roʻyxatdan oʻtkazadigan boʻlsak tashabbuskor fuqarolar roʻyxati, yaʼni kamida uch ming kishining roʻyxati taqdim qilinishi lozim boʻladi<sup>4</sup>.

Mazkur qarorda belgilangan talablarni qayta koʻrib chiqqan holda kasaba uyushmasi tashkiloti faoliyat yurituvchi barcha muassasa, idoralarda xodimlarning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishini taʼminlash uchun birinchi navbatda kasaba uyushmalarini alohida institutga aylantirish lozim.

Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, fuqarolarning kasaba uyushmalariga birlashish huquqini amalga oshirish, shuningdek kasaba uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini tashkil etish sohasida inson manfaati, xodimlarning huquqlari taʼminlanishida albatta kasaba uyushmasining oʻrni alohida hisoblanadi. Demak, kasaba uyushmasi tashkiloti mustaqilligini taʼminlash orqali biz ochiqlik va shaffoflikni taʼminlagan holda “Avval inson, keyin jamiyat va davlat” degan gʻoyani ilgari surgan boʻlamiz.

**Nurya BERDINIYAZOVA,**

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Adliya vazirligining huquqiy axborot shoʻbasi boshligʻi, I darajali yurist, Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistratura bosqichi, xalqaro boshqaruv yoʻnalishi 2-kurs tinglovchisi.

**Biybinaz OPAYEVA,**

fuqarolik ishlari boʻyicha Nukus tumanlararo sudi sudyasi

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси, 28.10.2022 й., 540-модда, <https://lex.uz/docs/6257288>.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерациясининг портали, <https://kasaba.uz/uzbekiston-kasaba-uyushmalari-federatsiyasining-tarihi-2/>.

<sup>4</sup> Вазирлар Маҳкамасининг 57-қарори билан тасдиқланган Нодавлат нотижорат ташкilotларини давлат рўйхатидан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом, 13-банд, <https://lex.uz/docs/2356876>.



# Bukmekerlik faoliyatining vujudga kelishi: qadimgi zamonlardan raqamli davrgacha

Bukmekerlik faoliyati dunyo bo'ylab keng tarqalgan ommabop qimor o'yinlari tarmog'i bo'lib, ko'plab odamlar undan daromad manbayi sifatida foydalanadi. Bukmekerlik yuqori soliq to'lovchisi hisoblanib, davlat budjetiga ham katta daromad keltiradi. Ammo ushbu faoliyat jarayonida uning xizmatlaridan foydalanuvchi shaxslar bilan bog'liq salbiy holatlar ham bo'lib, buning natijasida ko'plab odamlar jabr ko'rgan.

Harris, Holden va Fried tadqiqotlariga ko'ra sport va qimor o'yinlari o'rtasidagi bog'liqlik ommaviy musobaqalar paydo bo'lgan ilk davrlarga borib taqaladi. Antik sivilizatsiyalar davridayoq sport musobaqalariga garov tikish amaliyoti bo'lgan. Ushbu tadqiqotchilar bukmekerlik tarixini quyidagi davrlarga ajratib tahlil qilishgan:

**Miloddan avvalgi 4000–3000-yillar:** qadimgi Misrda suyak o'yinlari, stol o'yinlari hamda jangovar mahorat talab etadigan aravalar poygasi va qilichbozlik kabi musobaqalarga garov tikilgan. Arxeologik qazilmalardan topilgan materiallar ushbu davrda odamlar o'rtasida garov tikish odati bo'lganini tasdiqlaydi.

**Miloddan avvalgi 800–700-yillar:** qadimgi Gretsiyadagi Olimpiya o'yinlari davrida sportga pul tikish amaliyoti keng tarqalgan edi. Sport tadbirlarining institutsional shakllanishi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi 776-yilda asos solingan Olimpiya o'yinlari kabi tashkil-lashtirilgan sport tadbirlari sezilarli darajada garov tikish faoliyatini o'ziga jalb qilgan.

**Qadimgi Rim davri:** musobaqa va poygalarga garov tikish kundalik hayotning bir qismiga aylangan. Rimliklar ayniqsa aravalar poygasiga garov tikishni afzal ko'rishgan. Garchi qimor o'yinlari vaqti-vaqti bilan qonunan taqiqlangan bo'lsa-da,

bayram kunlari istisno tariqasida ruxsat berilgan<sup>1</sup>.

Qadimgi Rimda garov tikish tizimi avvalo gladiatorlar jangi va "Circus Maximus" hamda Kolizey kabi maydonlarda o'tkazilgan arava poygalari misolida shakllandi. Ushbu tadbirlarning institutsionallashuvi natijasida garov tikish keng tarqaldi va "Lex aleatoria" nomli qonun orqali huquqiy jihatdan tartibga solindi. Gladiatorlar jangi keng omma uchun ko'ngilochar tadbir sifatida xizmat qilgani sababli odamlar ularning natijasiga qarab sodda shaklda garov tikkan.

O'rta asrlarga kelib bukmekerlikni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari shakllana boshladi. Yevropa hukmdorlari qimor sohasini nazorat qilishga oid bir qator farmon va ediktlar chiqarishgan. Xususan, 1254-yilda Fransiya qiroli Lyudovik IX mamlakat hududida qimor o'yinlarini qat'iy taqiqlovchi hamda qonunbuzarlarga nisbatan tan jazosini (darralash) qo'llashni nazarda tutuvchi edikt e'lon qildi.

1710-yilda Angliya qirolichasi Anna qimor o'yinlari natijasida kelib chiqqan qarzlarni "or-nomus masalasi" sifatida baholab, ularni huquqiy oqibatlar va majburiy undirish mexanizmlaridan mahrum etdi. Ushbu qarorlar davlat hokimiyatining qimor faoliyatiga nisbatan qat'iy munosabatini yaqqol ifodalaydi.

Aytish mumkinki, barcha zamon va makonlar-

<sup>1</sup> Business of Sports Betting epub. The by Becky Harris, John T Holden, Gil Fried. "A brief history of sports betting".



da qimor o'yinlarining ommaviy tarqalishi va keng yoyilishini cheklashga qaratilgan taqiqlar amal qilgan.

Zamonaviy ko'rinishdagi bukmekerlik instituti XVIII asrda Angliyada shakllangan. Aynan shu davrda ot poygalari va boshqa sport musobaqalari bo'yicha kotirovkalar (garov shartlari)ni taklif etuvchi ilk professional subyektlar faoliyat yurita boshladi.

Qimor o'yinlari va garov tikish amaliyotining izchil rivojlanishi tabiiy ravishda bukmekerlik institutining vujudga kelishiga olib keldi. Mazkur sohaning shakllanishi 1766-yilda Richard Tattersoll tomonidan garovlarni qabul qilish amaliyotining yo'lga qo'yilishi bilan bog'liq. U Londondagi "Hyde Park Corner" yaqinida ot savdosi va garov tikish uchun mo'ljallangan maxsus binolarni tashkil etib, garov tikish tizimiga asoslangan ilk ixtisoslashgan markazlarga asos soldi.

1790-yilda Villiam Ogden garovlarni qabul qilishning yanada takomillashtirilgan tizimini joriy etdi. U har bir ot uchun oldindan koeffitsiyentlarni belgilash tizimini yaratdi va bu zamonaviy bukmekerlik faoliyatining asosini tashkil etdi. Aynan shu davrda tikilgan mablag' va kutilayotgan yutuq o'rtasidagi nisbat – ilk koeffitsiyentlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

### Sohaning institutsional rivojlanish bosqichlari:

**1850-yil:** Leviatan Devis va Fred Svindell Londonda birinchi ixtisoslashgan garov tikish punktini (betting shop) tashkil etishdi. Ular sport tahlillari asosida prognozlar tayyorlash va yutuq ehtimoli ko'rsatilgan axborot varaqalarini tarqatish tizimini yo'lga qo'ydilar.

**1865-yil:** Jozef Oller (Joseph Oller) Parijda birinchi tikish pulini (pari-mutuel betting pool) yaratdi va o'yinchilardan garovlarni qabul qiluvchi markaziy kassani ochdi. Oller ixtiro qilgan "pari-mutuel" tizimi barcha garovlarni umumiy fondga yig'ish va g'oliblar o'rtasida taqsimlash tamoyiliga asoslangan edi. Ushbu loyihaning iqtisodiy muvaffaqiyati shunga o'xshash boshqa jamg'armalarning ko'payishiga xizmat qildi<sup>2</sup>.

**XIX asr oxiri:** mazkur sohaning keng ko'lamli rivojlanishi natijasida Fransiya, Buyuk Britaniya

va va boshqa mamlakatlarda pul tikish faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi ilk qonun hujjatlari qabul qilindi.

XIX asr o'rtalariga kelib mijozlar (punterlar) va bukmekerlar o'rtasidagi to'lanmagan yutuqlar bo'yicha nizolar, shuningdek, davlat soliq daromadlariga oid xavotirlar huquqiy murakkabliklarni keltirib chiqardi. Bu holat bir qancha qonun hujjatlarini ishlab chiqishni taqozo etdi.

1845-yilda qabul qilingan "O'yinlar to'g'risida gi akt" (Gaming Act 1845) garov tikishni to'g'ridan to'g'ri qonunga xilof deb e'lon qilmagan bo'lsa-da, uni huquqiy majburiy kuchdan mahrum etib, aholini bunday tavakkalchiliklardan tiyishni maqsad qildi. 1853-yildagi "Tikish to'g'risidagi akt" (Betting Act 1853) esa garov tikish yoki o'yin maqsadida har qanday mulkdan foydalanishni jinoyat sifatida belgilab, amalda ippodromdan tashqari barcha garov tikish faoliyatini taqiqladi. Biroq mazkur cheklovlar qimor o'yinlarini jilovlash o'rniga nazorat qilinmaydigan ko'cha qimorining keskin o'sishiga sabab bo'ldi.

XX asr boshlariga kelib, Yevropa bo'ylab turli sport turlari va tadbirlari uchun bukmekerlar faoliyat yurita boshladi. Ularning eng qadimiylari quyidagilardir:

**"Littlewoods" (1923):** 1923-yilda Buyuk Britaniyaning Liverpul shahrida "Littlewoods" kompaniyasi ta'sis etildi va o'z faoliyatini pochta orqali garovlarni qabul qilish bilan boshladi. Uch do'st har biri 50 funt sterling miqdorida sarmoya kiritib, 4000 ta kupon chop etdilar va ularni "Manchester Yunayted"ning "Old Trafford" stadioni yonida tarqatdilar. Kompaniyaning eng keng tanilgan o'yini "Treble Chance" bo'lib, unda ishtirokchilar kelgusi dam olish kunlaridagi futbol uchrashuvlari uchun prognoz amalga oshirishlari mumkin edi.

**"William Hill" (1934):** 1934-yilda Buyuk Britaniyada tashkil etilgan ushbu brend uzoq yillar davomida qimor o'yinlari va sport garovlari industriyasining yetakchi hamda tan olingan subyektlaridan biri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Tashkil etilgan davridan boshlab kompaniya turli sport tadbirlari, jumladan, ot poygalari, futbol va boshqa ko'plab sport turlariga garov tikish xizmatlarini taqdim etib kelgan. Vaqt o'tishi bilan

<sup>2</sup> <https://regulatedunitedeurope.pages.dev/blog/history-of-sports-betting/>



“William Hill” o‘z operatsion faoliyatini sezilarli darajada kengaytirib, kazino, poker va boshqa azart o‘yinlarini o‘z ichiga olgan diversifikatsiyalangan xizmatlar majmuasini shakllantirdi.

1960-yildan 1991-yilgacha bukmekerlik sanoatining asosiy vektori chakana savdo shoxobchalari hamda telebetting (masofaviy telefon aloqasi orqali garov tikish) xizmatlariga qaratildi. 1961-yilda Buyuk Britaniyada qimor o‘yinlariga oid qonunchilik tatbiq etilishi natijasida tikish punktlarining jadal kengayishi kuzatildi; xususan, har hafta o‘rtacha 100 ta yangi shoxobcha ochilib, 1962-yilning boshiga kelib ularning umumiy soni 10 000 taga yetdi.

Sport garovlari tarixida texnologik yuksalish davom etar ekan, 1960-yillarda sport musobaqalariga shaxsan kela olmaydigan yoki maxsus shoxobchalarga borish imkoniyati bo‘lmagan mijozlar uchun telebetting afzal usul sifatida shakllandi. Telefon orqali garov tikish mexanizmi yanada qulay xizmat ko‘rsatish imkonini yaratdi va bu “William Hill” kabi an’anaviy bukmekerlar tomonidan tezkorlik bilan o‘zlashtirildi<sup>3</sup>.

**1961-yilgi virtual sport ixtirosi:** IBM muhandisi Jon Berjeson (John Burgeson) tomonidan virtual sportning joriy etilishi soha rivojida muhim bosqich bo‘ldi. U tasodifiy sonlar generatori

---

O‘rta asrlarga kelib bukmekerlikni tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari shakllana boshladi. Yevropa hukmdorlari qimor sohasini nazorat qilishga oid bir qator farmon va ediktlar chiqarishgan. Xususan, 1254-yilda Fransiya qiroli Lyudovik IX mamlakat hududida qimor o‘yinlarini qat’iyan taqiqlovchi hamda qonunbuzarlarga nisbatan tan jazosini (darralash) qo‘llashni nazarda tutuvchi edikt e‘lon qildi.

(RNG) va o‘yinchilarning statistik ko‘rsatkichlariga tayanib, natijasi aniqlanadigan ikki jamoa o‘rtasidagi beysbol simulyatsiyasi o‘yinini yaratdi. Ushbu innovatsiya zamonaviy raqamli sport o‘yinlari va algoritmik garov tikish tizimlarining tamal toshi bo‘lib xizmat qildi.

Bukmekerlik sohasidagi jadal rivojlanish XX asr oxiriga kelib bukmekerlik xizmatlarini onlayn amalga oshirish imkonini vujudga keltirdi. 1996-yilda dastlabki onlayn garov amalga oshirilgan. Ushbu jarayon Karib dengizidagi kichik orol-davlat Antigua va Barbudada litsenziyalangan Germaniyaning “Intertops onlayn” bukmekerlik kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan.

Sanoat rivojidadagi burilish nuqtasi 1996-yilda Angliya kubogi doirasidagi “Tottenham Hotspur” va “Hereford United” jamoalari o‘rtasidagi takroriy o‘yin vaqtida yuz berdi. O‘yinning o‘zi unchalik ahamiyatli bo‘lmasa-da, u qimor o‘yinlari tarixida ilk bor onlayn sport garovi tikilgani bilan muhrlandi. Bu voqea onlayn sport garovlarining bugungi kunda ko‘p milliard dollarlik sanoatga aylanishi bosqichini boshlab berdi<sup>4</sup>.

1994-yilda Antigua va Barbudaga offshor hudud sifatida Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan onlayn qimor litsenziyalarini berish huquqi taqdim etilgan edi. Antigua va Barbuda 1994-yildan boshlab interaktiv o‘yin va garov kompaniyalarini litsenziyalashni boshladi va internet qimor industriyasining rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

“Intertops”ning onlayn maydondagi kashshoflik faoliyatidan so‘ng ko‘plab operatorlar bozorga tezkorlik bilan kirib kelishdi va bu yangi xalqaro savdo maydonining shakllanishiga xizmat qildi. Boshqa bukmekerlik kompaniyalari ham soliq imtiyozlari sababli aynan offshor hududlarda joylashishni afzal ko‘rdilar.

Bu kabi rivojlanishlar natijasida 2002-yilga kelib mijozlar ilk bor “live” (real vaqt rejimidagi) garovlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. “Live betting” deganda musobaqa davomida real vaqt rejimida garov tikish tushuniladi. Bu bukmekerlik industriyasini tubdan o‘zgartirdi va garov tikuvchilarga o‘yin jarayonini kuzatib turgan holda qaror qilish imkoniyatini berdi.

<sup>3</sup> History of Sports Betting <https://regulatedunitedeurope.pages.dev/blog/history-of-sports-betting/>

<sup>4</sup> History of Slot Machines <https://calendly.com/rosaire-cavallaro/delasport-sportsbook>



2000-yilga kelib mobil qurilmalar orqali onlayn garov tikish imkonini beruvchi dastlabki dasturiy ta'minot ishga tushirildi. Mobil texnologiyalarning rivojlanishi bukmekerlik xizmatlarini yanada qulayroq va osonroq qildi. Foydalanuvchilar istalgan joyda va istalgan vaqtda o'z mobil qurilmalari orqali garov tikish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Operatorlar buni allaqachon anglab yetgan va jonli tikishlarga yangi o'yin formatlarini joriy etmoqda. Bugun deyarli barcha jonli o'yinlarda saytga integratsiya qilingan real vaqtdagi statistika mavjud, ko'plab kompaniyalar esa ushbu platformalar orqali jonli videotranslyatsiyalarni ham taklif eta boshladi. Shu tariqa sport tomosha qilish endi faqat televideniye bilan cheklanib qolmayapti. Yirik tikish saytlarining moliyaviy aylanmasi ancha yuqori bo'lib, bu ularga yirik sport musobaqalarini namoyish etish huquqlariga da'vogar bo'lish imkonini bermoqda.

Bukmekerlik faoliyatining vujudga kelishi va evolyutsiyasi uzoq tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Qadimgi Misr, Gretsiya va Rimdan boshlab, o'rta asrlar Yevropasi, XIX–XX asrlar industriyalizatsiyasi va nihoyat XXI asrning raqamli davriga qadar ushbu faoliyat doimiy ravishda o'zgarib va takomillashib kelgan.

Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, qadimda oddiy garov tikish shaklida bo'lgan bu faoliyat vaqt o'tishi bilan murakkab matematik tizimlar, professional tashkilotlar va zamonaviy raqamli platformalarga aylanib bordi.

Bukmekerlik sanoati milliardlik global biznesga aylangan. U davlat budjetiga sezilarli daromad keltiradi va sport industriyasining ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, uning salbiy oqibatlari ham jiddiy: onlayn qimor o'yinlari ayrim insonlar, xususan yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib, psixologik, jismoniy va ijtimoiy salbiy natijalarga sabab bo'ladi. Qimor qaramligi shaxsning moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda nomutanosiblik va jinoiy xatti-harakatlar xavfini oshiradi. Shu bois bukmekerlik faoliyatini davlat tomonidan samarali tartibga solish va qat'iy nazorat qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Britaniya tajribasiga tayangan holda (Gambling Review 2020) O'zbekiston qonunchiligida bukmekerlik operatorlari zimmasiga mijozning

bukmekerlik sohasidagi jadal rivojlanish XX asr oxiriga kelib bukmekerlik xizmatlarini onlayn tarzda amalga oshirish imkonini vujudga keltirdi. 1996-yilda dastlabki onlayn garov amalga oshirilgan. Ushbu jarayon Karib dengizidagi kichik orol-davlat Antigua va Barbudada litsenziyalangan Germaniyaning "Intertops onlayn" bukmekerlik kompaniyasi tomonidan tashkil etilgan.

moliyaviy zaifligini (Financial Risk Assessment) muntazam monitoring qilish va yosh toifasiga qarab tikish limitlarini differensiallash majburiyatini yuklash ilmiy va ijtimoiy jihatdan asoslangan zaruriyat hisoblanadi.

### **Taklif: bukmekerlik subyektlari uchun "Moliyaviy xavf-xatarlarni to'siqsiz (frictionless) tekshirish" mexanizmini joriy etish**

**Taklifning ilmiy-huquqiy asosi:** Britaniya "Oq kitobi" (White Paper) va 2023-yildagi islohotlar loyhasiga ko'ra, operatorlarga mijozlarning moliyaviy holati va o'yin jarayonidagi yo'qotish darajalarini avtomatlashtirilgan holda tekshirish majburiyati yuklanmoqda. O'zbekiston sharoitida bukmekerlik faoliyatini tartibga solishda faqat soliq tushumlariga e'tibor qaratmay, o'yinchilarning ijtimoiy bankrotligining oldini oluvchi ushbu tizimni joriy etish zarur.


### **Taklifning tarkibiy qismlari:**

**Moliyaviy zaiflik koeffitsiyenti (Financial Vulnerability Check):** muayyan vaqt oralig'ida (masalan, bir oyda) ko'rilgan sof zarar belgilangan miqdordan oshgan taqdirda, tizim avtomatik ravishda mijozning moliyaviy barqarorligini tekshirishi lozim.

**To'siqsiz (frictionless) tekshirish mexanizmi:** ushbu tekshiruv mijozning kundalik hayotiga xalaqit bermasligi uchun operator va bank-moliya muassasalari o'rtasida o'yinchining faqat "garov tikish qobiliyati" (affordability) bo'yicha ma'lumot almashinuvi yo'lga qo'yilishi kerak.

**Nurmuhammad BOLLIYEV,**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti



# Ma'muriy tartib-taomillarda

## manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning huquqiy masalalari

Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy tartib-taomillar fuqarolar hamda yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'muriy qarorlarni qabul qilish jarayonida xolislik va adolat prinsiplariga rioya etilishi davlat organlariga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Shu nuqtayi nazardan ma'muriy tartib-taomillarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni samarali tartibga solish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan qat'iy choralar belgilanmoqda. Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish yurtimizda korrupsiyaning oldini olish uchun mustahkam asos yaratadi.

Har bir korxonada, muassasa va tashkilotda xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga oid qator chora-tadbirlar joriy etilgan.

Xususan, O'zbekiston prokuratura organlari tizimida ham Bosh prokurorning buyrug'i bilan tasdiqlangan maxsus tartib qo'llanib, xodimlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Mazkur tushuncha 2017-yil 3-yanvar kuni imzolangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda ham o'z ifodasini topdi. Qonunning 3-moddasiga ko'ra, "manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi)

yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat<sup>2</sup>"dir.

2024-yil 5-iyun kuni qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunda ham manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi qayd etildi. Mazkur tushunchaning ikkinchi bir qonunchilikda takroran berilishi qonunchilikdagi tавтоlogiya bo'lsa-da, har ikki hujjatda ham manfaatlar to'qnashuvi markaziy o'rinda bo'lgani sababli bu qonunchilikdagi xato sifatida ko'rilmaydi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda manfaatlar to'qnashuvi korrupsiyaviy xavflarning muhim manbayi sifatida belgilangan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, huquqiy davlat va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish sharoitida ma'muriy organlar tomonidan qabul qilinadigan individual ma'muriy qarorlarning qonuniyligi va asoslanganligi masalasi alohida ahamiyatli. Qarorlarning legitimligi, ya'ni jamiyat tomonidan adolatli va ishonchli deb qabul qilinishi avvalo uni qabul qilgan mansabdor shaxslarning xolisligi va betarafliigi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan manfaatlar to'qnashuvi instituti ma'muriy huquq sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda manfaatlar to'qnashuvi masalasi asosan korrupsiyaga qarshi kurashish

<sup>1</sup> Nematov J.N. Ma'muriy tartib-taomillar. – T.: TDYU nashriyoti, 2024.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. <https://www.lex.uz/acts/3088008>.



kontekstida tartibga solib kelinmoqda. Manfaatlari to'qnashuvi korrupsiyaning o'zi emas, ammo uni tartibga solish choralari ko'rilmasa, korrupsion holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan potensial xavf sifatida namoyon bo'ladi. Amaldagi qonunchilik manfaatlari to'qnashuvini asosan axloqiy yoki intizomiy masala sifatida baholab, uni ma'muriy tartib-taomillarning ajralmas protsessual elementi sifatida yetarli darajada qamrab olmaydi.

Ma'muriy tartib-taomillarda manfaatlari to'qnashuvini tartibga solishda O'zbekistonning "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni<sup>3</sup> alohida ahamiyatga ega. Chunki mazkur qonunda ma'muriy organlar faoliyatining asosiy prinsiplari qatorida qonuniylik, xolislik va ishonchni himoya qilish prinsiplari mustahkamlangan. Ushbu prinsiplarning amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash uchun ma'muriy tartib-taomillarda ham manfaatlari to'qnashuvini tartibga solishning aniq protsessual mexanizmlarini belgilash zarur.

Xususan, qonunda manfaatlari to'qnashuvi bo'lgan holatda mansabdor shaxsning ishda ishtirok etishi, qabul qilingan ma'muriy qarorning huquqiy taqdiri va javobgarlik masalalari aniq normativ ifodasini topmagan.

**Ma'muriy tartib-taomillarda manfaatlari to'qnashuvi quyidagi holatlarda yuzaga kelishi mumkin va bu holatlar huquqiy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi:**

- mansabdor shaxs va arizachi o'rtasida qarindoshlik yoki boshqa shaxsiy munosabatlar bo'lganda;
- qabul qilinayotgan ma'muriy qaror mansabdor shaxsning moliyaviy yoki tadbirkorlik manfaatlari daxl etganda;
- xizmat vakolatlaridan shaxsiy manfaatlarni ko'zlab foydalanish holatlarida<sup>4</sup>.

Bunday holatlar ma'muriy qarorlarning qonuniyligi va adolatligiga salbiy ta'sir ko'rsa-

tadi. Chunki manfaatlari to'qnashuvi bo'lgan sharoitda qabul qilingan ma'muriy qaror tashqi ko'rinishda qonuniy bo'lishi mumkin, ammo u qabul qilinishi tartibi hamda mazmun jihatidan ma'muriy huquqning xolislik, tenglik va adolat kabi asosiy prinsiplariga zid keladi.

Shu sababli manfaatlari to'qnashuvini tartibga solishda uni faqat natijaviy huquqbuzarlik sifatida emas, balki ma'muriy qaror qabul qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tizimli xavf sifatida baholash zarur.

Ma'muriy tartib-taomillarda manfaatlari to'qnashuvini bartaraf etish xalqaro amaliyotda quyidagi to'rt bosqichli huquqiy mexanizmlar orqali ta'minlanadi:

**Birinchi**dan, manfaatlari to'qnashuvi haqida ma'lum qilish majburiyati joriy etilgan bo'lib, mansabdor shaxs o'z vaqtida rahbariyatni xabardor qilishi shart.

**Ikkinchi**dan, o'zini o'zi chetlatish (recusal) instituti ma'muriy ishni xolis ko'rib chiqishni ta'minlovchi muhim kafolat hisoblanadi.

**Uchinchi**dan, tashkiliy va ichki nazorat mexanizmlari, jumladan, komplayens-nazorat va xizmat tekshiruvlari orqali ma'muriy qarorlarning qonuniyligi ta'minlanadi.

**To'rtinchi**dan, manfaatlari to'qnashuvini yashirish yoki undan qonunga xilof foydalanish holatlari uchun intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilangan<sup>5</sup>.

Yuqorida qayd etilgan mexanizmlarga to'xtaladigan bo'lsak, manfaatlari to'qnashuvi haqida ma'lum qilish majburiyati preventiv xususiyatga ega bo'lib, korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro standartlarga ko'ra, mazkur majburiyat faqat rasmiy manfaatlari bilan cheklanmasdan, balki potensial yoki ehtimoliy manfaatlari to'qnashuvini ham qamrab olishi lozim. Shu bilan birga, ma'lum qilishning shakli, muddati va tartibi qonun normalari bilan aniq belgilab qo'yilmasa, ushbu institut formal tus olib qolishi ehtimoli mavjud.

O'zini o'zi chetlatish instituti ma'muriy adolat tamoyilining amaldagi ifodasi hisobla-

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/3492199>.

<sup>4</sup> Kasprzak S. Koflikt interesu w sferze publicznej administracji panstwowej. W: Roczniki Nauk Prawnych. T. 26, nr 3 (2016), s. 155-173.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. <https://lex.uz/docs/97664>.



“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunda manfaatlar to‘qnashuvi korrupsiyaviy xavflarning muhim manbayi sifatida belgilangan. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, huquqiy davlat va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish sharoitida ma’muriy organlar tomonidan qabul qilinadigan individual ma’muriy qarorlarning qonuniyligi va asoslanganligi masalasi alohida ahamiyatli. Qarorlarning legitimligi, ya’ni jamiyat tomonidan adolatli va ishonchli deb qabul qilinishi avvalo uni qabul qilgan mansabdor shaxslarning xolisligi va betarafligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

nadi. Ushbu mexanizm inson omili ta’sirini kamaytirish orqali qaror qabul qilishda xolislikni ta’minlaydi. Biroq amaliyotda mazkur institutning samaradorligi ko‘p jihatdan mansabdor shaxsning huquqiy madaniyati va mas’uliyatiga bog‘liq bo‘lib, uni qonun bilan majburiy xarakterga ega etish hamda nazorat mexanizmlari bilan mustahkamlash zarur.

Tashkiliy va ichki nazorat mexanizmlari institutsional kafolat sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, komplayens-nazorat tizimining joriy etilishi ma’muriy organlar faoliyatida tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Biroq ushbu mexanizmlar mustaqillik va funksional avtonomiyaga ega bo‘lmasa, ularning ta’sirchanligi pasayishi mumkin. Shu bois xalqaro amaliyotda komplayens bo‘linmalarining rahbariyatdan nisbatan mustaqil faoliyat yuritishi muhim hisoblanadi.

Javobgarlik choralari mavjudligi manfaatlar to‘qnashuviga qarshi kurashda majburlovchi omil vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, sanksiyalarning mutanosibligi va aniq kvalifikatsiyasi huquqni qo‘llash amaliyotida zaruriy ahamiyatga ega. Agar huquqbuzarlik tarkibi

aniq belgilab berilmasa, huquqiy aniqlik tamoyili buzilishi va turlicha talqinlarga yo‘l ochilishi mumkin.

Manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning eng muhim va murakkab masalalaridan biri – bunday sharoitda qabul qilingan ma’muriy qarorning huquqiy oqibatini belgilashdir. Xalqaro huquqiy standartlar bu borada bir necha yondashuvni taklif etadi: qarorni qayta ko‘rib chiqish, uni haqiqiy emas deb topish yoki sud tartibida bekor qilish<sup>6</sup>. Ma’muriy qarorning huquqiy oqibatini belgilash masalasi huquqiy barqarorlik va adolat o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Xalqaro amaliyotda har bir holat individual baholanib, manfaatlar to‘qnashuvining qaror natijasiga qay darajada ta’sir etgani inobatga olinadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, manfaatlar to‘qnashuvini samarali tartibga solish deklaratsiyalash tizimi, ochiq reyestrlar hamda elektron ma’muriy tartib-taomillar orqali amalga oshiriladi. Masalan, Yevropa ittifoqi mamlakatlarida mansabdor shaxslarning mol-mulk va manfaatlar deklaratsiyasi davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlashning muhim vositasi hisoblanadi<sup>7</sup>.

Milliy qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun ilg‘or xorijiy tajribadan foydalanган holda deklaratsiyalash tartibini takomillashtirish, undagi ma’lumotlarning ishonchligini ta’minlash, tekshiruv mexanizmlarining samaradorligini oshirish orqali ma’muriy tartib-taomillarda manfaatlar to‘qnashuvini samarali tartibga solishga erishish mumkin.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, ma’muriy tartib-taomillarda manfaatlar to‘qnashuvini huquqiy jihatdan samarali tartibga solish davlat boshqaruvining qonuniyligi, xolisligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo‘llash amaliyotini izchil rivojlantirish hamda mansabdor shaxslarning huquqiy ongini yuk-saltirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

**Munisa TOG‘AYEVA,**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistraturasi  
“Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishi magistri

<sup>6</sup> OECD. Managing Conflict of Interest frameworks, tools, and instruments for preventing, detecting, and managing conflict of interest. – Indonesia, 2007.

<sup>7</sup> OECD. Managing Conflict of Interest in the Public Sector. – Paris, 2020.



# Mualliflik huquqida “Yetim asarlar” rejimi:

## Yevropa ittifoqi direktivalari asosida O‘zbekiston uchun modellar

Mualliflik huquqi bilan himoyalangan, biroq uning muallifi yoki huquq egasini aniqlab bo‘lmaydigan asarlar hozir juda ham ko‘p topiladi va ular “yetim asarlar” deyiladi.

“Yetim asarlar”dan foydalanishdan oldin foydalanuvchi (kutubxona, muzey, arxiv va boshqalar) muallif yoki boshqa huquq egasini aniqlash va topish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solib, puxta tekshiruv o‘tkazadi.

Agar shunga qaramay huquq egasini aniqlash yoki topish imkoni bo‘lmasa, asar “yetim” deb e‘tirof etiladi. Shuningdek, asarning muallifi yoki huquq egasi dastlab aniqlanmagan yoki avval aniq bo‘lgan, ammo hozirgi kunda uning manzili, aloqa ma‘lumotlari topilmagan holatda ushbu asarlar “yetim” deb hisoblanishi mumkin. Biroq “yetim asar” deganda faqatgina huquqi bekor bo‘lgan asar sifatida tasarruf qilish xato va u hali ham mualliflik huquqi doirasida himoyalangani. Ushbu holatda faqatgina kimdan ruxsat olish kerakligi noma‘lum bo‘ladi. Vaziyatda asarning “yetim” deb tan olinishi uning mualliflik huquqi himoyasidan chiqarilishiga sabab bo‘lmaydi. Shunchaki huquq egasining noma‘lumligi tufayli huquqlarni boshqarishda yuridik to‘siqni yuzaga keltirishi mumkin.

Har qanday turdagi asar

yetim bo‘lishi mumkin: suratlar, yozma asarlar, audioyozuvlar, fotosuratlar, film kabi vizual materiallar.

Asarlarning yetimlashishiga bir nechta sabab mavjud, jumladan:

- yaratilganidan beri uzoq vaqt o‘tgan bo‘lsa;
- identifikatsiya ma‘lumotlari yo‘qolib qolgan yoki ataylab olib tashlangan bo‘lsa (masalan, internetdagi rasmlarda metadatta bo‘lmasligi);
- muallifni aniqlash uchun zarur ko‘nikmalar yoki vositalarning yetishmasligi kabi holatlar bunga misol bo‘la oladi<sup>1</sup>. Uzoq muddatli mualliflik huquqi himoyasi, avtomatik himoya va ro‘yxatga olish talablarining yo‘qligi tufayli “yetim asarlar” keng tarqalgan.

“Yetim asarlar”ning ko‘p qismi aynan madaniy, tarixiy asarlar sirasiga kirgan holda bunday madaniy merosni asrashning

muhim yo‘nalishi uni raqamlashtirish va keng jamoatchilik uchun ushbu asarlardan foydalanish imkonini berishdan iboratdir. Vaholanki, ushbu asarlarning huquqiy holati jiddiy muammoga yuz tutmoqda. Yevropa ittifoqi hududida “British Library” tomonidan foydalanib kelinayotgan kolleksiyalarning 40 foizdan ortig‘i “yetim asarlar”dan iborat ekani qayd etiladi. Shuningdek, 2001-yildagi hisob-kitoblarga ko‘ra, 1,25 mlrd dona atrofidagi davriy nashrlar “yetim asarlar” bo‘lishi mumkin. Bu holat muammoning nihoyatda keng ko‘lamga ega ekanini ko‘rsatadi<sup>2</sup>.

XX asr boshlarida Yevropadagi ko‘plab madaniy muassasalar (kutubxonalar, arxivlar) minglab eski kitoblar, filmlar, fotosuratlar va yozuvlarni raqamlashtirib ommaga e‘lon qilishni xohlashgan va bunday holatda ular muallifi noma‘lum

<sup>1</sup> K&L Gates LLP: Proposed Copyright Reform in Australia - Limited Liability Scheme for Use of Orphan Works – URL: (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn:contentItem:60YF-PVD1-F03R-N35G-00000-00&context=1519360>).

<sup>2</sup> Ariadna Matas, Maarten Zeinstra, Deborah De Angelis – URL: The Orphan Works Directive is broken but the Commission won't fix it! | Kluwer Copyright Blog.



asarni raqamlashtirib, ommaga taqdim etgan taqdirda mualliflik huquqini buzgan hisoblanib, katta jarimalarga tortilishi mumkin bo'lgan. Natijada kelib chiqadigan xavfdan qo'rqan muassasalar ko'p sonli "yetim asarlar"ni raqamlashtirishni to'xtatishgan. Shu asnoda raqamlashtirilmagan har bir noma'lum muallif yaratgan madaniy meros yoki asarlar bosma holatda yemirilish oqibatida yo'qola boshlagan.

Yevropa ittifoqida "yetim asarlar" muammosi 2005-yilga borib taqalgan hamda o'sha vaqtda Yevropa komissiyasi 2010-yillarda "European" deb nomlangan onlayn raqamli kutubxonani yaratish tashabbusini boshlagan<sup>3</sup>. Ushbu raqamli kutubxona o'sha vaqtdan boshlab barcha Yevropa milliy kutubxonalaridagi "yetim asarlar"ni jamoatchilikka yetkazishga xizmat qiladi. "European" kitoblar, maqolalar, gazetalar, videolar, musiqa va fotosuratlar kabi keng turdagi raqamlashtirilgan asarlarga erkin kirish imkonini beribgina qolmay, muhim madaniy materiallarni arxivlaydi va saqlaydi hamda ushbu asarlarining bosma shaklini olish uchun kutubxonalarga tashrif buyurish o'rniga butun dunyo bo'ylab odamlar shunchaki veb-saytga kirgan holda Yevropa madaniy

merosidan bahramand bo'lishlari yoki o'rganishlarini ta'minlaydi<sup>4</sup>.

Shu bilan bir qatorda "yetim asarlar" masalasi xalqaro miqyosda keng o'rganilgan hamda Yevropa ittifoqining 2012/28/YI direktivasi ushbu holatni qonuniy tartibga solishning asosiy namunasi hisoblanadi. Yevropa ittifoqi tomonidan 2011-yilda "yetim asarlar" muammosining oldini olish maqsadida bir qator ishlar taklif qilingan bo'lib, 2012-yil 25-oktabrda rasman Yevropa ittifoqining 2012/28/YI "yetim asarlar" to'g'risidagi direktivasi qabul qilingan. Ushbu direktivaga Yevropa ittifoqidagi davlatlar o'zlarining takliflarini kiritish huquqiga ega bo'lishgan<sup>5</sup>. Direktivaning asosiy maqsadi shundan iboratki, u turli madaniy meros tashkilotlariga keng ko'lamlari tarzda raqamlashtirilgan to'plam yoki arxivni saqlashga yordam berish uchun "yetim asarlar"ni tarqatish va raqamlashtirishni osonlashtirishga, shuningdek, qonuniy jihatdan aniq asos yaratishga hissa qo'shadi<sup>6</sup>. Yevropa ittifoqining 2012/28/YI direktivasining<sup>7</sup> asosiy vazifasi "yetim asarlar"ning egasini aniqlash, asar egasi aniqlanmagan taqdirda uning mualliflik huquqini saqlashdan iboratdir. Shuningdek, ushbu turdagi

asarlarni "Yevropa ittifoqi Intellektual mulk idorasi (EUIPO)<sup>8</sup> "yetim asarlar" ma'lumotlar bazasidan topish mumkin. Keyinchalik "yetim asar" maqomi berilgan asarning huquqiy egasi topilgan taqdirda direktivaning asoslariga ko'ra asar egasidan tovon puli olishi mumkin.

Biroq mustaqil tadqiqotlarga asosan, xususan, "Milieu" tadqiqoti haqidagi ma'lumotlar Yevropa komissiyasining "Yetim asarlar to'g'risidagi direktiva 2012/28/YI qo'llanilishi bo'yicha hisoboti"ga<sup>9</sup> ko'ra direktivaning keng ko'lamda raqamlashtirilishi cheklangan ekanini amaliy tarzda yoritib bergan bo'lib, direktivaning "kuchli qidiruv" talabi va ma'lumotlar bazasining murakkabligi tanqid qilinadi. So'ngra Yevropa komissiyasi bu hisobotni qabul qilgan va direktivaning qo'llanilishidagi muammolarni tan olgan holda belgilangan choralardagi to'siqlarni ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, "Google Books Amended Settlement Agreement" "yetim asarlar" bilan bog'liq muammoni hal qilishning muqobil yo'llaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Ehtimol, ushbu bitimning muhokama qilinishi 2008-yildan keyin AQSh Kongressida "yetim asarlar" bo'yicha qonunchilik tashabbuslari davom etmaganiga

<sup>3</sup> Bzhar Abdullah Ahmed "The Situation of Orphan Works under Different Jurisdictions". Chicago-Kent Journal of Intellectual Property. – URL: <https://scholarship.kentlaw.iit.edu/ckjip/vol20/iss1/5/>

<sup>4</sup> Allard Ringnald, Orphan Works, Mass Rights Clearance, and Online Libraries: The Flaws of the Draft of Orphan Works Directive and Extended Collective Licensing as a Solution, 8 Medien und recht international 1, 1-5.

<sup>5</sup> Bingbin Lu, The Orphan Works Copyright Issue: Suggestions for Internationale Response, 60 J. COPY. SOC'Y U.S.A. 255, 271.

<sup>6</sup> Marie Christine Janssens & Ran Tryggvadottir, Facilitating Access to Orphan and Out of Commerce Works to Make Europe's Cultural Resources Available to the Broad Public (The Conference on Copyright and the Digital Agenda for Europe: Current Regulations and Challenges for the Future, Athens 6 June 2014).

<sup>7</sup> Yevropa ittifoqining 2012/28/YI "Yetim asarlar to'g'risidagi direktivasi". – URL: Directive - 2012/28 - EN - EUR-Lex.

<sup>8</sup> Betsy McKenzie: Orphan Works – URL: (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn:contentItem:52ND-5DB1-JCMN-Y1YV-0000-00&context=1519360>).

<sup>9</sup> Yevropa ittifoqining 2012/28/YI "Yetim asarlar to'g'risidagi direktivasi". – URL: Directive - 2012/28 - EN - EUR-Lex.



ham ta'sir ko'rsatgan.



Biroq ishni ko'rib chiqqan sudya Denny Chin bitimdan qoniqmaganini bildirib, unda "yetim asarlar" bilan ishlash mexanizmi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganini ta'kidlagan. Shuningdek, u ushbu muammoni samarali hal qilish uchun aynan "yetim asarlar" bo'yicha maxsus qonun qabul qilinishi zarurligini qayd etgan. 2011-yil 23-mart kuni "Chronicle of Higher Education" jurnalida Jennifer Howard maqolasida qayd etilishi cha "HathiTrust" ijrochi direktori Jon Uilkin "Google" bilan huquqiy masalalar bo'yicha yangi koalitsiya tuzish yuzasidan muzokara olib borilayotganini ma'lum qilgan. U shuningdek, muammo faqat AQSh bilan cheklanib qolmay, balki global xarakterga ega ekanini ta'kidlab, dunyo miqyosida "yetim asarlar" bilan bog'liq mualliflik huquqi qonunchiligini ko'rib chiqish zarurligini qayd etgan.

Shu bilan birga "Digital Public Library of America" (DPLA) tashabbusi ham bu yo'nalishda ish olib bormoqda. Jon Palfri sessiya yozuvlariga ko'ra, DPLA tizimida uch xil zona mavjud:

- qizil zona – mualliflik huquqi ostidagi materiallar;
- sariq zona – "yetim asarlar" va "kulrang adabiyot";
- yashil zona – jamoat domenidagi materiallar<sup>10</sup>.

Darhaqiqat, "Techdirt" ma'lumotlariga ko'ra, "yetim asarlar" mualliflari yoki huquq egalari aniqlanmagan bo'lsa-

"Yetim asarlar"ning ko'p qismi aynan madaniy, tarixiy asarlar sirasiga kirgan holda bunday madaniy merosni asrashning muhim yo'nalishi uni raqamlashtirish va keng jamoatchilik uchun ushbu asarlardan foydalanish imkonini berishdan iboratdir. Vaholanki, ushbu asarlarning huquqiy holati jiddiy muammoga yuz tutmoqda.

da, ba'zi mutaxassislar ularni "garovga olingan asarlar"<sup>11</sup> deb atash fikrini ilgari suradilar. Chunki ularning huquqlari qat'iy himoya qilinishi, shuningdek, tizimlashtirish qoidalarining murakkabligi va direktivalar asosida foydalanish tartibining qiyinligi sababli bunday asarlar amalda faqat bosma holatda qolib ketmoqda. Xususan, Yevropa komissiyasi 2015-yil 29-oktabrgacha direktiva qanday ishlashi haqida hisobot taqdim etishi kerak bo'lganda komissiya hisobotni yetti yil kechiktirib e'lon qilgan<sup>12</sup>. Komissiya hisobotni e'lon qilishni kechiktirgani ko'plab noroziliklarga sabab bo'lgan. EUIPO ma'lumotlar bazasida qayd etilgan asarlarning soni kamligini inobatga olsak, "yetim asarlar"ni raqamlashtirishdagi to'siqlar va ulardan foydalanishdagi qiyinchiliklar ortgani sari bunday asarlardan foy-

dalanishda istisnolar soni ham oshgani kuzatiladi<sup>13</sup>. Ayniqsa, "Covid-19" pandemiyasi davrida maktablar, universitetlar, madaniy muassasalar va davlat idoralari xizmatlarini raqamli shaklda ko'rsatishga o'tgani muammolarning kuchayishiga sabab bo'lgan. Chunki ushbu davrda mualliflarni aniqlash va ulardan ruxsat olish jarayoni ko'p vaqt talab qilgan va ba'zan umuman imkon bo'lmagan. Xususan, Avstraliya milliy kinolarining taxminan 20 foizi yetim yoki tashlab ketilgan asarlar ekani bildirilgan. Bu esa ko'plab tarixiy va madaniy loyihalarning to'xtatilishiga sabab bo'ldi.

"Yetim asarlar" global miqyosda dolzarb hisoblanib, uning mohiyati mualliflik huquqi himoyasidagi asarlarning huquq egasi noma'lumligi yoki topilmasligi bilan bog'liq bo'lsa-da, ko'plab muassasalar jarima xavfidan qo'rqib, milliardlab qimmatli asarlarni raqamlashtirishdan va ommaga taqdim etishdan o'zlarini tiyib kechishgan. Biroq O'zbekiston sharoitida mamlakatning boy tarixiy va madaniy merosi mavjud bo'lishiga qaramay O'zbekiston qonunchiligida "yetim asarlar" tushunchasi va ulardan foydalanishning maxsus mexanizmi mavjud emas. Yuqorida sanab o'tilgan "Yetim asarlar to'g'risidagi direktiva"larga asosan O'zbekistonda "yetim asarlar" yuzasidan qabul qilingan hujjatlar ishlab chiqilishi

<sup>10</sup> Techdirt: They're Not 'Orphan Works', They're 'Hostage Works' | Techdirt

<sup>11</sup> Yevropa ittifoqi kengashi: imfname\_11200921.pdf

<sup>12</sup> Glyn Moody: Ten Years Later, The EU Orphan Works Directive Is Officially A Failure - Just As The Copyright Industry Intended – URL: (<https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn:contentItem:673N-2NX1-JCMN-Y1YD-00000-00&context=1519360>)

<sup>13</sup> Milieu Consulting. – URL: Study on the application of the Orphan Works Directive (2012/28/EU) - Publications Office of the EU.



maqsadga muvofiq. Bu holatda xalqaro tajriba, xususan, Yevropa ittifoqining 2012/28/YI direktivasi va "Milieu" tadqiqoti asosida mazkur muammoni hal qilishga yechim berishi mumkin. Shu bois O'zbekiston oldida turgan asosiy muammo – Yevropa modelining zaif tomonlarini takrorlamagan holda milliy, madaniy merosning o'ziga xosligiga mos keladigan, samarali va amaliy qo'llash uchun qulay bo'lgan "yetim asarlar" huquqiy rejimini qonunchilikka kiritishdan iborat. Xususan, O'zbekiston hududida yaratilgan ko'plab tarixiy asarlar, ijodiy ishlar, rangtasvir namunalari mualliflarning haligacha noma'lumligi sababli ularning ishlari yo'qolish darajasiga kelib qolgan. Jumladan, sobiq ittifoq davrida o'zbek xalqi orasida ommalashgan "Mushtum" jurnalining ba'zi karikaturalarida muallif ismini oshkor qilishni xohlamaganligi sababli ularning asarlaridagi tegishlilik yillar o'tgan sari yo'qolib, hozir "yetim" maqomiga kelib qolgan. Shuni inobatga olgan holda O'zbekistonda "yetim asarlar" bo'yicha qabul qilingan hujjatlarni tatbiq etish kerak. Shu asnodda asarlarni raqamlashtirish orqali ularning yo'qolib ketish xavfini kamaytirib, butun dunyo bo'ylab o'zbek millatining madaniy merosini ifodalash imkoniga ega bo'linadi.

Shuningdek, O'zbekistonning "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuniga "yetim asarlar"ga oid yangi modda kiritish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu qonunning 1-moddasida qonun fan,

adabiyot va san'at asarlarining mualliflik huquqi asosida himoyalashini ifodalash bilan bir qatorda uning davlat darajasida himoyalashini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqqan holda "yetim asarlar" ham adabiyot va san'at asarlari ekanligini yodga olishimiz kerak. Ushbu qonunga kiritilishi rejalashtirilgan "yetim asarlar" haqidagi bu modda madaniy meros muassasalari, xususan, kutubxonalar, arxivlar, muzeylarning notijorat maqsadida saqlash, restavratsiya, kataloglashtirish va ommaga taqdim etish kabi holatida "yetim asarlar"dan foydalanishga ruxsat beruvchi maxsus huquqiy holatni belgilashda qo'l kelishi mumkin. Ushbu holat asosan Yevropa itti-

---

"Techdirt" ma'lumotlariga ko'ra, "yetim asarlar" mualliflari yoki huquq egalari aniqlanmagan bo'lsa-da, ba'zi mutaxassislar ularni "garovga olingan asarlar" deb atash fikrini ilgari suradilar. Chunki ularning huquqlari qat'iy himoya qilinishi, shuningdek, tizimlashtirish qoidalarining murakkabligi va direktivalar asosida foydalanish tartibining qiyinligi sababli bunday asarlar amalda faqat bosma holatda qolib ketmoqda.

foqi direktivasi doirasidagi faqat rasmiy "tekshiruv" jarayonini o'tkazgan va asarni ro'yxatga kiritgan muassasalarga berilishi maqsadga muvofiq. Chunki tekshirilmagan asarlarni "yetim" sifatida e'tirof etish ushbu asarlarning mualliflarini aniqlashdagi imkoniyatlarni cheklashga olib keladi. Bu yondashuv mustasno holatni qonun darajasida belgilash orqali muassasalar uchun aniqlik va yuridik himoyani kuchaytirishga, ayni paytda asar ustida mualliflik huquqi himoyasini saqlab qolishga ko'maklashishi mumkin.

"Yetim asarlar" rejimining samarali ishlashi uchun Intellektual mulk agentligi (IMA) asosiy o'rinni egallaydi. Misol uchun, Yevropa ittifoqi tomonidan "yetim" deb topilgan asarlarning ro'yxatga olinishini "Yevropa ittifoqi Intellektual mulk idorasi (EUIPO) zimmasiga olgan va O'zbekistondagi mualliflik huquqi himoya qilinadigan asarlarning muhofazasini aynan Intellektual mulk agentligi tartibga soladi. Shu bilan bir qatorda Intellektual mulk agentligi vakolat bergan milliy kutubxona yoki biror davlat muassasasi qoshida "tekshiruv" jarayonining rasmiy olib borilishi uchun ko'rsatmalar berishi maqsadga muvofiq. Bu reglamentda qidiruv manbalari va muddatlarini aniq belgilash orqali qidiruvga ketadigan uzoq vaqtni cheklash va ko'proq asarlarning mualliflarini aniqlash imkonini topish mumkin bo'ladi.

O'tkazilgan qidiruv natijasida muallifi topilmagan asarlar haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan yagona, ommaviy



va foydalanish imkoni bo'lgan "Yetim asarlar milliy ro'yxati" yaratilishi va uning sayt/platforma tarzidagi ko'rinishini yaratish maqsadga muvofiq. Bu orqali har bir asarning umumiy soni va ulardagi ko'plab ma'lumotlarni ommaga ulashish imkoniyati yaratiladi. Ushbu ro'yxat xalqaro standartlarga mos bo'lishi, kelajakda xalqaro tashkilot yoki muassasa bilan ma'lumot almashish va "yetim asarlar"ning yuridik maqomini o'zaro tan olish imkoniyatini ta'minlashi uning asosiy kafolati sifatida belgilanishi lozim.

"Yetim asarlar"dan foydalanishda mualliflarning moliyaviy huquqlarini himoyalash uchun "Kengaytirilgan jamoaviy litsenziyalash" (ECL) tizimi elementlarini joriy etish tavsiya etiladi. Bunda asarlardan foydalanishdan olingan (agar tijorat maqsadi bo'lsa) yoki ma'lum subsidiyalari hisobidan Tovon to'lash fondi tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu fond muallifni topmasdan turib asarlarni raqamlashtirishga katta imkon yaratgan holda tovon puli shu fondga saqlanishini ta'minlashi mumkin. Agar muallif paydo bo'lsa, u asarni ma'lumotlar bazasidan olib tashlashi yoki muassasa tomonidan undan foydalanishni davom ettirishiga ruxsat berishi mumkin. Kompensatsiya muallifning iltimosiga binoan foydalanish davridagi daromad miqdoriga qarab belgilanadi. Muhimi, mabodo asardan foydalanilgan taqdirda uning huquq egasi topilsa, foydalanuvchi muassasa unga asarning litsenziyalash to'lovini to'lab berishi maqsadga muvofiq

bo'ladi. Bu tizimni "Mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqaruv tashkilotlari" boshqarishi, to'lovlarni amalga oshirishdagi fondni samarali ishga tushirishga yordam berishi mumkin. Shuningdek, nashriyotlar bilan shartnomalar tuzish yo'li bilan asarlardan foydalanish imkoniyatini yaratish faqatgina tashkilot vakolatli bo'lsagina qo'llanilishi belgilab qo'yilishi kerak. Bora-bora ushbu asarlardan foydalanish doirasini kengaytirgan holda ushbu model nafaqat kitoblar va jurnallar, balki fotosuratlar, dizaynlar, audiovizual asarlarni ham qamrab olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, "yetim asarlar" muammosi asosan mualliflik huquqini buzish xavfi sababli madaniy merosni raqamlashtirishni cheklovchi global huquqiy to'siq vazifasini bajaradi. Yevropa ittifoqining 2012/28/YI direktivasi nazariy asos yaratgan bo'lsa-da, "kuchli tekshiruv" mexanizmi murakkabligi sababli amaliyotda to'liq samarali bo'lmagan.

"Yetim asarlar" muammosi nafaqat huquqiy, balki O'zbekistonning madaniy va iqtisodiy kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega. Taklif etilayotgan model orqali arxivlar va fondlardagi minglab noyob asarlar, eski nashrlar, filmlar, yozuvlar, bosma vositalar yo'qolish xavfidan himoyalanaadi va ularni raqamli formatda kelajak avlod uchun saqlash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga milliy merosni qonuniy va xavfsiz raqamlashtirish va ommaga taqdim etish orqali ta'lim, tadqiqot va inno-



"Yetim asarlar" rejimining samarali ishlashi uchun Intellektual mulk agentligi (IMA) asosiy o'rinni egallaydi. Misol uchun, Yevropa ittifoqi tomonidan "yetim" deb topilgan asarlarning ro'yxatga olinishini "Yevropa ittifoqi Intellektual mulk idorasi (EUIPO) zimmasiga olgan va O'zbekistondagi mualliflik huquqi himoya qilinadigan asarlarning muhofazasini aynan Intellektual mulk agentligi tartibga soladi.

vatsiyalar uchun boy ma'lumotlar bazasi yaratiladi va mamlakatning raqamli iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligi oshadi.

O'zbekiston qonunchiligini ishlab chiqayotganda bu qimmatli tajribalarni hisobga olishi va qiyin holatlarni yengillashtirgan holda madaniy meros muassasalariga haqiqiy imkoniyatlar beruvchi gibrid modelni qabul qilish maqsadga muvofiq. Taklif etilayotgan model istisnolar, jamoaviy litsenziyalash, markaziy ma'lumotlar bazasi va adolatli kompensatsiya mexanizmi orqali O'zbekiston madaniy merosini rag'batlantirishda mustahkam huquqiy poydevor bo'ladi. Shu bilan "yetim asarlar" uchun samarali huquqiy model mamlakatning madaniy merosni saqlash majburiyatlarini amalga oshirish va dunyo miqyosida madaniyatini e'tirof ettirish imkonini beradi.

**Xayriniso JO'RAYEVA,**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
magistranti